



JAHON TARIXI



O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

Yangi nashr



Mualliflar:

**Alisher Ismailov, Jonibek Mustafoyev, Nurhayot Hakimov,
Laziz Nasrullayev, Ramshod Raxmatov, Sanjar Kushbekov**

Taqrizchilar:

- B. Xodjayev** – Nizomiy nomidagi TDPU umumiy pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.
- Sh. Boboyorov** – Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
- A. Saxibova** – Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi 44-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.
- M. Xasanov** – Toshkent shahri Yangihayot tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



– xaritalar bilan ishleng



– yodda tuting



– tarixiy mushohada



– bilag'on o'quvchilar uchun



– esse yozish



– qo'shimcha ma'lumot

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 7-sinf "Jahon tarixi" darsligi uchun tayyorlangan ushbu metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga jahon tarixi fanidan qo'yiladigan malaka talablari, taqvim-mavzu reja, interfaol metodlar to'plami hamda darslarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Fan o'qituvchilari dars jarayonida mavzuga mos interfaol metodlarni qo'llashda, darsni samarali tashkillashtirishda ushbu metodik qo'llanmadan ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.



MUNDARIJA

Kirish	4
Umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilariga jahon tarixi fanidan qo'yiladigan malaka talablari	7
7-sinf jahon tarixi fani taqvim-mavzu rejasi	9
Dars ishlanmalari va metodik ko'rsatmalar	11
Darslikka kirish	12
I BOB. O'RTA ASRLARDA YEVROPA XALQLARI (V–XIII ASRLAR)	
1-mavzu. German qabilalari va Rim imperiyasi	13
2–3-mavzu. Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari	18
4-mavzu. Britaniyadan Angliyaga	23
5-mavzu. Muqaddas Rim imperiyasi	28
6-mavzu. Vizantiya: G'arb va Sharq orasida	34
7-mavzu. Slavyan davlatlarining tashkil topishi	38
I bob bo'yicha takrorlash mashg'uloti	43
II BOB. V–XIII ASRLARDA OSIYO VA AMERIKA	
8-mavzu. Yangi din beshigi	45
9-mavzu. Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi	56
10-mavzu. Saljuqiylar davlati	63
11-mavzu. Mo'g'ullar davlati	67
12-mavzu. Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”	75
13-mavzu. Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tanazzullar	80
14-mavzu. Koreya o'rta asrlarda	86
15-mavzu. Kunchiqar mamlakat – Yaponiya o'rta asrlarda	92
16-mavzu. Amerika o'rta asrlarda	98
II bob bo'yicha takrorlash mashg'uloti	106
III BOB. O'RTA ASR XALQLARINING IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR	
17-mavzu. O'rta asrlarda xristian olamida sodir bo'lgan o'zgarishlar	109
18-mavzu. Salib yurishlari	114
19-mavzu. Yevropada o'rta asr shaharlarining o'ziga xosligi	121
20-mavzu. Osiyoning o'rta asr shaharlari	129
21-mavzu. Yevropaning o'rta asrlar madaniyati	133
22-mavzu. Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati	138
23-mavzu. Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati	143
III bob bo'yicha takrorlash mashg'uloti	149
Baholash	154
Tarix fanidan masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi bo'yicha o'qituvchilarga tavsiyalar	161
7-sinf jahon tarixi fanidan loyiha asosida o'qitish texnologiyasi	166
Interaktiv o'yinlar	176
Tarix fani to'garagini tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarga tavsiyalar	182
Xulosa	188
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	190





KIRISH

So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa hozirgi kunda ulkan taraqqiyot sari ildam qadam tashlayotgan mamlakatimizning barcha jabhalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda. Bunday holat o'z navbatida o'quvchi-yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish, ularning ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ta'lim-tarbiyaga har tomonlama e'tibor qaratish, o'qitishning zamonaviy va samarali yo'llarini topish hamda amalda tatbiq qilishni taqozo etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta'lim-tarbiyasida buyuk va shonli tariximizga tayanishimiz lozimligini alohida ta'kidlaganlar. Buni biz prezidentimizning: *“Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy tarixiga tayanamiz”* va *“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak”*, deb aytgan so'zlaridan ham anglab olishimiz mumkin.

Shunday ekan, hozirgi kunda umumta'lim maktablarida ta'lim bilan kasb-hunarni birga o'qitish, o'quvchilar ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor berishimiz lozim. Buning uchun har bir tarix fani o'qituvchisi mashg'ulotlarda o'quvchilarning ixtiyoriy va mustaqil ishtirok etishini ta'minlaydigan turli qiziqarli o'yin texnologiyalaridan foydalanishi kerak.

Bugungi ta'lim tizimi eski qolip va mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion-raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyati uchun kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda ta'lim berishga nisbatan yondashuvlar ham o'zgarib, o'qituvchi oddiy bilim beruvchidan o'qituvchi-tashkilotchiga aylanmoqda. Ayrim o'qituvchilar uchun bu oson bo'lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, shaxslararo munosabatlarni o'rnata olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Axborot texnologiyalari sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan bugungi kunda ko'plab o'quv muassasalarida umumiy bir jihat – ko'p hollarda darsning texnologik jihatdan yetarli darajada tashkil etilmayotganligi ko'zga tashlanib qolmoqda.

Darslarning texnologik jihatdan tashkil etilishi, o'ylaymizki, tarix o'qituvchisining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga juda katta ko'mak beradi; o'quvchilarning har bir darsda o'z pozitsiyasini to'liq namoyon qilishlarini ta'minlaydi va ularda kompetentlikni oshiradi. Mana shu jihatlar o'qituvchining darsni rejalashtirish, loyihalash, modullash va modellashtirish jarayonlarini osonlashtiradi. O'quvchining darsga nazariy, amaliy jihatdan kompetensiyaviy yondashuvi esa o'z samarasini ko'rsatadi.

Shu maqsadda 7-sinf “Jahon tarixi” darsligi asosida o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanma tayyorlandi.

Ushbu qo'llanmaning maqsad va vazifalari: o'quvchilarga tarixni xolis va haqqoniy o'rgatish, tarixga nisbatan hurmat hissini kuchaytirish, umumiy bilimlar bilan birga tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni taqqoslash ko'nikmalarini shakllantirish; erkin fikrlashga o'rgatish, tarix faniga qiziqtirish, tarixiy bilimlarini doimiy ravishda boyitib borish, mustaqil va ijodiy ishlash hamda ilmiy izlanishlar olib borishga intilishni uyg'otish, adabiyotlardan foydalanish,





o'z fikr-mulohazalarini erkin bildira olish salohiyatini yuzaga chiqarish; o'zlashtirilgan mavzularni oldingi va keyingilari bilan bog'lab keta olishga qaratilgan.

Mazkur metodik qo'llanmada XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olishga bo'lgan ehtiyojni qondirish, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni yuksaltirish, mehnat faoliyati, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi ba'zi zamonaviy texnologiyalar va o'qitish metodlari keltirilgan.

O'quvchilar qalbida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, daxldorlik hissini yanada rivojlantirib, ularni ijtimoiy faol fuqaro qilib tarbiyalashda hayotiy ko'nikmalarni fanlararo integratsiya holida o'qitish maqsadga muvofiqdir. Bunda nafaqat ijtimoiy fanlar doirasida, balki boshqa fanlar bilan ham o'zaro aloqadorlikni ta'minlash zarur.

O'qituvchi dars mashg'ulotlarida barcha jihatlarni inobatga olgan holda, jumladan, maktab sharoiti va sinf xususiyatidan kelib chiqib, dars davomida mavzuga tegishli o'qitishning interfaol metodlaridan bittasi, bir nechasi yoki barchasidan foydalanishi tavsiya etiladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuv va ko'nikmalaridan kelib chiqib, boshqa zamonaviy texnologiyalar va o'qitishning interfaol metodlaridan ham foydalanishi mumkin. Yana bir muhim tavsiya: o'qituvchi keyingi darsda o'tiladigan yangi mavzuni o'quvchilarga uyga vazifa tarzida berib, ularni mustaqil tayyorlanishga undashi mumkin, shu tariqa bitta dars mashg'ulotida o'qituvchi kitobida berilgan interfaol metodlar orqali yangi mavzuning kengroq yoritilishiga va o'quvchilarning o'z ustida ishlashlari, izlanishlari hamda tarixiy tafakkurni shakllantirishlariga imkon beradi.

O'qituvchi kitobida keltirilgan chizmalar, jadvallar, ma'lumotlar, mashqlar, boshqotirmalar, mustaqil ishlar, qiziqarli o'yinlar va topshiriqlarni o'quvchi dars davomida va darsdan tashqari vaqtda ham bajarishi mumkin. Ular o'quvchilarga nafaqat tarixiy bilim asoslarini egallash, balki tasavvur va tarixiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatini ham beradi degan umiddamiz.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, so'nggi vaqtlarda "texnologiya" tushunchasini metodikadan ustun qo'yishga urinishlar kuzatilmoqda. Aslida "metodika" tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika bu – metatexnologiya. Agar mazkur tushunchani ta'limga tatbiq etadigan bo'lsak, o'quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o'quv mashg'ulotini amalga oshirish ma'lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishni talab etadi. O'qituvchi o'quv maqsadiga qarab mashg'ulotni o'tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga mos holda o'quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo'llanadigan metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining ayrim farqli jihatlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodika "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa "Qanday qilib samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayonini qanday tashkil etishni nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Pedagogik jarayonlarda atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida quyida ularning ayrimlariga ta'rif berib o'tamiz:

Texnologiya (yunoncha *techne* – "san'at", "mahorat", "qobiliyat" va *logos* – "so'z", "fikr", "ma'no", "tushuncha", "ta'limot") – kerakli natijaga erishishdagi usul va vositalar to'plami;





kieng ma'noda – amaliy muammolarni hal qilish uchun ilmiy bilimlarni qo'llash. Texnologiya ish usullarini, uning tartibini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya bu – muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llanadigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiyaga asoslangan, uning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

“Metod” so'zi yunoncha “tadqiqot”, “maqsadga erishish yo'li, usuli” deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. Metod – eng umumiy ma'noda maqsadga erishish yo'li, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

Ta'lim metodlari deyilganda o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir, o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Ta'lim usuli – o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Interfaol metod o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmuidir.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa, vosita vazifasini, o'quvchilarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatlsa, metod vazifasini bajaradi.

Metodika qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror-bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuidir. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qitishda qo'llanib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.





UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABINING 7-SINF O'QUVCHILARIGA JAHON TARIXI FANIDAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

1. Tarixiy ma'lumotlardan xabardorlik kompetensiyasi		
1	Dunyo xalqlarining madaniyati, ma'naviyati hamda dunyoviy va diniy qadriyatlarining mohiyatini tarixiy tasavvur qilgan holda tushunish, tahlil qilish va xulosa chiqarish	7.1.1.1. Ilk o'rta asrlarda Osiyo va Yevropa davlatlari madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi hamda xulosa chiqara oladi.
		7.1.1.2. Arab xalifaligi davrida madaniyatning rivojlanishi haqida ma'lumotlar bera oladi.
		7.1.1.3. Osiyo va Yevropa xalqlarining dunyoviy va diniy qadriyatlaridagi o'zgarishlar mohiyatini anglay oladi.
		7.1.1.4. O'rta asrlar va hozirgi davr madaniyatini o'zaro taqqoslay oladi, tahlil qila oladi va xulosa chiqara oladi.
2	Tarixiy davr va voqealarni o'zaro taqqoslash orqali ularning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tushuntira olish	7.1.2.1. O'rta asrlarda jahon va O'zbekiston tarixida ro'y bergan muhim voqealarni taqqoslash orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tushuntira oladi.
3	Tarixiy shaxslarning faoliyati va ularning tarixda tutgan o'rnini haqida ma'lumot bera olish	7.1.3.1. V–XIII asrlarda o'z yurtlari tinchligi uchun harakat qilgan tarixiy shaxslar faoliyati haqida bilib oladi.
		7.1.3.2. O'rta Osiyo Uyg'onish davri olimlari faoliyati hamda ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini anglagan holda ma'lumot bera oladi.
		7.1.3.3. Dunyo ilm-faniga hissa qo'shgan yevropalik olimlar faoliyati haqida ma'lumot bera oladi.
4	O'rganilayotgan davrning asosiy voqealari va shaxslarini xronologik ketma-ketlikda bayon qilish	7.1.4.1. Yevropa va Osiyo davlatlarining tashkil topishi va hukmdorlari xronologiyasini tuza oladi.
5	Tarixiy voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritib, ularning kelib chiqish omillari haqida bilish	7.1.5.1. Yevropa xalqlari hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqida mustaqil fikr bildirgan holda o'z qarashlarini bayon eta oladi.
6	O'tmish, bugun va kelajakni o'z ichiga olgan jarayonlar bilan bog'liq atamalarni to'g'ri qo'llay olish	7.1.6.1. O'rta asrlar Yevropa, Osiyo va Amerika davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid atamalarni o'z o'rnida qo'llay oladi.





2. Tarixiy jarayonlarni amaliy tushunish va ko'nikmalar hosil qilish kompetensiyasi

1	Voqea-hodisalarni (yozma va media manbalar asosida) tushuntirib berish va tahlil qilish	7.2.1.1. O'rta asrlar jahon tarixiga oid manbalar bilan ishlay oladi.
2	Tarixiy voqea-hodisalarni xarita orqali tushuntirib berish	7.2.2.1. O'rta asrlar davlatlari joylashgan hududlarni xaritadan ko'rsata oladi.
3	O'rganilayotgan mavzuni tarixiy obida, muzeylarga ekskursiya va sayohatlar uyushtirish natijasida olgan bilimlari orqali tushuntirish	7.2.3.1. O'rta asrlar tarixiga oid yodgorliklar haqida tarixiy obidalar va muzeylarga borgan yoki virtual sayohat qilgan holda ma'lumotlar to'plab, ularni o'rganib, tushuntirib bera oladi.
4	Tarixiy voqea-hodisalar haqida tasavvur hosil qiluvchi ko'rgazmali vositalar (rasm, sxema, jadval, maket, buklet) yordamida mavzuni tushuntira olish	7.2.4.1. O'rta asrlar davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi voqealarni mustaqil ko'rgazmali vosita (jadval, rasm, maket)lar yordamida tasvirlay oladi.
5	O'rganilayotgan voqea-hodisani sahna ko'rinishi, rol ijro etish hamda qiziqarli o'yinlar orqali yoritib berish	7.2.5.1. O'rta asrlar allomalari va jasorat ko'rsatgan qahramonlar haqidagi qiziqarli va ibratli voqealarni sahna asarlari orqali yoritib bera oladi.
6	O'rganilayotgan mavzu haqida tarixiy-badiiy asarlar asosida erkin, mustaqil va kreativ fikrlagan holda esse, referat, maqola, tezis tayyorlash	7.2.6.1. O'rta asrlar voqealari, allomalari va jasorat ko'rsatgan qahramonlari haqida bayon yoza oladi.

Izoh: malaka talablaridagi belgilangan raqamlar quyidagicha ifodalanadi, masalan, 7.1.1.1.: 1-raqam (7) 7-sinfni, 2-raqam (1) kompetensiya tartib raqamini, 3-raqam (1) kompetensiyalar turkumidagi talablarning tartib raqamini, 4-raqam (1) har bir kompetensiya talabiga oid mavzularda shakllantiriladigan talabning raqamini bildiradi.

Hayotiy ko'nikmalar

 Muloqot qilish	 O'ziga motivatsiya berish	 Yetakchi bo'lish	 Mas'uliyatli bo'lish	 Jamoa bilan ishlash
 Muammoni hal qilish	 Qat'iyatli bo'lish	 Vaqtни boshqarish	 Moslashuvchan bo'lish	 Muzokara va nizolarni hal qilish



7-SINF JAHON TARIXI FANI TAQVIM-MAVZU REJASI

T/r	Darslar	Mavzu	Ajratilgan soat	Darsni o'tish muddati
I yarim yillik				
1	1-dars	German qabilalari va Rim imperiyasi	1	
2	2-dars	Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari	1	
3	3-dars	Franklar davlati: qirollikdan imperiya sari	1	
4	4-dars	Britaniyadan Angliyaga	1	
5	5-dars	Muqaddas Rim imperiyasi	1	
6	6-dars	Vizantiya: G'arb va Sharq orasida	1	
7	7-dars	Slavyan davlatlarining tashkil topishi	1	
8	8-dars	Slavyan davlatlarining tashkil topishi	1	
9	9-dars	Takrorlash	1	
10	10-dars	Yangi din beshigi	1	
11	11-dars	Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi	1	
12	12-dars	Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi	1	
13	13-dars	Saljuqiylar davlati	1	
14	14-dars	Mo'g'ullar davlati	1	
15	15-dars	Mo'g'ullar davlati	1	
16	16-dars	Nazorat ishi	1	
II yarim yillik				
17	17-dars	Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati”	1	
18	18-dars	Xitoy – “Osmonosti imperiyasi”: yuksalish va tanazzullar	1	





19	19-dars	Koreya o'rta asrlarda	1	
20	20-dars	Kunchiqar mamlakat – Yaponiya o'rta asrlarda	1	
21	21-dars	Amerika o'rta asrlarda	1	
22	22-dars	Takrorlash	1	
23	23-dars	O'rta asrlarda xristian olamida sodir bo'lgan o'zgarishlar	1	
24	24-dars	Salib yurishlari	1	
25	25-dars	Salib yurishlari	1	
26	26-dars	Yevropada o'rta asr shaharlarining o'ziga xosligi	1	
27	27-dars	Yevropada o'rta asr shaharlarining o'ziga xosligi	1	
28	28-dars	Osiyoning o'rta asr shaharlari	1	
29	29-dars	Yevropaning o'rta asrlar madaniyati	1	
30	30-dars	Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati	1	
31	31-dars	Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati	1	
32	32-dars	Xitoy, Koreya, Yaponiya va Hindiston xalqlari madaniyati	1	
33	33-dars	Nazorat ishi	1	
34	34-dars	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1	

Mavzuviy rejalashtirish

T/r	Boblar nomi	Jami	Soatlar taqsimoti		
			Nazariy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	O'rta asrlarda Yevropa xalqlari (V–XIII asr)	11	9	1	1
2	V–XIII asrlarda Osiyo va Amerika	12	12		
3	O'rta asr xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar	11	9	1	1
	Jami	34	30	2	2





DARS ISHLANMALAR VA METODIK KO'RSATMALAR

Darsning texnologik xaritasi

Namuna

Darsning maqsadi	O'quvchilarning dunyo tarixi to'g'risida nimalarni bilishlari kerakligini belgilab beradigan tarixiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarga hozirgi zamon kishilari oldida turgan dolzarb muammolarni va masalalarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan imkoniyatni taqdim etadi.
Darsning vazifasi	O'quvchilarda erkin fikrlash, fanga qiziqish, mustaqil, ijodiy ishlashga intilishni uyg'otish, maqsadlarini anglab olishga yordam berish, mashg'ulotlarda faolligini ta'minlash, samarali munozaraga chorlash, o'z bilimlarini namoyon qilish, shaxsiy mutolaa motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, o'z xatti-harakatlariga nisbatan mas'uliyatini oshirish, vatan, oila, jamiyat oldidagi o'z burchlarini to'la anglab yetishlarini ta'minlashdan iborat.
Shakllantiruvchi ko'nikmalar	O'quvchilarda faktlarni baholash, tarixiy voqe'larga munosabat bildirish, qiyosiy va sababiy tahlillarni ishlab chiqish, tarixiy jarayonlarni talqin qilish va hozirgi zamondagi qarorlarni ishonchli tarixiy dalillar bilan asoslash, turli axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.
Kerakli vositalar	O'quv adabiyoti va qo'llanmalar Tarqatma materiallar Eslatmalar Nazorat materiallari Kompyuter Proyektor Doska Xarita Globus
Darsning borishi	
Tashkiliy qism	3 daqiqa
Uyga vazifani so'rash	12 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	17 daqiqa
Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
Baholash	3 daqiqa





DARSLIKKA KIRISH

Insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyiliga ko'ra, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahon tarixida o'rta asrlar davri boshlanadi. Bu davr V asr oxiridan XV asr oxiriga qadar davom etadi. Unda yer egaligi jamiyatining qanday vujudga kelgani, qay tariqa rivoj topgani, xalqlarning turmush tarzi, mehnat munosabatlari, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar bilan bir qatorda bosqinchilik va talonchilik yurishlari haqida ham hikoya qilinadi.

O'n asr davom etgan o'rta asrlar davrida Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida ko'plab muhim voqealar yuz berib, madaniyat taraqqiyotida ajoyib yutuqlar qo'lga kiritildi. Markazlashgan yirik davlatlarning vujudga kelishi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlari diplomatik, savdo va madaniy aloqalar tufayli ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat yutuqlaridan o'zaro bahramand bo'ldilar. Dunyoning turli hududlarida o'ziga xos o'rta asrlar sivilizatsiyalari vujudga keldi. Yevropada asosan xristianlik, Osiyoda esa islom va buddaviylik dinlari tarqalib, ular jamiyat, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asrlar davrida shakllangan yer egaligi munosabatlari insoniyat tarixida muhim o'rin tutib, u Yevropada *feodal*, Osiyoda esa *yer egaligi* jamiyati deb ataladi. Hukmdorlarning o'z yaqinlari, amaldorlar va ruhoniylarga yer-mulklar taqdim qilishi natijasida yer egaligi munosabatlari vujudga kelib, aholi feodallar (yirik yer egalari) va qaram dehqonlar toifalariga bo'linadi. In'om etilgan yerlarning merosiy mulkka aylanishi feodallar hokimiyatining kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, mamlakatlarda siyosiy tarqoqliklar hukm surishiga olib keladi.

O'rta asrlar mingyilligi uzoq davom etgan davr bo'lib, uning davomida insonlar tarixida, hayotida muhim o'zgarishlar ro'y bergan. Ularni yaxshi anglash uchun jahon tarixchilari o'rta asrlarni shartli ravishda uch bosqichga bo'ladi:

- ilk o'rta asrlar (V asr oxiri – XI asr o'rtalari);
- o'rta asrlarning rivojlangan davri (XI asr o'rtalaridan XIII asr oxirigacha);
- yangi davr ostonasidagi o'rta asrlarning so'nggi bosqichi (XIV–XV asrlar).

Ushbu bosqichlarning o'zaro xususiyatlaridan kelib chiqib hamda 7-sinf O'zbekiston tarixi fani (IV–XIII asrlar) o'quv dasturiga muvofiq tarzda 7-sinf jahon tarixida o'rganilyotgan voqealar davri ham V–XIII asrlar deb olindi. Siz o'rta asrlar tarixining keyingi davrlarida yuz bergan muhim voqealar haqida 8-sinf "Jahon tarixi" darsligida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

O'rta asrlar davri



V asr

XI asr

XIV asr

XV asr

Ilk o'rta asrlar

Rivojlangan o'rta asrlar

So'nggi o'rta asrlar





BOB. O'RTA ASRLARDA YEVROPA XALQLARI (V–XIII ASRLAR)

1-MAVZU. GERMAN QABILALARI VA RIM IMPERIYASI

1-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi har bir ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.

1	German qabilalari Yevropaning shimoli hamda Reyn daryosidan Elbaga qadar hududlarda yashagan.	7	Germanlarning mustahkam hamda bir-biriga yaqin qurilgan qishloqlari yo'q edi.
2	German qabilalarida har bir oila o'tloq va to'qaylar bilan o'ralgan alohida xo'jalikda yashab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.	8	German qabilalarida yerga avval oddiy yog'och so'qa bilan ishlov berishgan, yerni o'g'itlashmagan.
3	German qabilalarida yerni almashlab ekish hamda omochdan yog'och plugga o'tilishi mehnat unumdorligiga, hosilning kamayishiga sabab bo'lgan.	9	German qabilalari kundalik hayotda nondan ko'ra sut, pishloq va go'shtni ko'proq iste'mol qilganlar.
4	German qabilalari ipakchilikda asosan qurol-yarog', asbob-uskunalar, kiyim-kechak va idishlarni ishlab chiqarganlar.	10	German qabilalarida kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik, teri va yog'ochga ishlov berish sohalari deyarli bo'lmagan.
5	German qabilalari temir, oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin qazib olishni ham bilishgan.	11	German qabilalari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar.
6	Rimliklar german qabilalarini sopol, shisha, bronza idishlar, oltin va kumush taqinchoqlar, qurollar va qimmatbaho matolar bilan ta'minlagan.	12	German qabilalari rimliklarni sopol, shisha, bronza idishlar, oltin va kumush taqinchoqlar, qurollar va qimmatbaho matolar bilan ta'minlagan.

Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:


3. German qabilalarida yerni almashlab ekish hamda omochdan temir plugga o'tilishi mehnat unumdorligiga, hosilning oshishiga sabab bo'lgan.

4. German qabilalari hunarmandchilikda asosan qurol-yarog', asbob-uskunalar, kiyim-kechak va idishlar ishlab chiqarganlar.

10. German qabilalarida kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik, teri va yog'ochga ishlov berish sohalari rivojlangan.

12. German qabilalari rimliklarga qullar, chorva mollari, teri, kahrabo yetkazib berishgan.



**2-topshiriq. Yodda tuting!****Bilag'onlar uchun**

Milodiy IV–VI asrlarda Yevropani hun qabilalari boshlab bergan xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qamrab oladi. Ushbu jarayonning o'ziga xos bir qancha sabablari bo'lgan. Avvalo, german qabilalarida aholi sonining ko'payib borishi natijasida yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishi, mulkiy tabaqalanishning kuchayishi German qabilalarini yangi hududlarni egallashga undadi. Bundan tashqari, hunlarning IV asrdan Sharqdan ko'chishlari va hujumlari ko'plab varvar qabilalarini o'z yerlaridan siljishga majbur qilgan. Yevropada II asrdan iqlimning soviy boshlashi keyingi asrlarda ekinzorlarni qo'riqqa, suv havzalari va ularga yaqin yerlarni esa botqoqliklarga aylantirdi. Ushbu omillar xalqlarning yashash va xo'jalik yuritish uchun yangi qulay hududlarni izlashiga turtki bo'lgan. IV–VI asrlar Yevropa xalqlari tarixi uchun buyuk ko'chishlar davri hisoblanadi.

3-topshiriq. "Bingo" mashqini bajaring.

Ko'rsatma. Quyidagi jadvalda keltirilgan german qabilalari va ular borib joylashgan hududlar nomlarini bir-biriga moslashtirib chiqing.

1	Britaniya orollarida	A	Ostgotlar
2	Galliyada	B	Anglosakslar
3	Italiyada	C	Vandal va alan qabilalari
4	Shimoliy Afrikada	D	Franklar

Javoblar: 1) B; 2) D; 3) A; 4) C.





4-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

Shaxslar	Kim bo'lgan?
Yuliy Sezar	
Korneliy Tatsit	
Odoakr	
Romul Avgustul	
Teodorix	
Boetsiy	
Alarix	

5-topshiriq. "BBB" jadvali bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Ma'lumotlar	B	B	B	Izoh
1	395-yilda Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy, ya'ni ikki qismga bo'lingan.				
2	410-yilda vestgotlar sarkardalari Alarix boshchiligida "boqiy shahar" nomini olgan Rimni egallaydi.				
3	418-yilda vestgotlar janubi-g'arbiy Galliyada ilk varvar qirolligini (Vestgot qirolligi) tuzadi.				
4	476-yilda G'arbiy Rim imperiyasida harbiy sarkardalardan biri Odoakr o'z qo'shini bilan isyon ko'targan.				



6-topshiriq. Yodda tuting!





7-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishleng.

Tushunchalar	Mazmuni
Urug'chilik jamoasi	
Jamoa yer egaligi	
Konunglar	
Xalq majlisi	
Harbiy bo'linmalar (drujina)	
Yirik qabilalar ittifoqlari	
Kohinlar	
Hun qabilalari	
"Boqiy shahar"	

8-topshiriq. Blits-savollar orqali olgan bilimlaringizni mustahkamlang va mavzuni umumlashtiring.

1. Germanlarning mustahkam hamda bir-biriga yaqin qurilgan qishloqlari bo'lganmi? *Yo'q.*
2. Germanlar nima bilan shug'ullangan? *Dehqonchilik va chorvachilik bilan.*
3. Germanlar yerni nima bilan o'g'itlashgan? *O'g'itlashmagan.*
4. Germanlar qanday kiyingan? *Hayvonlar terisidan.*
5. Germanlar nimani yaxshi ko'rishgan? *Urush va ovni.*
6. Germanlar kundalik hayotida nimalarni ko'proq iste'mol qilgan? *Sut, pishloq va go'shtni.*
7. Germanlar temir, oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin qazib olishni bilishganmi? *Bilishgan.*
8. Qayer bilan savdo-sotiq german qabilalarining hayotida muhim rol o'ynagan? *Qadimgi Rim.*
9. Germanlarni sopol, shisha, bronza idishlar, oltin va kumush taqinchoqlar, qurollar va qimmatbaho matolar bilan kimlar ta'minlagan? *Rimliklar.*
10. Konunglar kim? *Zodagon shaxslar.*
11. Drujina nima? *Harbiy bo'linmalar.*
12. Vestgotlar kimlar? *G'arbiy gotlar.*
13. Ostgotlar kimlar? *Sharqiy gotlar.*
14. Xalqlarning buyuk ko'chishlarini kimlar tezlashtirgan? *Hun qabilalari.*
15. Vestgotlarning mashhur sarkardasi kim? *Alarix.*
16. "Boqiy shahar" nomini olgan shahar qaysi? *Rim.*
17. G'arbiy Rim imperiyasidagi mashhur sarkarda kim edi? *Odoakr.*
18. G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi imperatori kim? *Romul Avgustul.*
19. Qaysi qirol Rimni qayta tiklashni maqsad qilgan edi? *Teodorix.*
20. Rimlik zodagon, yetuk faylasuf kim? *Boetsiy.*



**9-topshiriq. "German qabilalari" mavzusida esse* yozing.**

Esse yozishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar: *yashagan hududlari, ajralib turgan xususiyatlari; dehqonchilik va chorvachilik; almashlab ekish; kiygan kiyimlari; iste'mol mollari; rivojlangan sohalari.*

**10-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishlang.**

German qabilalarining har birini yurgan yo'nalishi bo'yicha xaritada ko'rsating.

**Atamalar izohi**

Konung – qabila boshlig'i, zodagonlarning oliy vakili.

Monastir (yun. *monasterion* – "monaxlar maskani", "xilvat", "chekka", "odamlardan uzoqdagi joy") – cherkovning muayyan yo'l-yo'riqlari asosida birgalikda yashovchi monax (rohib)lar jamoasi; shuningdek, monaxlar jamoasiga qarashli ibodatxona, turarjoy va xo'jalik binolari majmui.

*Esse (frans. *essai* – "urinish", "sinash", "ocherk") – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi.



**2-3-MAVZU. FRANKLAR DAVLATI: QIROLLIKDAN IMPERIYA SARI****1-topshiriq. Jadval bilan ishleng.**

Berilgan nomlarni tegishli ustunlar bo'yicha belgilab chiqing. (✓)

Nomlar	Daryo	Davlat	Shahar	Ibodatxona	Qit'a	Tog'
Alp						
Elba						
Fransiya						
Farangiston						
Galliya						
Germaniya						
Italiya						
Luara						
Pireney						
Puatye						
Pyotr						
Quddus						
Reyn						
Rim						
Sena						
Suasson						
Vatikan						
Verden						
Yevropa						



**2-topshiriq. SWOT tahlili.**

Tahlil uchun mavzu: "Xlodvig yuritgan siyosatni qanday baholaysiz?"

S – kuchli tomoni	W – kuchsiz tomoni	O – imkoniyatlari	T – xavf-xatari

3-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.

1	German qabilalari barpo etgan davlatlar orasida mustahkam va uzoq yashagani Franklar qirolligi bo'ldi.	7	Xlodvigni xristianlik dini ta'limotini anglab qabul qilgan va namunali dindor bo'lgan deyish mumkin.
2	Frank qabilalari dastlab Reyn daryosining quyi qismida yashaganlar.	8	Xlodvigning mamlakat hududlarini o'g'illariga taqsimlab berishi keyinchalik davlatning bo'linib ketishiga sabab bo'ladi.
3	Franklar davlatining asoschisi Meroveylar urug'idan chiqqan Sali franklari yo'l boshchisi Buyuk Karl bo'lgan.	9	Hamisha urushga tayyor piyoda qo'shinni tuzish uchun Karl Martell o'ziga harbiy xizmat qilishi zarur bo'lgan kishilar sonini ko'paytiradi.
4	Meroveyning nabirasi Xlodvig franklarning ilk qirolligi – Merovinglar sulolasiga asos soldi.	10	Karl Martellning o'g'li Pipin Pakana otasi yuritgan cherkov yerlarini musodara qilish siyosatidan voz kechishga qaror qildi.
5	Xlodvigning buyrug'iga ko'ra, franklarning eski odat qonunlari to'planib, lotin tilidagi "Sali haqiqati" bitiladi.	11	Buyuk Karl Pipinning o'g'li bo'lib, franklar davlatini 64 yil boshqargan.
6	Franklarning majusiylik dinlari ularning Galliyada hukmronlik qilishiga deyarli yordam bermagan.	12	Rim papasi minnatdorchilik sifatida 800-yilning dekabrda Rimga kelgan Karlga avliyo Pyotr ibodatxonasida imperatorlik tojini kiygizadi.

Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:

3. Franklar davlatining asoschisi Meroveylar urug'idan chiqqan Sali franklari yo'l boshchisi Xlodvig bo'lgan.

7. Xlodvigni xristianlik dini ta'limotini anglab qabul qilgan va namunali dindor bo'lgan deyish mushkul.

9. Hamisha urushga tayyor otliq qo'shinni tuzish uchun Karl Martell o'ziga harbiy xizmat qilishi zarur bo'lgan kishilar sonini ko'paytiradi.

11. Buyuk Karl Pipinning o'g'li bo'lib, franklar davlatini 46 yil boshqargan.



**4-topshiriq. Sanalar bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Quyidagi jadvalning 1-ustunida keltirilgan ma'lumotlarning sanasini 2-ustunga va 5-ustunda keltirilgan ma'lumotlar sanasini 4-ustunga yozing, sanalar orasidagi yillar farqini 3-ustunga yozing.

1	2	3	4	5
Puatye jangida Karlning otliq qo'shini arablarning hujumini to'xtatdi.				Karolinglar sulolasi hukmronligi barham topgan.
Suasson shahridagi frank zodagonlarining yig'ilishida Pipin franklar qiroli deb e'lon qilindi.				Karolinglar sulolasi rasman hukmronlik qila boshlagan.
Italiyada papaning dunyoviy davlati (hozirgi Vatikan) vujudga kelgan.				Xlodvigning qo'shini Suasson shahri yaqinida Rim qo'shinini yengadi.
Buyuk Karl saks qabilalariga qarshi urush boshlagan.				Pipinning o'g'li Buyuk Karl hukmronligi boshlangan.
Rim papasi Karlga avliyo Pyotr ibodatxonasida imperatorlik tojini kiygizdi.				Rim mahalliy zodagonlari papa Lev III ga qarshi isyon ko'targan.
Buyuk Karlning saks qabilalariga qarshi olib borgan urushlari tugagan.				Pipinning o'g'li Buyuk Karl hukmronligi tugagan.
Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari tashkil topgan.				Xlodvig Rim cherkovi tartiblari bo'yicha xristian dinini qabul qilgan.

5-topshiriq. "Bingo" mashqini bajaring.

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni bir-biriga mos joylashtiring.

1	Xlodvig	A	800-yilning dekabrda Rimga kelgan Karlga avliyo Pyotr ibodatxonasida imperatorlik tojini kiygizgan Rim papasi.
2	Buyuk Karl	B	732-yilgi Puatye jangida uning otliq qo'shini arablarning hujumini to'xtatishga muvaffaq bo'lgan.
3	Pipin Pakana	C	Franklar davlatining asoschisi Meroveylar urug'idan chiqqan Sali franklari yo'lboshchisi.
4	Lev III	D	Karolinglar sulolasining asoschisi bo'lgan.

Javoblar: 1) C; 2) B; 3) D; 4) A.



**6-topshiriq. "Insert" usuli bilan ishlang.**

Ko'rsatma. Quyida keltirilgan ma'lumotlarni "Insert" usuli orqali "V" – men bilgan ma'lumot, "+" – men uchun yangi ma'lumot, "-" – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi, "?" – men uchun tushunarsiz, noaniq (aniqlashtirishni talab qiladigan) ma'lumot kabi toifalarga ajrating.

Ma'lumotlar	V	+	-	?
German qabilalari				
Meroveylar urug'i				
Sali franklari				
"Sali haqiqati"				
Rim cherkovi				
Il-de-Frans				
Farangiston				
Bolg'a (Martell)				
Benefitsiy				
Feod				
Feodal				
Karolinglar sulolasi				
Pakana				
Korol (qirol)				
"Buyuk" nomi				
Drujina				
Graf				
Rim papasi				

**Qo'shimcha ma'lumot**

Franklar gotlar va langobardlar kabi hayvon terisidan emas, matodan kiyim-bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. Franklarda faqat qirol oilasiga mansub kishilargina uzun soch bilan yurishlari mumkin bo'lgan.

Frank qirol Buyuk Karl taxtga o'tirishi bilan istilochilik urushlarini boshlagan. U 772–774-yillarda Italiyaga ikki marta yurish qilib, germanlarning **Langobardlar qirolligini** bo'ysundiradi. 773-yilda langobardlar qirol Dezideriy taxtdan ag'dariladi, uning sochi olinib, o'zi esa Korvey monastiriga jo'natiladi. Endi qirol Dezideriy taxtga da'vo qila olmas edi. Urushda g'olib bo'lgan Buyuk Karl Italiya yerlarini grafliklarga bo'lib, Frank qirolligiga qo'shib oladi.




**7-topshiriq. Boshqotirma. Mavzuga oid sanalarni toping.**

8	0	0	1	7	8	6
7	5	1	9	8	7	2
7	3	4	5	7	6	8
3	4	9	6	6	7	8
2	8	9	8	0	1	1
7	5	6	4	2	3	4
7	7	2	3	8	0	1

**8-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishlang.**

Mavzuga tegishli hudud nomlarini xaritada ko'rsating.

**Atamalar izohi**

Graf (nem. *graf*) – ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi grafliklar (viloyatlar)da qirol nomidan hokimiyatni boshqargan mansabdor shaxs.

Rim papasi – katolik cherkovining boshlig'i.





4-MAVZU. BRITANIYADAN ANGLIYAGA

1-topshiriq. Raqamlar bilan ishlang!

Quyidagi raqamlardan foydalanib mavzuga oid sanalarni tuzing va bo'lgan voqealarni yozing.

0, 0, 0, 0, 0, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 2, 2, ~~3~~, 3, 3, ~~4~~, 4, 4, 4, 4, 5, 6, 6, 7, 7, 7, 8, 8, 8, 8, 8, 8, 8, 9, 9, 9, 9

Masalan:

1. Milodiy 43-yildan boshlab Britaniya orollarining katta qismini rimliklar bosib olgan.

Davom ettiring.

2-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishlang.

Tushunchalar	Mazmuni
Brittlar	
400 yillik	
Skott, pikt	
Himoyachilardan istilochilarga	
Angllar tili	
"Donolar kengashi"	
Lord	
"Angliya"	
Davra stoli	
Normannlar	
Varyaglar	
"Daniyaliklar puli"	
"Anglosakson solnomasi"	
"Alfred haqiqati"	



**Bilag'onlar uchun**

Amvrosiy Avrelian xalq og'zaki ijodi qahramoni – Artorus yoki Arturga aylangan. Asrlar o'tib uning nomi atrofida VI asrga aloqasi bo'lmagan ko'plab tarixiy afsonalar jamlanadi. Oradan besh asr o'tgandan so'ng ham Yevropaning turli mamlakatlari yozuvchilari qirol Artur va uning ritsari Lanselot, qirolicha Ginevra, sehrGAR Merlinlar, ularning yurti Kamelot haqida asarlar yaratishda davom etadilar. Bu mashhur asarlar hozir butun dunyo kitobxonlariga yaxshi tanish.

**3-topshiriq. "Bingo" mashqini bajaring.**

Ko'rsatma. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni bir-biriga moslashtirib chiqing.

1	407-yilda	A	Buyuk Alfred hukmronligi boshlandi.
2	842-yilda	B	Buyuk Alfred hukmronligi nihoyasiga yetdi.
3	871-yilda	C	Rimning Britaniyadagi legioni Italiyaga qaytgan.
4	900-yilda	D	qirol Genrix II hukmronligi boshlandi.
5	1154-yilda	E	normannlar Londonni bosib oldi.

Javoblar: 1) C; 2) E; 3) A; 4) B; 5) D.

**Qo'shimcha ma'lumot**

Amvrosiy Avreliandan so'ng brittlarda munosib yo'lboshchi bo'lmaydi, bu esa anglosakslarga orolning katta qismini bosib olish imkonini beradi. Anglosaks qabilalari V–VI asrlarda mahalliy brittlarni bo'ysundirib, o'zlarining ilk feodal qirolliklarini tuzishadi. Sakslar Britaniyaning janubiga joylashadilar va u yerda uchta qirollik – Uesseks, Sasseks va Esseksga asos solganlar. Yutlar orolning janubi-sharqiga yo'l oladilar va u yerlarda Kent qirolligini tuzadilar. Angllar esa mamlakatning sharqida Sharqiy Angliya, Nortumbriya, Mersiya qirolliklariga asos solishadi.



**4-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishlang.**

Ko'rsatma. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.

1	Amvrosiy Avrelian VI asrning boshlarida brittlarni birlashtira olmagan uchun anglosakslarga qarshi kurashdi.	6	Vilgelm I ning vorislari qirol hokimiyatini mustahkamlashni davom ettirdilar.
2	Uesseks hukmdori Ekbert oroldagi barcha qirollik aholisini yagona davlatga birlashtirgan.	7	Daniya qirol Kanut 1013-yili ingliz sohiliga qo'shin tushirib, katta talafot ko'rdi va chekindi.
3	Qirol Alfred majlislarda ishtirokchilar eng yaxshi joy haqida bahslashmasliklari va o'zlarini teng his qilishlari uchun davra stolini kiritdi.	8	Qirol Alfred 879-yilda normannlarni o'z hukmronligi ostidagi ingliz yerlarining daxlsizligini tan olganliklari haqidagi shartnomani tuzishga majbur etadi.
4	Ekbert bosqinchilarning Angliyaga qilgan hujumlaridan birini qaytara olgan.	9	Genrix I davrida qirollik sudi kuchayadi, shuningdek, qirollik moliya boshqarmasi ham tashkil topadi.
5	Qirol Buyuk Alfred davrida normannlar hujumi qaytarildi.	10	Genrix II davrida moliyaviy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:

1. Amvrosiy Avrelian VI asrning boshlarida brittlarni birlashtirib, anglosakslarga qarshi kurashdi.

3. Qirol Artur majlislarda ishtirokchilar eng yaxshi joy haqida bahslashmasliklari va o'zlarini teng his qilishlari uchun davra stolini kiritdi.

7. Daniya qirol Kanut 1013-yili ingliz sohiliga qo'shin tushirib, uni katta qiyinchiliklarsiz zabt etadi.

5-topshiriq. "BBB" jadvali ustida ishlang.

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Amvrosiy Avrelian				
2	Artorius yoki Artur				
3	Ekbert				
4	Buyuk Alfred				
5	Kanut				
6	Vilgelm I				
7	Genrix I				
8	Genrix II				



**6-topshiriq. SWOT tahlili bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Mavzuga doir ma'lumotlarning S – kuchli, ahamiyatli tomoni; W – kuchsiz, ahamiyatsiz tomoni; O – imkoniyatlari; T – tahdid, xavf-xatari qay darajada ekanligini jadvalda aks ettiring (√) va o'z fikringizni asoslashga harakat qiling.

T/r	Ma'lumotlar	S	W	O	T
1	Zodagonlardan iborat "Donolar kengashi" mavjud edi.				
2	Qirol Artur majlislarda ishtirokchilar uchun "davra stoli"ni kiritgan.				
3	"Daniyaliklar puli" solig'i joriy etilgan.				
4	"Anglosakson solnomasi" tuzilgan.				
5	"Qalqon puli" solig'i to'lanishiga ruxsat berilgan.				

7-topshiriq. "FSMU" (fikir, sabab, misol, umumlashtirish) usuli bilan ishleng.

Mulohaza uchun savol: "Qirol Arturning muvaffaqiyatli tomoni nimada edi?"

F (fikringizni bayon eting)	S (sabab ko'rsating)	M (misol keltiring)	U (umumlashtiring)

**Tarixiy mushohada****"Shaxmat taxtasi palatasi" – ingliz xazinasini**

Qirollik moliya boshqarmasi o'rta asrlar Angliyasining eng yuqori moliyaviy organi bo'lib, "**Shaxmat taxtasi palatasi**" deb atalgan. U Yevropa tarixidagi birinchi ixtisoslashgan moliya organlaridan biri hisoblangan.

Bu nom mahalliy moliya amaldorlarining shaxmat taxtasini eslatuvchi movut matodan foydalangan holda naqd pul tushumlarini hisoblash va tekshirish usulidan kelib chiqqan. Undan foydalanib naqd pul tushumlarini hisoblash qulay bo'lgan: undagi kataklar yordamida xazinaga tushgan pullar hisob-kitob qilingan.



8-topshiriq. Jadval bilan ishleng.**Ko'rsatma.** Berilgan nomlarni tegishli ustunlar bo'yicha belgilab chiqing. (✓)

Nomlar	Daryo	Davlat	Shahar	Orol	Qit'a	Viloyat	Qal'a
Yevropa							
Britaniya							
Irlandiya							
Shotlandiya							
Temza							
Germaniya							
Armorika							
Mersiya							
Uesseks							
Kamelot							
Vinchester							
Denlo							
Daniya							
Norvegiya							
Shvetsiya							

**Bilag'onlar uchun**


Vilgelm 1066-yili Gastings yaqinidagi jangda Harold qo'shinini yengadi. Ingliz qirolini halok bo'ladi. Angliyaning yangi qirol bo'lgan normand gersogi "Istilochi" laqabini oladi. Unga Londondagi Vestminster abbatligi ibodatxonasida toj kiydiriladi.





5-MAVZU. MUQADDAS RIM IMPERIYASI

1-topshiriq. Mavzuga oid krossvordni to'ldiring.



1. Germaniyaga janubdan hujum qilib turgan qabila. **Vengerlar.**
2. Uzoqni ko'zlab, aql bilan ish boshlagan qirol. **Genrix.**
3. Germaniyaga shimoldan hujum qilib turgan qabila. **Normann.**
4. German imperatorlarining "dunyoga hukmron bo'lish" rejasida asosiy o'rin tutgan davlat. **Italiya.**
5. Toj, but shakli solingan oltin shar, saltanat hassasi hokimiyat uchun nima hisoblangan? **Timsol.**
6. Otton I davrida ochilgan ustaxonalar nomi. **Skriptoriya.**
7. U shaxs bo'lajak qirol – Otton III ga ustozlik qilgan. **Gerbert.**
8. Ispaniyadagi Kordova shahrining sharqdagi nomi. **Qurdoba.**
9. Otton I davrida o'rganilishi rivojlangan til nomi. **Lotin.**
10. Ispaniyadagi Sevilya shahrining sharqdagi nomi. **Ishbiliya.**
11. Imperatorning kimlar bilan bo'lgan kurashi imperiyani zaiflashtirdi? **Papalar.**
12. Fridrix I o'g'li Genrixni uylantirgan Sitsiliya malikasi. **Konstansiya.**
13. Fridrix I qo'zg'olonni bostirish davomida aholisini qatl ettirgan shahar. **Milan.**



Tarixiy mushohada

921-yil 7-noyabrda Fransiya qiroli Karl III va Germaniya qiroli Genrix I lar o'rtasida Reyn daryosi yaqinida "**Bonn do'stlik shartnomasi**" imzolanadi. Shartnomaga ikki qirollik o'rtasidagi chegara chizig'i bo'lgan daryodan neytral hudud sifatida foydalanish tartiblari kiritiladi. "Ikki tomonlama, o'zaro va teng huquqli" bo'lgan shartnoma ikki davlat chegarasi hamda qirollarining hokimiyatini tan oldi. U Genrix I ning nemis knyazlari tomonidan saylanishi va Karl III ning Lotaringiya ustidan hukmronligi hamda uning knyazlar tomonidan saylanishining qonuniyligini tasdiqladi. Shartnomada sobiq Franklar imperiyasining bo'linib ketganligini e'tirof etish uchun Sharqiy Frank qirolligi va G'arbiy Frank qirolligi deb nomlanishi yozilgan edi.



2-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.

1	911-yilda karolinglar sulolasining Sharqiy Frank qirolligidagi boshqaruvi yakun topadi.	8	919-yilda Saksoniya gersogi Buyuk Karl Sharqiy Frank davlati hukmdorligiga saylandi.
2	955-yilda Genrix I ning vorisi Otton I Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlardan mag'lub bo'ldi.	9	1052-yilda shtaufenlar sulolasi vakili Fridrix I Barbarossa hokimiyatga kelgan.
3	962-yilda Otton I qirollik unvoniga qoniqmay, o'z qo'shinlari bilan Italiyaga yurish qildi.	10	1137-yilda Germaniyada shtaufenlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan.
4	996-yilda imperator Otton III Parijga borib toj kiygan.	11	1158-yilda Fridrix I Italiyaning shimoliy shaharlarini bo'ysundiradi.
5	999-yilda Muqaddas Rim imperiyasi hukmronligi boshlangan.	12	1018-yilda Genrix II Rimda imperator sifatida toj kiydi.
6	1014-yilda Genrix II hukmronligi boshlangan.	13	1024-yilda Genrix II hukmronligi tugagan.
7	1806-yilda Muqaddas Rim imperiyasi hukmronligi barham topgan.	14	1290-yilda shtaufenlar sulolasi vakili Fridrix I Barbarossa hukmronligi tugagan.

Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:

2. 955-yilda Genrix I ning vorisi Otton I Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlar otliq lashkarini yengdi.
3. 962-yilda Muqaddas Rim imperiyasi hukmronligi boshlangan.
4. 996-yilda imperator Otton III Rimga borib toj kiygan.
8. 919-yilda Saksoniya gersogi Genrix Sharqiy Frank davlati hukmdorligiga saylandi.
9. 1152-yilda Shtaufenlar sulolasi vakili Fridrix I Barbarossa hokimiyatga kelgan.
14. 1190-yilda Shtaufenlar sulolasi vakili Fridrix I Barbarossa hukmronligi tugagan.



**3-topshiriq. "BBB" jadvali bilan ishlang.**

Ko'rsatma. Quyidagi tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" ustunlarini mavzu bo'yicha (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Fridrix I Barbarossa				
2	Genrix I				
3	Gerbert				
4	Ioann XII				
5	Konstansiya				
6	Otton I				
7	Otton II				
8	Otton III				
9	Silvester II				

4-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi so'z birikmalarining mazmunini izohlang.

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	9 yilga tinchlik sulhi	
2	9 xo'jalikdan bittadan kishi	
3	"Dunyoga hukmron bo'lish"	
4	"Muqaddas" nomi	
5	"Dunyo mo'jizasi"	
6	"Otton Uyg'onish davri"	



**5-topshiriq. Jadval bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Berilgan ma'lumotlarni tegishli ustunlar bo'yicha belgilang (√) va umumlashtiring.

MA'LUMOTLAR	Fridrix I Barbarossa	Genrix I	Gerbert	Konstansiya	Otton I	Otton II	Otton III	Silvester II
Vizantiya malikasiga uylanib, Vizantiya bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shdi.								
Sharqiy Frank davlati hukmdorligiga saylangan Saksoniya gersogi.								
U mamlakatni kuchaytirish yo'lini tutgan.								
955-yili Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlarning otliq lashkarini yengdi.								
Rim papasi Ioann XII tomonidan imperator deb e'lon qilinadi.								
Butun xristian dunyosini o'z hokimiyati ostida birlashtirish orzusida bo'lgan.								
U Rimni Muqaddas imperiyaning doimiy poytaxtiga aylantirishga harakat qildi.								
Otton III ning ustoz bo'lgan rohib.								
Otton III o'z ustoz – rohibning shu nom bilan papalikka saylanishiga erishgan.								
1137-yilda Germaniyada hokimiyatga kelgan Shtaufenlar sulolasining eng taniqli vakili.								
U Vengriya, Chexiya, Polsha va Daniya qirollariga o'z hokimiyatining ustunligini tan oldirishga intildi.								
Fridrix I o'g'lini uylantirgan Sitsiliya malikasi.								




**6-topshiriq. O'quvchilar bilan blits-so'rov o'tkazish uchun savol-javoblar.**

1. Karolinglar sulolasining Sharqiy Frank qirolligidagi boshqaruvi qachon yakun topgan? *911-yilda.*
2. Sharqiy Frank davlati hukmdori etib saylangan Saksoniya gersogi kim? *Genrix.*
3. Germaniya qirolligi qachon paydo bo'lgan? *919-yilda.*
4. Germaniyaga shimoldan kimlar hujum qilib turgan? *Normannlar.*
5. Germaniyaga janubdan kimlar hujum qilib turgan? *Ko'chmanchi vengerlar.*
6. Uzoqni ko'zlab, aql bilan ish boshlagan hukmdor kim edi? *Genrix I.*
7. Kimlar bilan 9 yilga tinchlik sulhi imzolangan edi? *Vengerlar bilan.*
8. Genrix I ning vorisi kim edi? *Otton I.*
9. 955-yili Lex daryosi sohilidagi jangda vengerlarning otliq qo'shinini kim yenggan edi? *Otton I.*
10. Otton I qachon Italiyaga yurish qilgan? *962-yili.*
11. O'z hokimiyati ostida butun xristian dunyosini birlashtirish orzusida bo'lgan hukmdor kim? *Otton III.*
12. Saksoniyaliklar sulolasiga mansub bo'lgan oxirgi imperator kim edi? *Genrix II.*
13. Vizantiya malikasiga qaysi hukmdor uylangan? *Otton II.*
14. Germaniyada qachon Shtaufenlar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi? *1137-yil.*
15. Fridrix I 1155-yilda qayerga borib toj kiydi va imperator deb e'lon qilindi? *Rim.*

7-topshiriq. Venn diagrammasi bilan ishleng.

Ko'rsatma. Birinchi doiraga (1) Genrix I ning, ikkinchi doiraga (3) Fridrix I Barbarossaning islohotlarini hamda doiralar o'zaro kesishgan o'rta qismga (2) ularning o'xshash tomonlarini yozib chiqing.

1. Genrix I**2. O'xshash jihatleri****3. Fridrix I Barbarossa**



Tarixiy mushohada

“Barbarossa” rejasining tarixi


Bu – Ikkinchi jahon urushi paytida Germaniyaning Sovet Ittifoqiga qarshi qaratilgan urush rejasining nomi. U nemis xalqining mashhur hukmdori, Muqaddas Rim imperiyasining imperatori – Fridrix I Barbarossa sharafiga shunday nomlangan. Fridrix I Italiyada qizg'ish soqoli (italyancha *barba* – “soqol” va *rossa* – “qizil”) tufayli “Barbarossa” laqabini olgan.


Fridrix I Barbarossa asosiy e'tiborini german imperatori boshchiligidagi jahon imperiyasini tuzishga qaratdi. Shuningdek, u davlat yerlarini Sharq mamlakatlari hisobiga kengaytirish tashkilotchilaridan biri edi. Fridrix I ning uchinchi salib yurishi paytida og'ir qurol-aslahalar kiygan holda Selif daryosidan o'tayotganda yiqilib vafot etgani ramziy ma'no ega. Chunki Vermaxtning (1935–1945-yillarda natsistlar Germaniyasining qurolli kuchlari) barcha texnik kuchlarini qamrab olgan “Barbarossa” rejasini ham barbod bo'ladi.



8-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng.

Ko'rsatma. Mavzuga tegishli hudud nomlarini xaritada ko'rsating.



**6-MAVZU. VIZANTIYA: G'ARB VA SHARQ ORASIDA****1-topshiriq. Yodda tuting!****2-topshiriq. "BBB" jadvali bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Feodosiy				
2	Arkadiy				
3	Yustinian I				
4	Yustin				
5	Irakliy I				
6	Xusrav II				

3-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishleng.

Ko'rsatma. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining mazmunini izohlang.

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	Ikki mustaqil davlat	
2	Poytaxti Rim	
3	Poytaxti Konstantinopol	
4	Lotin tili o'rniga yunon tili	
5	Soliq to'laydigan erkin dehqonlar	
6	Xalqlarning buyuk ko'chishlari davri	
7	"Oltin ko'priq"	
8	Numisma	
9	Vasilevs	
10	Kambag'al dehqon	
11	Diplomatiya san'ati	





4-topshiriq. Matnni to'ldiring.

Ko'rsatma. Darslikda berilgan "Vizantiyaning paydo bo'lishi" matni bilan tanishing, so'ng xotiraga tayangan holda quyidagi matnni to'ldiring.

Imperator Feodosiyning o'g'illari ___-yili Rim imperiyasini ikki mustaqil davlatga bo'lib olishadi: biri – poytaxti Rim shahri bo'lgan _____, ikkinchisi – poytaxti Konstantinopol shahri bo'lgan Sharqiy Rim imperiyasi (uni yunonlar koloniyasi nomi bilan Vizantiya deb ham atashadi). Katta o'g'il _____ga imperiyaning nisbatan boy hududlari tegadi, unga Bolqon va Kichik Osiyo yarimorollari, Suriya, Falastin, Misr kirgan. Aholisi asosan yunonlar, suriyaliklar, armanlar, yahudiylar, misrliklardan iborat bo'lgan. Yunonlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etgani uchun yillar o'tib imperiyada _____ tili o'rnini _____ tili egallaydi. Yevropada Vizantiya aholisini _____ deb atashgan, lekin ular o'zlarini romeylar – rimliklar deb nomlar edi. Vizantiyada _____ saqlanib qolgan bo'lsa-da, aholisining katta qismini _____ to'laydigan erkin dehqonlar tashkil etishi, sun'iy sug'oriladigan maydonlardan mo'l hosil olinishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlagan. Imperiyada ___ asrda ham Konstantinopol, Aleksandriya (Iskandariya), Antioxiya, Edessa singari yirik savdo va hunarmandchilik markazlari gullab-yashnagan. Bu omillar xalqlarning buyuk ko'chishlari davrida ham iqtisodni, kuchli qo'shinni, _____ an'analari tayangan davlatchilik va antik madaniyatni saqlab qolish imkoniyatini beradi. Konstantinopol va Aleksandriyani muhtasham binolar, ko'p qavatli uylar, haykallar va favvoralar o'rnatilgan maydonlar bezab turgan. Shaharlarda hunarmandchilikning shishasozlik, movut, ipak gazlamalar to'qish, zargarlik, me'morchilik sohalari yuksalgan. Ispaniyadan _____ga qadar bo'lgan hududlardagi mamlakatlar savdogarlari romeylar bozorlariga shoshilganlar. Konstantinopolni ramziy ma'noda Osiyo va Yevropani bog'laydigan "_____” deb ataganlar. Vizantiyalik savdogarlar G'arbning bozorlarida hashamli kiyimlar-u zeb-ziynatlar, qurol-yarog'lar-u kamyob idishlar va cherkov jihozlarini xarid qilishgan. Konstantinopol Yevropaning eng yirik shahriga aylangan, Vizantiya _____ tangasi (numisma) asrlar davomida ishonchli xalqaro pul hisoblangan.



5-topshiriq. Yodda tuting!

Imperator Feodosiyning katta o'g'li Arkadiyga teggan imperiyaning nisbatan boy hududlari

1 Bolqon yarimoroli

2 Kichik Osiyo yarimoroli

3 Suriya

4 Falastin

5 Misr





6-topshiriq. Yodda tuting!


Imperator Feodosiyning katta o'g'li Arkadiyga teggan imperiya hududlarining aholisi




7-topshiriq. Yodda tuting!




8-topshiriq. Yodda tuting!




9-topshiriq. Yodda tuting!



**10-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng.****Ko'rsatma.** Mavzuga tegishli hudud nomlarini xaritada ko'rsating.

11-topshiriq. "Qiziqarli quti" metodi orqali o'quvchilar mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Mavzuga doir tushunchalarni turkumlagan holda tegishli qutilarga joylashtiradilar.



**7-MAVZU. SLAVYAN DAVLATLARINING TASHKIL TOPISHI****1-topshiriq. Jadval bilan ishlang.****Ko'rsatma.** VI–VII asrlarda slavyanlar yashagan hududlarni aniqlang.**2-topshiriq. Jadval bilan ishlang.****Ko'rsatma.** Slavyan qabilalarini guruhlarga ajrating. (√)

Slavyan xalqlari	G'arbiy slavyanlar	Janubiy slavyanlar	Sharqiy slavyanlar
Beloruslar			
Bolgarlar (bulg'orlar)			
Bosniyaliklar			
Chernogorlar			√
Chexlar			
Makedonlar			
Polyaklar			
Ruslar			
Serblar			
Slovaklar			
Slovenlar			
Ukrainlar			
Xorvatlar			





3-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi so'z birikmalarining mazmunini izohlang.

T/r	Tushunchalar	Mazmuni
1	G'arbiy slavyanlar	
2	Sharqiy slavyanlar	
3	Janubiy slavyanlar	
4	Yovvoyi asal yig'ish	
5	Jamiyatning urug'-qabilachilik tuzumi	
6	Nemis ruhoniylari	
7	Injilni slavyan tiliga tarjima qilish	
8	Turkiy bulg'or qabilalari	
9	Nemis yepiskoplari	
10	Qirollik toji	
11	Arxiyepiskoplik rutbasi	
12	Lotin yozuvi ustunligi	
13	Kirill alifbosi yetakchilik qilgan	
14	Vorislar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash	
15	Me'morchilik inshootlari	
16	"Rus haqiqati" nomli qonunlar	

4-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.

1	Slavyanlarning asosiy mashg'uloti ovchilik edi.	7	Mo'yna, asal va asalari mumini qo'shni qabilalarga sotganlar.
2	Slavyanlarning ijtimoiy hayoti qadimgi germanlarniki bilan ko'plab o'xshash jihatlariga ega bo'lgan.	8	Tarixiy taraqqiyot davrida dastlab urug', keyinchalik ilk davlatlar vujudga keladi.
3	Slavyan yozuvi, Injilning tarjima qilinishi slavyanlar madaniyatining yuksalishiga ulkan hissa qo'shadi.	9	Polsha cherkovi 1000-yili arxiyepiskoplik rutbasini olib, nemis cherkovidan mustaqillikka erishadi.
4	Hozirgi Chexiya o'rnida VIII asr boshlarida Buyuk Moraviya davlati paydo bo'ladi.	10	Meshko I ning vorisi Boleslav I Jasur hukmronligi paytida qirollik tojiga erishildi.
5	Ilk Bulg'or podsholigiga 681-yili podsho Asparux asos solgan.	11	Bolgarlar IX asrning ikkinchi yarmida xristianlikni Rim ta'siri ostida qabul qilganlar.
6	Janubiy slavyan qabilalari yerlarida tashkil topgan davlat Rus deb nomlangan.	12	Ryurikning davomchisi Oleg 882-yili Kiyevni egalladi.



**Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:**

1. Slavyanlarning asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi.
4. Hozirgi Chexiya o'rnida IX asr boshlarida Buyuk Moraviya davlati paydo bo'ladi.
6. Sharqiy slavyan qabilalari yerlarida tashkil topgan davlat Rus deb nomlangan.
8. Tarixiy taraqqiyot davrida dastlab qabila ittifoqlari, keyinchalik ilk davlatlar vujudga keladi.
11. Bolgarlar IX asrning ikkinchi yarmida xristianlikni Vizantiya ta'siri ostida qabul qilganlar.

5-topshiriq. Jadval bilan ishleng.

Ko'rsatma. Slavyan xalqlari davlatchiligiga oid ma'lumotlar qaysi davlatga tegishli ekanligini topib, belgi (✓) qo'ying.

Ma'lumotlar	Bolgariya davlati	Chexiya davlati	Polsha davlati
Bu davlatga 681-yili podsho Asparux asos solgan.	✓		
Uning ilk knyazi IX asrda nemis yepiskopidan xristian dinini qabul qiladi.			
Dunay daryosining janub tomonidagi Vizantiya hududlarida yashagan slavyanlarni o'zlariga bo'ysundiradi.			
IX asrning ikkinchi yarmida xristianlikni Vizantiyadan qabul qiladi.			
German imperatori Genrix IV (1085) Rim papasi tazyiqiga qarshi kurashdagi yordami uchun bu davlat knyaziga qirollik tojini in'om etgan.			
Bu davlat knyazi Meshko I 966-yili xristianlikni nemis yepiskoplaridan qabul qiladi.			
Bu mamlakat faqat XII asr so'ngidagina Vizantiyadan mustaqillikka erishadi.			
Bu davlat XI asrdan Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lsa-da, o'z mustaqilligini sezilarli darajada saqlab qolgan.			
Meshko I ning vorisi Boleslav I Jasur hukmronligi paytida qirollik tojiga erishildi.			
IX–X asrlarda vujudga kelgan.			
Bu davlat cherkovi 1000-yili arxiyepiskoplik rutbasini olib, nemis cherkovidan mustaqillikka erishadi.			
XI asr boshlarida zaiflasha boshlagan bu davlatni Vizantiya istilo qiladi.			
Bu davlatning eng kuchaygan davrida podsho Simeon (893–927) qo'shni Vizantiya bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borgan.			
Xristianlik Rim yoki Konstantinopoldan qabul qilingan.			





6-topshiriq. Yodda tuting!

**Xristian dinining
qabul qilinishi**

Bolgarlar IX asrning ikkinchi yarmida Vizantiya ta'siri ostida xristianlikni qabul qilganlar.

Chexiyaning ilk knyazi IX asrda nemis yepiskopidan xristian dinini qabul qiladi.

Polsha knyazi Meshko I xristianlikni nemis yepiskoplaridan qabul qilgan.

7-topshiriq. "BBB" jadvali bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" kabi ustunlarni mavzu bo'yicha (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Kirill				
2	Mefodiy				
3	Asparux				
4	Simeon				
5	Genrix IV				
6	Meshko I				
7	Boleslav I Jasur				
8	Ryurik				
9	Igor				
10	Svyatoslav				
11	Vladimir Monomax				

Bilaman: _____

Bilishni xohlayman: _____

Bilib oldim: _____






8-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng.

Ko'rsatma. Quyida keltirilgan qabilalar yashagan hududlarni xaritadan ko'rsating.

1. Chexlar.
2. Pomorlar.
3. Slovaklar.
4. Slovenlar.
5. Xorvatlar.
6. Bosniyaliklar.
7. Ulichlar.
8. Makedonlar.
9. Krivichlar.
10. Dregovichlar.
11. Rodmichlar.
12. Vyaticlar.
13. Drevlyanlar.
14. Polyanlar.
15. Bolgarlar.
16. Serblar.



I BOB BO'YICHA TAKRORLASH

“Estafetali bellashuv” o'yini. Mazkur o'yin texnologiyasi o'quv mashg'ulotlarining barcha modullarida, fanning biron-bir bobi tugallanganda o'tilgan mavzu va mavzularga doir rejalarni baholash, takrorlash, mustahkamlashga mo'ljallangan.

O'yin maqsadi dars jarayonida o'quvchilarni aniq, tezlik bilan xatosiz javob berishga va albatta, o'z javoblari bo'yicha aniq va to'g'ri qarorga kela olishlariga undashdan iborat.

O'yin uchun kerak bo'ladigan jihozlar: savollar blankasi, estafeta tayoqchasi (bayroqchadan foydalanish ham mumkin), o'quvchilarni guruhlarga ajratuvchi raqamli qog'oz, qaysi guruh o'yinni boshlashini aniqlovchi biron-bir predmet.

O'yin qoidasi: dastlab guruh o'quvchilari 2 jamoaga bo'linadi, ularning joylashuvi va harakatlanishi quyidagidek amalga oshiriladi:

Jamoa a'zolarining partalarda joylashishi va harakatlanish sxemasi.

1	↑	2	←
3	→	4	↑
5	↑	6	←
7	→	8	↑
9	↑	10	←

2	→	1	↑
4	↑	3	←
6	→	5	↑
8	↑	7	←
10	→	9	↑

Demak, jamoa a'zolari yuqoridagi sxemada ko'rsatilganidek partalarga joylashadi.

O'yin parta oxiridan boshlanadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib boshlashi qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

O'qituvchi o'yinni birinchi bo'lib boshlaydigan jamoa ishtirokchisiga dastlabki savolni beradi. Ishtirokchi berilgan savolga javob bera olsa, qo'lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)-sini sherigiga yuqorida ko'rsatilgan sxema bo'yicha uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa, tayoqcha o'zida qoladi.

O'qituvchi keyin raqib jamoaning birinchi ishtirokchisiga savol beradi. Bu ishtirokchi ham javob bersa, qo'lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)sini sherigiga ko'rsatilgan sxema bo'yicha uzatadi; javob bera olmasa, tayoqcha o'zida qoladi. Estafeta tayoqchasini qatnashchilar shu tarzda bir-birlariga navbat bilan uzatib borishadi. Estafeta tayoqchasini faqat savolga to'g'ri javob qaytarilgandagina uzatishga ruxsat beriladi.

Savol-javob qaysidir guruh o'z estafeta tayoqchasini o'qituvchiga birinchi bo'lib yetkazib bergunicha davom etadi.

Estafeta tayoqchasini qaysi jamoa a'zolari qoidani buzmasdan, tez o'qituvchiga yetkazib borsa, o'sha jamoa g'olib hisoblanadi. Har bir jamoa a'zolarining o'yindagi ishtirokini o'qituvchi kuzatib boradi va dars so'ngida ularni baholaydi. Bunda asosan ishtirokchining o'ziga berilgan savolga birinchi imkoniyatda javob qaytarib, estafeta tayoqchasini sherigiga o'z vaqtida uzatishi hisobga olinadi.

**1-mavzu yuzasidan tuzilgan savollar namunasi****1-guruh uchun savollar**

1. Germanlar jamoasi davlat vujudga kelguniga qadar qanday bosqichni boshdan kechirgan? *Urug'chilik.*
2. German qabilalarini xalq yig'inida saylab qo'yilgan zodagon shaxslar boshqargan. Ular nima deb atalgan? *Konunglar.*
3. Alemann, got, franklarning yirik qabila ittifoqlari qachon shakllangan? *IV–V asrlarda.*
4. Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga qachon bo'lingan? *395-yili.*
5. Vestgotlar sarkardalari Alarix boshchiligida "boqiy shahar" nomini olgan Rimni qachon egalladi? *410-yili.*
6. 418-yili janubi-g'arbiy Galliyada tuzilgan ilk varvar qirolligi qanday atalgan? *Vestgot qirolligi.*
7. Italiyada poytaxti Ravenna bo'lgan kuchli qirollikni kimlar tuzgan? *Ostgotlar.*
8. German qabilalari barpo etgan davlatlar orasida mustahkam va uzoq yashagani qaysi edi? *Franklar qirolligi.*
9. Xlodvigning qo'shini qachon Suasson shahri yaqinida Rim qo'shinini yenggan? *486-yili.*
10. Xlodvig qachon Rim cherkovi tartiblari bo'yicha xristian dinini qabul qilgan? *496-yili.*

2-guruh uchun savollar

1. Harbiy xizmat uchun taqdim etilgan yerlar nima deyilgan? *Benefitsiy.*
2. 751-yili Suasson shahridagi frank zodagonlarining yig'ilishida kim franklar qirolli deb e'lon qilingan? *Pipin.*
3. Buyuk Karl franklar davlatini qancha boshqargan? *46 yil.*
4. Karolinglarning so'nggi vakili kim? *Lyudovik V.*
5. Uesseks hukmdori Ekbert qachon o'zini qirol deb e'lon qilgan? *829-yilda.*
6. Germaniya qirolligi qachon paydo bo'lgan? *919-yilda.*
7. Germaniyaga janubdan kimlar hujum qilib turgan? *Ko'chmanchi vengerlar.*
8. Genrix I ning vorisi kim edi? *Otton I.*
9. Otton I qachon Italiyaga yurish qilgan? *962-yili.*
10. Qaysi qirol aslida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan? *Yustinian I.*





II BOB. V–XIII ASRLARDA OSIYO VA AMERIKA

8-MAVZU. YANGI DIN BESHIGI

1-topshiriq. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularga mavzu bo'yicha quyidagicha tezkor savollar bering. Eng ko'p javob bergan guruh va faol o'quvchilarni baholar bilan taqdirlang.

1. Qachonga kelib nima sababdan arab qabilalari o'rtasida kurash kuchayadi?
2. Arablar bilan bir til oilasida so'zlashgan xalqlar uzoq o'tmishda qanday podsholiklar tuzgan?
3. Muhammad (s.a.v.) qachon va qayerda vafot etadilar hamda qayerga dafn etiladilar?
4. Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari qachon Yasribga hijrat (ko'chish) qiladilar?
5. Muhammad (s.a.v.) 630-yili qayerni jangsiz egallaganlar?
6. Arablar somiy (semit) tilli xalqlardan bo'lib, bu til oilasida arablardan tashqari yana qaysi xalqlar so'zlashgan?
7. Qaysi shahar ko'chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo'lgan?
8. Arablarning ko'pchiligi nimalarga e'tiqod qilgan?
9. Islom dini beshta asos yoki ustunga ega. Ular qaysilar?
10. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, teridan tayyorlanadigan, suv solinadigan mesh (sanoch)ni kimlar ixtiro qilgan?
11. Musulmonlar haftaning juma kunini qanday kun deb hisoblaydi?
12. Arabiston shaharlari va ko'chmanchi qabilalar keyingi yillarda islomni qabul qilib, qaysi asrda yagona davlatga birlashadi?
13. Sunniylikda nechta mazhab bor va ular qaysilar?
14. Islomdagi qaysi yo'nalishda diniy qonun-qoida va tartibotlarga rioya qilishda Qur'oni karim va payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislari – "Sunna"ga birdek amal qilinadi?
15. Islomdagi qaysi yo'nalish VII asrning ikkinchi yarmida parchalanib, keyinchalik yo'qolib ketgan?

2-topshiriq. "Tushunchalar tahlili" jadvali bilan ishleng.

Tushunchalar	Mazmuni
Badaviylar (sahroyilar)	
Ka'ba	
Somiy (semit)	
Qur'on	
Yaman va Hijoz	
Mazhab	

3-topshiriq. "Xato" texnologiyasi bilan ishleng.

Ko'rsatma. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqing va ularning to'g'ri yoki xatoligiga e'tibor bering. Siz xato deb topgan ma'lumotni to'g'ri javob bilan isbotlang.





1	Arablarda Yasrib “haq”, “baxtli” ma'nolarini bildirgan.	7	Islom dini manbalarida qayd etilishicha, Muhammad (s.a.v.)ga 610-yildan boshlab Alloh taolodan ilohiy oyatlar nozil bo'la boshlaydi.
2	Somiy (semit) tillar oilasida arablardan tashqari yahudiylar, ossuriylar, finikiyaliklar va oromiylar ham so'zlashgan.	8	Madina shahri ko'chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo'lgan.
3	Islomda asosan to'rtta – hanafiy, shofi'iy, molikiy, hanbaliy yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning har birida turli masalalar bo'yicha bir qancha mazhablar bor.	9	Madinada islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldi.
4	Shialik deb diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur'oni karim va payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislarini – “Sunna”ga birdek amal qilishga aytiladi.	10	O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan.
5	Muhammad (s.a.v.)ning buyrug'i bilan sahobalar Makka aholisiga omonlik berib, Ka'badan barcha but va sanamlarni chiqarib tashlashadi.	11	Arabiston shaharlari va ko'chmanchi qabilalar keyingi yillarda islomni qabul qilib, VII asrda yagona davlatga birlashadi.
6	Muhammad (s.a.v.) savdo ishlari bilan Suriyaga safar qiladi, xususan, Halab va Damashq shaharlariga boradi.	12	Olti yoshlarida onalari Omina ham vafot etib, uni amakisi Abu Tolib o'z qaramog'iga oladi.

Xato berilgan ma'lumotlarning to'g'ri javoblari:

- Arablarda Yaman “haq”, “baxtli” ma'nolarini bildirgan.
- Islomda asosan ikki yo'nalish: sunniylik (ahli sunna val jamoa – sunnat va jamoat ahli) va shialik (Ali tarafdorlari) mavjud bo'lib, ularning har birida turli masalalar bo'yicha bir qancha mazhablar bor.
- Sunniylik deb diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur'oni karim va payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislarini – “Sunna”ga birdek amal qilishga aytiladi.
- Makka shahri ko'chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo'lgan.
- Olti yoshlarida onalari Omina ham vafot etib, uni bobosi Abdulmuttalib o'z qaramog'iga oladi.

**Qo'shimcha ma'lumot****Hijriy yil hisobining vujudga kelishi**

Hijriy yil hisobi – musulmonlar yil hisobi, islomiy taqvim. Uning paydo bo'lishi Muhammad (s.a.v.) va safdoshlarining Makkadan Madinaga hijrat qilishlari (ko'chishlari) bilan bog'liq. O'z diniy targ'ibotlarini Makkada boshlagan Muhammad (s.a.v.) quraysh mushriklarining musulmonlarga dushmanligining kuchayishi, vaziyatning og'irlashishi natijasida safdoshlari bilan rabiulavval oyidan 11 kecha o'tganda, dushanba kuni Makkadan Madinaga hijrat qiladilar. Bu milodiy yil hisobi bo'yicha 622-yilning 23-sentyabr sanasiga to'g'ri keladi.





Keyinchalik esa bu voqea musulmonlar yil hisobining boshlanishiga asos qilib olinadi. Arabiston yarimorolida yashagan qadimgi xalqlar azaldan oy (qamariy) taqvimidan foydalangan. Arablar islomdan ikki yuz yilcha oldin (milodiy V asr boshlarida) oy-quyosh taqvimidan foydalanishga o'tgan edi. Islom dini vujudga kelgach, musulmonlar diniy va dunyoviy ishlarini yuritishlari uchun o'ziga xos taqvimga zarurat tug'ildi. Bu muhim masala ikkinchi xalifa – Umar (r.a.) davrida hal etiladi. Xalifa Umar (r.a.) o'z atrofiga sahobalarni to'plab mashvarat (yig'ilish) o'tkazadilar. Sahobalarning barchasi bir ovozdan oy hisobi bilan ish yuritishni ma'qul deb topadi. Chunki diniy ahkomlarni (diniy-huquqiy masalalar) qamariy taqvimdan boshqasi bilan yurgizish mumkin emas edi. Yig'ilishda ishtirok etgan sahobalar o'sha vaqtgacha qo'llanib kelgan qamariy oy nomlarini ham saqlab qolishni lozim ko'radilar. Chunki bu oylar arab xalqlari o'rtasida juda mashhur edi. Sahobalar taqvim boshi, ya'ni hijriy sananing boshini qaysi vaqtdan, qaysi voqeadan boshlab hisoblashga oid turli fikrlarni o'rtaga tashlaydilar. Ali ibn Abu Tolib (r.a.) islom taqvimi bo'lmish hijriy sanani Muhammad (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlari – hijratlaridan boshlashni taklif etadilar. Bu taklifni barcha sahobalar ma'qullaydilar va qabul qiladilar. Hijrat sababli taqvim "hijriy" deb nom oladi.

Shu tariqa xalifa Umar (r.a.) rabiulavval oyining 16-kuni – milodiy 637-yil aprelda yangi musulmon yil hisobi – hijriy yil taqvimini joriy etadi.

O'quvchilarga tarix fani darslarida yil hisobi o'rgatilganda, albatta, milodiy yilni hijriy yilga, hijriy yilni milodiy yilga aylantirish formulasini ham o'rgatish kerak.

Hijriy yilni milodiy yilga aylantirish formulasi:

$$HY=(MY-622)\times 33\div 32.$$

Milodiy yilni hijriy yilga aylantirish formulasi:

$$MY=HY\times 32\div 33+622.$$

Bunda HY hijriy yil va MY milodiy yil hisobini anglatadi.

Misol: $(2022-622)\times 33\div 32=1443,75$ chiqadi, uni yaxlitlasak, 1444-hijriy yil kelib chiqadi. $1444\times 32\div 33+622=2022,24$ chiqadi, uni yaxlitlasak, 2022-milodiy yil kelib chiqadi.

4-topshiriq. Manfiy va musbat usuli.

Ko'rsatma. Berilgan ma'lumotlarda qaysi shahar haqida gap ketayotganini toping va mos keluvchi katakka "+" yoki "-" belgisini qo'ying.

Ma'lumotlar	Makka	Halab	Madina	Yaman	Damashq
Unumdor yerlari, mevali bog'lari, xurmozorlari bilan nom qozongan.					
Suriyada joylashgan.					
Bo'lajak payg'ambar – Muhammad (s.a.v.) tavallud topganlar.					
Bu shaharga "payg'ambar shahri" nomi berilgan.					
Musulmonlarning umumiy ziyoratgohi – Ka'ba shu shaharda joylashgan.					
Muhammad (s.a.v.) u yerda ilk masjidni qurdiradilar.					





Muhammad (s.a.v.) savdo ishlari bilan safar qilgan shaharlar hisoblanadi.					
Bu shahar ko'chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo'lgan.					
Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari milodiy 622-yili bu yerga hijrat (ko'chish) qiladilar.					

Javobi:

Ma'lumotlar	Makka	Halab	Madina	Yaman	Damashq
Unumdor yerlari, mevali bog'lari, xurmozorlari bilan nom qozongan.				+	
Suriyada joylashgan.		+			+
Bo'lajak payg'ambar – Muhammad (s.a.v.) tavallud topganlar.	+				
Bu shaharga "payg'ambar shahri" nomi berilgan.			+		
Musulmonlarning umumiy ziyoratgohi – Ka'ba shu shaharda joylashgan.	+				
Muhammad (s.a.v.) u yerda ilk masjidni qurdiradilar.			+		
Muhammad (s.a.v.) savdo ishlari bilan safar qilgan shaharlar hisoblanadi.		+			+
Bu shahar ko'chmanchilar va mahalliy aholining mol ayirboshlash hamda savdo markazi bo'lgan.	+				
Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari milodiy 622-yili bu yerga hijrat (ko'chish) qiladilar.			+		

5-topshiriq. Jadval bilan ishlang.

Ko'rsatma. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga quyidagi jadvalni to'ldirish topshirig'ini bering.

T/r	Sana	Voqea bayoni
1	570-yil	
2	610-yil	
3	622-yil	





4	630-yil	
5	632-yil	
6	VI–VII asrlar	
7	VII asr boshlari	
8	VII asr	
9	VII asrning ikkinchi yarmi	

Topshiriqning javobi:

T/r	Sana	Voqea bayoni
1	570-yil	Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) 570-yili Makkada quraysh qabilasining hoshimiylar urug'iga mansub, uncha boy bo'lmagan, lekin zodagonlarga yaqin oilada tavallud topganlar.
2	610-yil	Muhammad (s.a.v.)ga 610-yildan boshlab Alloh taolodan ilohiy oyatlar nozil bo'la boshlaydi.
3	622-yil	Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari milodiy 622-yili Yasribga hijrat (ko'chish) qiladilar hamda shaharga Madina (payg'ambar shahri) nomi beriladi.
4	630-yil	Muhammad (s.a.v.) Madina va uning atrofidagi shaharlar aholisini islomga o'tkazgach, 630-yili Makka shahrini jangsiz egallaydilar.
5	632-yil	Muhammad (s.a.v.) 632-yili Madina shahrida vafot etadilar va shu yerga dafn etiladilar.
6	VI–VII asrlar	Arabistonda VI–VII asrlarda aholi soni ko'payib, qabilalar orasida suv manbalari va yaylovlar uchun kurash kuchayadi.
7	VII asr boshlari	Islom VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida yagona Allohga e'tiqod asosida shakllanib, jahonda keng tarqalgan dindir.
8	VII asr	Arabiston shaharlari va ko'chmanchi qabilalar keyingi yillarda islomni qabul qilib, VII asrda yagona davlatga birlashadi.
9	VII asrning ikkinchi yarmi	Islom dinidagi uchinchi yo'nalish – xorijiyar VII asrning ikkinchi yarmida parchalanib, keyinchalik yo'qolib ketgan.

6-topshiriq. "Insert" usuli bilang ishlang.

Mavzu bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni o'qib, matnning o'ng tomonidagi ustunlarga quyidagi belgilardan mosini qo'yib chiqing:

“B” – men bilgan ma'lumot;

“+” – men uchun yangi ma'lumot;

“-” – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi;

“?” – men uchun tushunarsiz, noaniq (aniqlashtirishni talab qiladigan) ma'lumot.






Mavzu bo'yicha ma'lumotlar	B	+	-	?
Arab qabilalari Arabiston yarimoroli va unga tutash hududlarda yashab kelgan.				
Ko'chmanchi arablar – badaviylar (sahroyilar) boshqa chorvador qabilalar kabi tuyachilik, qo'ychilik va yilqichilik bilan shug'ullangan.				
An'anaga ko'ra, Makka ahli jazirama issiqdan asrash uchun har yili go'daklarni tog'dagi yaylovlarda yashovchi banu sa'd qabilasiga mansub ayollarga berib yuborgan.				
Islom dini beshta asos yoki ustunga ega: 1) imon keltirish; 2) namoz o'qish; 3) ramazon oyida bir oy ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) haj qilish.				
Musulmonlar haftaning juma kunini kunlarning ulug'i va miskinlar uchun haj deb hisoblaydi.				
Milodiy 622-yil hijrat – “ko'chib o'tish” musulmon yil hisobining boshlanishi deb qabul qilinadi.				
Bugungi kunda musulmonlarning asosiy qismi sunniylik yo'nalishida bo'lib, u to'rtta fiqhiy mazhab: hanafiy, shofi'iy, molikiy, hanbaliy hamda ikki yirik aqidaviy ta'limot – ash'ariy va moturidiydan iborat.				
Muhammad (s.a.v.) Madina shahridagi musulmonlar yetakchisiga aylanib, bu yerda ilk masjidni qurdiradilar. Allohga ibodat qilish tartibini joriy etadilar, sudxo'rlik, ichkilik, qimor o'yinlarini taqiqlaydilar.				
Musulmonlarning asosiy bayramlaridan biri – Ramazon hayiti bir oylik ro'zadan keyin nishonlanadi. Undan yetmish kun o'tib Qurbon hayiti o'tkaziladi.				
Islom dini buddaviylik va xristianlikdan keyingi yana bir jahon dini hisoblanadi.				
Somiy xalqlari uzoq o'tmishda Sharqning eng qadimgi davlatlari: Akkad, Bobil, Isroil podshohliklarini tuzgan.				






7-topshiriq. Ma'lumotlarni tahlil qilish, saralash va taqqoslash uchun Venn diagrammasidan foydalaning.

Ko'rsatma. Ko'chmanchi va o'troq arablarning joylashgan o'rni, turmush tarzi, xo'jaligi tahlil qilinadi va solishtiriladi hamda umumiy jihatlari aniqlanadi.



Javoblar:



**8-topshiriq. "Pinbord" metodi asosida mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash topshirig'i.**

Ko'rsatma. Mavzu matnini yaxshilab o'qib chiqib, ustunlarda berilgan tushunchalarga mos keluvchi atamalarni toping va tegishli katakka √ belgisini qo'ying.





Atamalar	Islom dini asoslari	Islomdagi yo'nalishlar	Islomdagi fiqhiy mazhablar	Islomdagi aqidaviy mazhablar	Islomdagi bayramlar
Sunniylik					
Namoz					
Ramazon hayiti					
Hanafiy					
Ro'za					
Shialik					
Ash'ariy					
Shofi'iy					
Haj					
Xorijiyilar					
Qurbon hayiti					
Molikiy					
Iymon keltirish					

Topshiriqning javobi:

Atamalar	Islom dini asoslari	Islomdagi yo'nalishlar	Islomdagi fiqhiy mazhablar	Islomdagi aqidaviy mazhablar	Islomdagi bayramlar
Sunniylik		√			
Namoz	√				
Ramazon hayiti					√
Hanafiy			√		
Ro'za	√				
Shialik		√			
Ash'ariy				√	
Shofi'iy			√		
Haj	√				
Xorijiyilar		√			
Qurbon hayiti					√
Molikiy			√		
Iymon keltirish	√				



Topshiriq. Rasmlarga qarab jadvalni to'ldiring.

T/r	Inshoot rasmi	Qanday inshoot?	Qaysi dinga tegishli?	Inshoot haqida ma'lumot
1		Masjid	Islom dini	Musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar asosan kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan.
2		Sinagoga	Yahudiylik dini	Yahudiylik ibodatxonasi bo'lib, bu yerda Tavrotni o'qib, sharhlashadi. Sinagogalar Falastinda mil. avv. IV asrda vujudga kelgan.
3		Budda ibodatxonasi	Buddaviylik dini	Buddaviylar ibodat qiladigan ibodatxona.
4		Cherkov	Xristian dini	Xristian dinining marosim va ibodatlari uchun barpo etilgan inshoot.

**10-topshiriq. Tarixiy mushohada uchun berilgan matn ustida ishlang.****Tarixiy mushohada**

Qur'on (arabcha, "o'qimoq", "qiroat qilmoq") – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. U Muhammad (s.a.v.) 40 yoshga yetganlarida Makka shahri atrofidagi tog'lardan biridagi Hiro nomli g'orda nozil bo'la boshlagan. Qur'on hajmi turli xil bo'lgan suralardan tarkib topgan. Qur'onda jami 114 ta sura bor.

Muhammad (s.a.v.) hayotlik vaqtlarida yana vahiy tushib qolar, degan umidda Qur'on oyatlari jamlanib kitob holiga keltirilmagan.

U kishining vafotlaridan so'ng musulmonlarga Abu Bakr (r.a.) boshliq etib saylanadi. Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab odamlar urushlarda vafot etayotganini ko'rgan Umar (r.a.) Abu Bakr (r.a.)ga: "Qorilar o'lib ketaversa, Qur'onga zarar yetishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakliga keltirib jamlab qo'yish kerak", deb maslahat beradi. Abu Bakr Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib, bu ishni amalga oshirishni unga topshirdi. Zayd ibn Sobit, Umar (r.a.) va boshqa sahobalar Qur'onni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning mukammal, ishonchli bo'lishiga harakat qilib, masjidida: "Kimning qo'lida yozilgan Qur'on bo'lsa va uning Payg'ambar huzurida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin, Qur'onni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi", deb e'lon qiladilar. Ular shu tariqa bir yildan ortiq vaqt ichida Qur'onni jamladilar.

Shunday qilib, Zayd va Umar to'plangan Qur'on oyatlarini kiyik terisidan ishlangan pergament (teri qog'ozlar)ga yozib chiqadilar va uni Abu Bakrning uyiga olib boradilar. U kishi olamdan o'tgach, ushbu Qur'on sahifalari Umar (r.a.)ning uylarida, u kishidan so'ng esa qizlari va payg'ambarning rafiqasi – Hafsa binti Umar huzurida qoladi.

Vaqt o'tishi bilan xalifalik davlatining chegaralari kengayib, boshqa ko'plab xalqlar ham islomni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paygandan so'ng Qur'onni o'qishda turli kelishmovchiliklar chiqa boshlaydi. Bu holatni ko'rgan o'sha vaqtdagi xalifa Usmon (r.a.) Hafsadan Abu Bakr (r.a.) davridagi sahifalarni so'rab olib, undan olti nusxa ko'chirishga buyruq beradi.

Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan o'lkalardagi markaziy shaharlarga bir nusxadan, ularga bittadan qori qo'shib jo'natadi va hammaga faqat shu nusxalardan Qur'on ko'chirish va shu qorilardan qiroat o'rganishga buyruq beradi.

Usmon (r.a.) o'zlariga bir dona mus'haf (sahifalangan Qur'on) olib qoladilar. Bugungi kunda "Usmon mus'hafi" islom dunyosida "Toshkent Qur'oni" nomi bilan ham tanilgan bo'lib, xalifa Usmon (r.a.) aynan shu Qur'onni o'qib o'tirganlarida o'ldirilgan.

"Usmon mus'hafi" ko'p yillardan beri yurtimizda saqlanadi. Uning o'lkamizga kelib qolishi haqida turli xil farazlar mavjud.

Atoqli olim shayx Ismoil Maxdum Sotti Oxund Namangoniy "Toshkentdagi "Usmon mus'hafi"ning tarixi" asarida mus'hafning Movarounnahrda keltirilishi xususida bir necha mulohazalarini bildirganlar.

Shuningdek, tarixchi olim Hamid Ziyoyev ham bu borada tadqiqot olib borib, quyidagilarni bayon qilgan. XIII asrda Volga bo'ylarida tashkil topgan va rivojlangan qudratli Oltin O'rda davlatining mo'g'ul hukmdorlari birin-ketin islom dinini qabul qilgan. Ular orasida birinchilardan bo'lib Berkaxon (1257–1266) musulmon bo'lgan edi. U Buxoroda ham bo'lib, taniqli din peshvolari bilan suhbatlashgan. Berkaxon hukmdorlik qilgan davrdan islom dini ayrim xorijiy mamlakatlar e'tiborini torta boshlagan.

Xususan, Oltin O'rda davlati tashkil topgan mintaqadan Misrga borib, hokimiyatni



qo'lga olgan qipchoqlar (mamluklar) o'z ona yurtlarida islom dinining yuksalishini katta qiziqish va mamnuniyat bilan qarshi oladilar. Natijada Berkaxon bilan Misr podshohi Baybars o'rtasida elchilik va do'stlik aloqalari shakllanadi. Mamluklar asl vatanlarini qo'rsab, uning ravnaqi uchun imkoni boricha yordam berish maqsadida Oltin O'rda bilan yaqin aloqalar o'rnatishgan. Baybarsning elchi orqali Berkaxonga yuborgan sovg'alari ham shundan dalolat beradi.

Misr podshohi sovg'a tariqasida nodir buyumlar bilan birgalikda xalifa Usmon ko'rsatmasiga binoan ko'chirilgan muqaddas Qur'on nusxasini ham yuborgan. O'shandan keyin ko'p asrlar davomida mus'hafning qayerdaligi haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Amir Temur To'xtamishni mag'lubiyatga uchratib, Oltin O'rda poytaxtini egallaganidan keyin o'sha Qur'onni qo'lga kiritib, Samarqandga olib kelgan.

Bunga dalolat shundan iboratki, Sohibqiron Qur'oni karimni Misrdan ham, Turkiyadan ham olib kelmagan.

Hozir uning olti nusxasidan beshtasi mavjud, bittasi esa Madinada masjidga o't tushganida kuygan ekan. Mus'haflar soniga qarab hisoblansa ham, Amir Temur uni Oltin O'rdadan olgani ma'lum bo'ladi. Hozir Madina va Makka shaharlarida, Misr va Turkiyada bir nusxadan saqlanmoqda, yana bir nusxasi esa bizning yurtimizda asrab-avaylab kelinmoqda.

Toshkentdagi "Usmon mus'hafi"ning umumiy hajmi 68x53 cm hisoblanib, 353 varaqdan iborat bo'lgan.

"Usmon mus'hafi" 1997-yilda YUNESKOning "Dunyo xotirasi" ro'yxatiga kiritilgan. U hozirgi kunda Toshkentdagi "Hazrati Imom" majmuasida joylashgan "Mo'yi Muborak" madrasasi muzeyida saqlanmoqda.

11-topshiriq. Mavzuga oid rasmlar bilan ishleng.

Ko'rsatma. Internet ma'lumotlaridan foydalanib quyidagi suratlardan Arab xalifaligi bilan bog'liq bo'lganlarini aniqlang hamda ularni izohlashga harakat qiling.



Javob va izohlar: 1) Arab xalifaligida ta'lim jarayoni; 2) xalifa (soqchilari bilan); 5) Qur'oni karim; 6) Arab xalifaligi hududi; 7) Arab xalifaligi bayrog'i; 9) Arab xalifaligi shaharlaridan biridagi musulmonlar namoz o'qiydigan masjid; 10) Arab xalifaligi jangchilari; 12) xalifa Horun ar-Rashid.

**9-MAVZU. ARAB XALIFALIGI: ISLOM DUNYOSINING BARPO ETILISHI****1-topshiriq. Jadval bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Mavzuni yaxshilab o'qib, ma'lumotlarni tahlil qilib, quyidagi jadvalni to'ldiring. Jadvalni to'ldirish uchun darslikdagi matnda berilgan har bir xalifaning hukmdorlik davri va faoliyatiga oid ma'lumotlarga alohida e'tibor bering.

T/r	Xalifalar	Hukmdorlik yillari	Faoliyati	Fath etilgan hududlar
1				Suriya, Falastin va Misr, shuningdek, Eronning katta qismi fath etiladi.
2			Islom davlati boshqaruvini takomillashtirdi.	
3		656–661		
4	Usmon			

Javobi:

T/r	Xalifalar	Hukmdorlik yillari	Faoliyati	Fath etilgan hududlar
1	Umar	634–644	Yangi musulmon yil hisobi – hijriy yil taqvimi joriy etildi.	Suriya, Falastin va Misr, shuningdek, Eronning katta qismi fath etiladi.
2	Abu Bakr	632–634	Islom davlati boshqaruvini takomillashtirdi.	Iroq va Suriya fath etildi.
3	Ali ibn Abu Tolib	656–661	Islom dushmanlariga qarshi kurashdi.	–
4	Usmon	644–656	Uning buyrug'i bilan Qur'oni karim matni to'planib, bir butun (mus'haf) kitob shakliga keltirildi.	Eron sosoniylari davlatini fath etish tugallanib, Amudaryo sohillariga chiqishdi.

**Tarixiy mushohada**

Arab xalifaligi qo'shinlari olti oy Quddusni qamal qilishgach, shahar ma'murlari xalifaning o'zi kelsa, unga taslim bo'lishlarini bildirishadi. Shu bois xalifa Umar xizmatkori bilan bitta tuyada Quddusga yo'l oladi. Tuyaning ustidagi xurjunning bir tomoniga arpa uni, ikkinchi tomoniga quritilgan xurmo va ko'zachaga suv solib, uni xizmatkori bilan galma-galdan minib, Quddusga yetib kelishadi. Tuyaning ustida o'z xizmatkorini yetaklab piyoda kelayotgan Umarni shahar darvozasiga yaqinlashganida shahar hokimi Xudaydod va yepiskop Safroniylar kutib oladilar. Ular xalifa bilan sulh tuzib, unga bo'ysunishga qasamyod qilishadi. Shartnoma imzolanganidan so'ng Umar shaharga kiradi.





Xalifa Umar hokimlar so'ragan va ularning odatlari hamda qonunlariga asoslanib yozilgan yorliqni ularga topshiradi. Ma'lumki, rimliklar 135-yili Quddusdagi qo'zg'olonni bostirgach, shahar aholisi bo'lgan yahudiylarni haydab chiqarib, ularning Quddusga kirishini taqiqlovchi qonunni qabul qilishadi. Umar rimliklarning ushbu qonunini bekor qilib, ularning shaharga qaytishlariga ruxsat beradi. Shuningdek, nasroniylarga fuqarolik va diniy erkinlik kafolatlarini beradi.

Xalifa shaharni obod qilishga ham e'tibor qaratib, Safroniyga bu yerda masjid qurmoqchiligini aytadi. Yepiskop Sulaymon (a.s.) ibodatxonasi xarobalari joylashgan yerni ko'rsatadi. Ammo bu yerda juda ko'p axlat yig'ilib qolgan edi. Umar u yerni o'zi tozalashga kirishadi. Yerda yotgan narsalarni qo'llari bilan etaklariga solib tashiy boshlaydi. Shunda musulmonlar kelib, xalifaga yordamga qo'shiladilar. Xalifa u yerga masjid qurishni buyuradi. Xalifaning ust-boshi chang bo'lganini ko'rgan yepiskop yangi kiyimbosh keltirib, xalifadan sovg'ani qabul qilishini so'raydi. Lekin xalifa in'omni olishni istamay, hech kimdan hech narsa olishi mumkin emasligini uqtiradi. Gap shundaki, Umar o'z mehnati orqali tirikchilik qilar edi. U palma yaproqlaridan katta yelpig'ichlar yasab, sotishga berar va ushbu hunari hisobidan kiyim-kechak va boshqa kerakli narsalarni sotib olardi. Safroniy undan in'omni olishni o'tinib so'raganida, u noiloj mezbonga hurmat yuzasidan, o'z kiyimlarini yuvib, quritib berganlaridan so'ng yana qaytarib berish sharti bilan rozi bo'ladi.

Xalifa Umar Quddusda qisqa muddat bo'lganidan so'ng Madinaga qaytadi.



Qo'shimcha ma'lumot

Xalifa (arabcha, "o'rinbosar", "noib") – islom paydo bo'lgan dastlabki davrda odamlar hayotini shariat bo'yicha tartibga solish va Allohning ko'rsatmalariga rioya etilishini nazorat qilish uchun saylab qo'yilgan musulmon jamoasi rahbari.

Xalifa musulmonlarni islom dini arkonlari (asoslari)ni bajarishga buyurish, urush olib borish, lashkar yig'ish, jangchilarga maosh berish, tushgan o'ljani bo'lib berish, shar'iy jazolarni belgilash kabi davlat ishlariga rahbarlik qilgan.

Xalifalik (bu o'rinda xalifaning mansabi va unvoni) to'rt yo'l bilan yuzaga keladi:

1. Musulmonlarga fikri va nasihati o'tadigan ulamolar, boshliqlar va lashkarboshilarning bay'ati (qo'llab-quvvatlashi) natijasida. Abu Bakrning xalifaligi shu yo'l bilan yuzaga kelgan.

2. Xalifa odamlarga vasiyat qilib, o'z o'rniga xalifa bo'ladigan odamni tavsiya qilishi natijasida, Abu Bakr o'zlaridan keyin hazrati Umarning xalifa bo'lishini vasiyat qilgan.

3. Xalifa saylash uchun maslahat kengashini tuzish. Usmon va Alining xalifaligi shu yo'l bilan yuzaga kelgan.

4. Xalifalik shartlariga mos bir kishining xalifa bo'lib olishi natijasida, Xulafoyi roshidinlardan keyingi xalifalar shu yo'l bilan xalifa bo'lgan.


Alining xalifalik davrida dastlab Shom voliysi (hokimi) Muoviya ibn Abu Sufyon, keyin ahli sunna val jamoadan ajralib chiqqan xavorijlar bilan nizolar yuz berib, mamlakatda fitnalar avj oladi. Oqibatda 661-yilda Ali xavorijlar tomonidan o'ldirilgandan keyin Iroq ahli uning o'g'li Hasanni xalifa deb e'lon qiladi. Ammo Hasan musulmonlarning orasini isloh qilish, ularni birlashtirish maqsadida olti oydan so'ng xalifalikni umaviylar sulolasidan bo'lgan Muoviyaga topshiradi. Shu tariqa xalifalikni 661–750-yillarda umaviylar, 750–1258-yillarda abbosiylar sulolasidan bo'lgan xalifalar boshqaradi.






2-topshiriq. Ma'lumotlarni tahlil qilish, saralash va taqqoslash uchun Venn diagrammasidan foydalaning.

Ko'rsatma. Arab xalifaligida hukmronlik qilgan sulolalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi va tahlil qilinadi.



Javoblar:



**3-topshiriq. “BBB” jadvali bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi “bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bilib oldim” ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Abu Bakr				
2	Umar				
3	Usmon				
4	Ali ibn Abu Tolib				
5	Horun ar-Rashid				
6	Muoviya I				
7	Jabal at-Tariq				
8	Abbos				
9	Abu Muslim				
10	Huloku				
11	Sa'd ibn Abu Vaqqos				

4-topshiriq. “Tarixiy mushohada” ruknida berilgan topshiriq bilan ishleng.

Ko'rsatma. Darslikdagi “Tarixiy mushohada” ruknida berilgan hikoyani o'qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Ushbu hikoyaga siz qanday sarlavha qo'yasiz? Nega shunday sarlavha qo'yganingizni izohlab bering.

2. Qaysi xalifa davrida islomiy fathlar nihoyatda kengayadi? Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

3. Musulmonlar Fors yerlarini fath qilar ekan, qaysi qal'ani ishg'ol qilishga uzoq vaqt sarflashdi? Sizingcha, buning sababi nimada?

4. Musulmonlar qal'ani qancha vaqt qamal qilganlaridan keyin ishg'ol qilishga muvaffaq bo'ldilar?

5. Qal'ani uzoq muddat ishg'ol qila olmaslik musulmonlar qo'shiniga qanday ta'sir etdi?

6. Niqobli kishi nima sababdan hayotini xavf ostiga qo'yib darvozani ochib berishga qaror qildi?

7. Palaxmonning kapgiriga o'tqazilib uloqtirilganidan so'ng uzoq masofaga uchib borgan niqobli kishi qanday qilib tirik qoldi?

8. Niqobli kishi katta jasorat ko'rsatgan bo'lsa-da, nega o'ljalardan o'z hissasini olmadi?

9. Boylik kerak bo'lmasa-da, niqobli kishi nega uch kundan keyin Sa'd ibn Abu Vaqqosning oldiga keldi?

10. Niqobli kishi Sa'd ibn Abu Vaqqosga qanday shartlar qo'ydi?

11. Sa'd ibn Abu Vaqqos qahramonning kim ekanligini qanday bildi?

12. Musulmonlar Madinaga qaytib borgach, xalifa Umar niqobli kishi haqida Sa'd ibn Abu Vaqqosdan so'raydi, ammo Sa'd nega hech narsa aytmaydi?





5-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'riligini (-) aniqlang.

T/r	Ma'lumot	+/-
1	VIII asr o'rtalarida hokimiyat abbosiylar (Muhammad (s.a.v.)ning amakisi Abbosning avlodlari)ga o'tadi.	+
2	Xalifalikning Jabal at-Tariq boshchiligidagi qo'shini 711–714-yillari Pireney yarimorolidagi (hozirgi Ispaniya) Vestgot qirolligini bo'ysundiradi.	+
3	Alining tarafdorlari xorijiyalar, raqiblari esa shialar nomini olishgan.	-
4	Musulmonlar Umarni – taqvodor, din masalalarida adolatli bo'lgani uchun – “Umari odil”, hukmronlik davrini esa islomning “oltin asri” deb tavsiflashgan.	+
5	Arablar amalga oshirgan fathlar VII–VIII asrlarda ulkan hududlarni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining tashkil topishi bilan yakunlandi.	+
6	Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng barcha arablarni birlashtirgan davlatdagi hokimiyat uning eng yaqin qarindoshlari qo'lga o'tadi.	-
7	Ispaniyada X asrda xalifalikdan ilk mustaqil amirlik ajralib chiqadi.	-
8	Mo'g'ullar Bag'dodni egallab, xalifani dunyoviy vazifalardan chetlatgan.	-
9	IX asrdan Misr, Eron, Movarounnahr va Xuroson mustaqillikka erishadi, abbosiylar tasarrufida faqat Yaqin Sharq va Arabiston yarimoroli qoladi.	+
10	Umaviylar sulolasining eng mashhur xalifasi Horun ar-Rashid (786–809) bo'lgan.	-
11	Abu Bakr Islom davlati boshqaruvini takomillashtirdi. Xususan, mamlakatni boshqarish uchun Maslahat kengashi tashkil qilindi, har bir viloyatga voliy (hokim) tayinlandi.	+
12	Xalifa Usmonning buyrug'i bilan Qur'oni karim matni to'planib, bir butun kitob shakliga keltiriladi va turli o'lkalarga tarqatiladi.	+

6-topshiriq. Atamalar izohini to'g'ri belgilang.

1	Choryorlar	A	barcha musulmonlar uchun asosiy ziyoratgoh
2	Xalifa	B	“to'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar”
3	Ka'ba	C	“yo'nalish”, “oqim”, “yo'l”
4	Sayyid ul-ayyom	D	(forscha, “to'rt do'st”) to'g'ri yo'ldan borgan dastlabki to'rt xalifa
5	Xulafoyi roshidinlar	E	Makka va Madina shaharlariga ziyorat
6	Mazhab	F	“o'rinbosar”, musulmon davlati hukmdori
7	Haj	J	“kunlarning ulug'i”, juma kuni

Javoblar: 1) D; 2) F; 3) A; 4) J; 5) B; 6) C; 7) E.

**7-topshiriq. "Raqamlar tilga kirganda" o'yini bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Quyidagi yillar, sanalar, raqamlarga darslik matnidan foydalangan holda izoh topishga harakat qiling.

732-yil ...	644–656-yillar ...
VIII asr o'rtalari ...	756-yil ...
786–809-yillar ...	656–661-yillar ...
637-yil ...	1258-yil ...
VII–VIII asrlar ...	IX asr ...
632–634-yillar ...	711–714-yillar ...
X asr ...	661-yil ...
1055-yil ...	

8-topshiriq. "Labirint" usuli asosida mavzuga oid tarixiy shaxslar, joy nomlari va atamalarni topib, ularning izohini ayting.

e	n	a	n	j	k	q	s	i	p	e	u	l	o	b
y	d	a	l	n	o	u	o	b	a	u	h	b	k	u
t	d	x	i	f	p	r	d	q	i	m	f	u	d	i
a	a	j	r	a	l	q	y	i	a	l	i	k	z	y
u	s	i	y	p	o	ch	n	sh	g	o	d	i	x	a
p	s	d	m	s	r	m	d	h	b	o	d	j	i	v
a	v	n	o	o	y	o	r	m	k	a	o	r	r	o
t	l	o	k	n	a	v	o	q	t	b	u	x	u	u
a	s	n	b	a	g'	j	r	i	a	s	b	d	i	h
a	s	g	y	d	d	o	d	w	r	k	a	f	b	r
a	g	k	o	t	r	e	n	d	a	d	s	y	a	k
o	z	a	a	k	i	y	j	m	u	o	v	i	q	t

e	n	a	n	j	k	q	s	i	p	e	u	l	o	b
y	d	a	l	n	o	u	o	b	a	u	h	b	k	u
t	d	x	i	f	p	r	d	q	i	m	f	u	d	i
a	a	j	r	a	l	q	y	i	a	l	i	k	z	y
u	s	i	y	p	o	ch	n	sh	g	o	d	i	x	a
p	s	d	m	s	r	m	d	h	b	o	d	j	i	v
a	v	n	o	o	y	o	r	m	k	a	o	r	r	o
t	l	o	k	n	a	v	o	q	t	b	u	x	u	u
a	s	n	b	a	g'	j	r	i	a	s	b	d	i	h
a	s	g	y	d	d	o	d	w	r	k	a	f	b	r
a	g	k	o	t	r	e	n	d	a	d	s	y	a	k
o	z	a	a	k	i	y	j	m	u	o	v	i	q	t

Yashiringan so'zlar: Puatye, xalifa, Qurdoba, Huloku, shialik, xavorij, Abu Bakr, Muoviya, Bag'dod, zakot, iymon, choryor.



**Qo'shimcha ma'lumot**

Fath – islom dinini musulmon bo'lmagan o'lkalarga olib kirish, yoyish maqsadida ishlatilgan atama. Fathning o'ziga xos xususiyatlari bor:

1. *Islom nomidan musulmon bo'lmagan mamlakatlarga islom da'vati olib kiriladi, ya'ni shu hududlar hukmdor doiralariga “Aslim taslam” (“Taslim bo'lingiz va najot topasiz”) deyiladi – “Musulmon bo'l, mulking va davlating o'z qo'lingda qoladi”.*

2. *“Yo'q, islom dinini qabul qilmayman” desa, xalqni islom da'vatidan to'smaydi, jizya to'laydi.*

3. *Ikkala shart bajarilmasa, harbga chaqiriladi, ya'ni jang qilinadi.*

(Manba: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Islom tarixi”, 2-kitob, 59-bet)

1. Islomiy fathning istilo qilish va bosib olishdan qanday farqlari bor? Ularni sanab bering.

2. Arablarning o'zga din vakillari yashaydigan mamlakat va o'lkalarni fath etishdan ko'zlagan maqsadi nima bo'lgan?

3. Aziz o'quvchilar, 7-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligidan arablarning Movarounnahrni fath etishi haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?

4. Dunyoning siyosiy xaritasidan foydalanib arablar qaysi hududlarni va mamlakatlarni fath etganligini aniqlang.

**9-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Mavzuga tegishli hududlar nomlarini xaritada ko'rsating.





10-MAVZU. SALJUQIYLAR DAVLATI

1-topshiriq. "Xronologiya o'yini" metodi bilan ishlang.

Ko'rsatma. Quyidagi raqamlarni to'g'ri tartibda joylashtirib, unda yashiringan yilni toping va shu yilda sodir bo'lgan voqeani yozing.

0 1 5 2

= Saljuqiylar Mahmud G'aznaviyning roziligi bilan 1025-yilda Xuroson yerlariga ko'chib o'tadilar.

1 8 0 3

0 5 1 5

1 4 7 0

Javoblar: 1025-yil, 1308-yil, 1055-yil, 1074-yil.

2-topshiriq. "Ha yoki yo'q" o'yini asosida savollarga javob bering.

T/r	Ma'lumotlar	Ha	Yo'q
1	Xalifa al-Qoim (1031–1075) hokimiyatni To'g'rulbekka topshirib, uni sulton hamda "Sharq va G'arb podshohi" deb tan olishga majbur bo'ladi.		
2	XI asr oxirida mamlakat hududi Amudaryodan Frot daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi.		
3	Saljuqiylar davlat boshqaruvi, soliq va yer egaligi munosabatlarini Kichik Osiyo va Bolqon yarimorolidagi davlatlardan qabul qilganlar.		
4	Bosh vazir devoni (devoni a'lo) barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. Bosh vazir "rais ur-ruaso" deb atalib, mamlakatning ichki va tashqi siyosatidagi barcha sohalarni nazorat qilgan.		
5	Ko'niya sultonligining markazi dastlab Nikeya shahri bo'lib, keyinchalik Ko'niyaga ko'chiriladi. Sultonlikdagi Ko'niya, Qaysari, Sivas shaharlari hunarmandchilik va savdo markazlari bo'lgan.		



**3-topshiriq. Voqealarni xronologik tartibda joylashtiring.**

Nima **oldin**, nima **keyin** sodir bo'lgan?

- Bag'dodda To'g'rulbek nomiga xutba o'qiladi, abbosiylar saljuqiylarga tobe bo'lib qoladi. (oldin, keyin) Saljuqiylar Xuroson yerlariga ko'chib o'tadilar.
- Saljuqiylar Qoraxoniylarga zarba berib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. (oldin, keyin) Mamlakat parchalanib, bir nechta beyliklarga bo'linib ketadi.
- Sharqdan mo'g'ullarning bostirib kelishi sultonlikni ancha zaiflashtirib qo'yadi. (oldin, keyin) Saljuqiylar Xuroson yerlariga ko'chib o'tadilar.
- Mamlakat parchalanib, bir nechta beyliklarga bo'linib ketadi. (oldin, keyin) Sharqdan mo'g'ullarning bostirib kelishi sultonlikni ancha zaiflashtirib qo'yadi.
- Saljuqiylar Qoraxoniylarga zarba berib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. (oldin, keyin) Bag'dodda To'g'rulbek nomiga xutba o'qiladi, abbosiylar saljuqiylarga tobe bo'lib qoladi.

Javoblar:

1025	1055	1074	1243	1308
Saljuqiylar Xuroson yerlariga ko'chib o'tadilar.	Bag'dodda To'g'rulbek nomiga xutba o'qiladi, abbosiylar saljuqiylarga tobe bo'lib qoladi.	Saljuqiylar Qoraxoniylarga zarba berib, Buxoro va Samarqandni egallaydi.	Sharqdan mo'g'ullarning bostirib kelishi sultonlikni ancha zaiflashtirib qo'yadi.	Mamlakat parchalanib, bir nechta beyliklarga bo'linib ketadi.

4-topshiriq. Mavzu bo'yicha anagramma beriladi. Anagramma topilib, shu anagrammadagi so'zga ta'rif beriladi. Har bir topilgan to'g'ri javob uchun 5 ball beriladi.


Ko'rsatma. Besh nafar ko'ngilli o'quvchi o'rtasida bellashuv tashkil qilinadi. A4 o'lchamdagi qog'ozga yozilgan anagrammani o'qituvchi doskaga o'rnatadi.

Namuna: JQSLAUYALRI.

Javob: SALJUQIYLAR.



1. NKYO'IA – _____
2. MZOKUILNMLU – _____
3. KIMSHLOAH – _____
4. ORXSNOU – _____
5. NOSUMIL URKT – _____



**5-topshiriq. “BBB” jadvali bilan ishleng.**

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi “bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bilib oldim” ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Tarixiy shaxslar nomlari	B	B	B	Izoh
1	Saljuqbek				
2	To'g'rubek				
3	Mahmud G'aznaviy				
4	Chag'ribek				
5	Xalifa al-Qoim				
6	Alp Arslon				
7	Malikshoh				
8	Alouddin Kayqubod				
9	Nizomulmulk				

6-topshiriq. “Tushunchalar tahlili” jadvali bilan ishleng.

Tushunchalar	Mazmuni
Turkiy o'g'uz qavmi	
“Sharq va G'arb podshohi”	
Beylik (beklik)	
Sulton ul-a'zam	
Rais ur-ruaso	
Yunonlar, forslar, armanlar va gruzinlar	
Jand shahri	
Devoni a'lo	
Nikeya shahri	
Voliy	

7-topshiriq. Darslikdagi matn bilan ishleng.

Ko'rsatma. Quyidagi matndan 5 ta noto'g'ri jumlani to'g'rilab yozing.

XI asr oxirida Anatoliyani to'liq bosib olgan o'g'uzlar u yerda Ko'niya sultonligini tuzishadi. Shuningdek, Old Osiyo hududida saljuqiylarning bir qator beylik (beklik)lari ham tashkil etiladi. Beylar rasman saljuqiylar sulolasi hukmronligini tan olib, o'z mulklarini mustaqil boshqara olmas edi.

Ko'niya sultonligining markazi dastlab Ko'niya shahri bo'lib, keyinchalik Nikeyaga ko'chiriladi. Sulton Malikshoh davrida sultonlik taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Sultonlikdagi Ko'niya, Qaysari, Sivas shaharlari hunarmandchilik va savdo markazlari bo'lgan.






Kichik Osiyodagi beyliklarning aholisi etnik jihatdan yagona xalq sifatida shakllangan edi. 1071-yil Mansikert jangida saljuqiylar vizantiyaliklar ustidan g'alaba qozongandan keyin boshqa qarshilik yo'qligi tufayli bu yerga o'g'uz turklarining katta qismi ko'chib kelib, o'troq turmush tarziga o'ta boshlaydi.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____



8-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng.

Ko'rsatma. Mavzuga tegishli hudud nomlarini xaritada ko'rsating.



11-MAVZU. MO'G'ULLAR DAVLATI**Tarix texnologiyasi**

Tarix	Shartlari	Izoh	Ball
T	Test	Mavzu bo'yicha 5 ta test savollari tuziladi. Har bir to'g'ri javobga 1 balldan beriladi. To'plangan ball "Ballar" ustuniga yoziladi.	5 ball
A	Anagramma	Mavzu bo'yicha anagramma beriladi. Anagramma topilib, shu anagrammadagi so'zga ta'rif beriladi. Anagramma uchun 5 ball beriladi. To'plangan ballar "Ballar" ustuniga yoziladi.	5 ball
R	Raqam	Mavzu bo'yicha tarixiy sanalardan 5 ta beriladi. O'quvchilar shu tarixiy sanalarda sodir bo'lgan voqealarni yozadi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 balldan beriladi. To'plangan ballar "Ballar" ustuniga yoziladi.	5 ball
I	Ikkitasini solishtirish	Ikki tarixiy shaxs, tarixiy obida yoki voqea beriladi. O'quvchi ularni solishtiradi va farqli jihatlarini aytadi. To'g'ri javob uchun 5 ball beriladi. To'plangan ballar "Ballar" ustuniga yoziladi.	5 ball
X	Xulosa	Mavzuning eng asosiy mazmuni yoziladi. Javob uchun 5 ball beriladi. O'quvchilar eng so'nggi natija balliga qarab rag'batlantiriladi. Masalan, 20–25 ballgacha – "tasanno", 15–20 ballgacha – "ofarin", 10–15 ballgacha – "yaxshi", 5–10 ballgacha – "qoniqarli", 0–4 ballga – "qoniqarsiz".	5 ball

**Qo'shimcha ma'lumot**


Mo'g'ullar davlati – XIII asrning I yarmida Chingizxon va uning vorislarining istilochilik urushlari natijasida barpo etilgan davlat. 1206-yil bahorda Mo'g'ulistondagi turli qabilalar sardorlarining qurultoyida Temuchin xon etib tayinlangan va unga "Chingizxon" ("Ulug'xon") deb nom berilgan, tashkil etilgan davlat "Yakka mo'g'ul ulusi" deb atalgan. Chingizxon hokimiyatni mustahkamlash yo'lida bir qancha islohotlar o'tkazgan. Jumladan, ming oilani bir ma'muriy birlikka bo'lishga asoslangan va harbiy tus berilgan yangi ma'muriy tuzum joriy etilgan. Unga ko'ra, Chingizxonga tobe bo'lganlar jami 95 ta "ming oila" birligiga bo'lib chiqilgan va ularning har biriga urush davrida Chingizxonga sadoqat bilan xizmat ko'rsatgan kishilar boshliq qilib tayinlangan. Lekin amalda ayrim mingliklar bir necha ming oiladan iborat ham bo'lgan. Mingliklarni tashkil etishda imkon boricha bir toifadagi qardosh avlodlarni va qabilalarni bir-biridan ajratmaslikka e'tibor berilgan. Mazkur "ming oila"lar, o'z navbatida, g'arbiy – "o'ng qanot" va sharqiy – "so'l qanot", markaziy va tog'liklar kabi 4 qismga bo'lingan. Har bir ming oila yuzlikka va o'nlikka bo'lingan. 15 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan erkaklar harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan. Qo'shinda qattiq tartib o'rnatilgan, qonunbuzarlar uchun qattiq jazo, qonun ustuvorligini himoya qilganlarga esa hurmat bildirilib, mukofot belgilangan.

(O'zbekiston milliy ensiklopediyasi)



1-topshiriq. Test savoli bilan ishleng. Quyidagi izohlarga mos rasmlarni tanlang.

Izohlar	Raqamlar
Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlari xaritasi	5
Mo'g'ul jangchisi	2
Mo'g'ullarning Bag'dodga harbiy yurishi	4
Mo'g'ul jangchisi va qurol-aslahalari	3
Chingizxon	1



2-topshiriq. Anagramma.

Ko'rsatma. Mavzu bo'yicha anagramma beriladi. Anagramma topilib, shu anagrammadagi so'zga ta'rif beriladi. Anagramma uchun 5 ball beriladi.

Namuna: ALRLMO'UG'.
Javob: MO'G'ULLAR.

- ETMCHNIU – _____
- AXPLONAM – _____
- SHEKIK – _____
- TYOICHAG' – _____
- NTLOI ADRO' – _____





3-topshiriq. Raqamdagi voqealar.

Ko'rsatma. Mavzu bo'yicha tarixiy yillardan 5 ta beriladi. O'quvchilar shu tarixiy sanalarda sodir bo'lgan voqealarni yozadi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball dan beriladi. Ballar tegishli ustunga yozib boriladi.

Masalan:

1224-yil Chingizxon zabt etilgan hududlarni uluslarga bo'lib, o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga taqsimlab beradi.

T/r	Yillar	Voqealar	Ballar
1	1155–1227-yillar		
2	1211-yil		
3	1218-yil		
4	1219–1221-yillar		
5	1237–1242-yillar		

4-topshiriq. Ikkitasini solishtirish.

Ko'rsatma. Ikki tarixiy shaxs, tarixiy obida yoki voqea beriladi. O'quvchi ularni solishtiradi va farqli jihatlarini aytadi. To'g'ri javob uchun 5 ball beriladi.

1. Saljuqiylar davlatining harbiy yurishlari: _____
2. Mo'g'ullar davlatining harbiy yurishlari: _____

5-topshiriq. Xulosa.

Ko'rsatma. Mavzuning eng asosiy mazmuni yoziladi. Javob uchun 5 ball beriladi. O'quvchilar eng so'nggi natija ballariga qarab rag'batlantiriladi. Masalan, 20–25 ballgacha – “tasanno”, 15–20 ballgacha – “ofarin”, 10–15 ballgacha – “yaxshi”, 5–10 ballgacha – “qoniqarli”, 0–4 ballga – “qoniqarsiz”.

Mo'g'ullar davlati		
Siyosiy hayot	Ijtimoiy-iqtisodiy hayot	Harbiy yurishlar
	Mashg'uloti – chorvachilik; ko'chmanchi xo'jalik – ayl.	Devor teshadigan maxsus moslama – palaxmon.
	Mo'g'ullar tinch paytda chorvachilik bilan shug'ullangan.	Mo'g'ullarning sevimli quroli kamon bo'lgan.
Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi.		“Keshik” deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etilgan.
Urug' boshlig'i – no'yon.		Chingizxon 1211-yilda Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi.
		Afg'oniston, Sharqiy Eron egallanib, 1223-yilda Kavkaz orqali Dashti Qipchoqqa chiqiladi.



**6-topshiriq. "BBB" jadvali bilan ishlang.**

Ko'rsatma. Quyida tarixiy shaxslar nomlari berilgan jadvaldagi "bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim" ustunlarini (+) to'ldiring va sharhlang.

T/r	Ma'lumotlar	B	B	B	Izoh
1	Mo'g'ul qabilalari qadimdan Janubiy Sibir, Manchjuriya va Mo'g'uliston hududlarida yashab kelgan.				
2	Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi.				
3	Tinch paytda chorvachilik bilan shug'ullangan mo'g'ullar urush boshlanishi bilan o'nlik tizimdan iborat muntazam qo'shinga aylanar edi.				
4	1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni uluslarga bo'lib, o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga taqsimlab beradi.				
5	Chingizxonning nabirasi Botuxon 1237–1242-yillarda Sharqiy Yevropada istilochilik urushlari olib boradi.				
6	1211-yilda Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonga qarshi 1218-yilda boshlangan bosqinlar Xorazmshohlar davlatiga uyushtirilgan 1219–1221-yillardagi bosqinlarga ulanib ketadi.				

7-topshiriq. Voqealarni xronologik tartibda joylashtiring.

1155-yil	1206-yil	1211-yil	1218-yil	1224-yil
Temuchinga Chingizxon unvoni berildi.	Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlandi.	Temuchin tug'ilgan.	Chingizxon zabt etilgan hududlarni o'z o'g'illariga taqsimlab berdi.	Xorazmshohlar davlatiga yurish qilinadi.


Javoblar:

1155-yil	1206-yil	1211-yil	1218-yil	1224-yil
Temuchin tug'ilgan.	Temuchinga Chingizxon unvoni berildi.	Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlandi.	Xorazmshohlar davlatiga yurish qilinadi.	Chingizxon zabt etilgan hududlarni o'z o'g'illariga taqsimlab berdi.



8-topshiriq. "Ortiqchasini top" o'yini.

Ko'rsatma. Ushbu rasmda berilgan shaxs faoliyatiga aloqador bo'lmagan 2 ta ortiqcha ma'lumotni toping.

1. Asl ismi – Temuchin.	2. 1224-yilda zabt etilgan hududlarni uluslarga bo'lib, o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga taqsimlab beradi.	3. 1206-yil Onon daryosi bo'yida Chingizxon nomini oladi.
4. Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Qoraqurum qal'asini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi.		5. Birinchi va ikkinchi salib yurishlarida o'z qo'shini bilan ishtirok etgan hukmdor.
6. Saljuqiylar davlati asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan.	7. <i>Chingiz</i> so'zi "kuchli", "qudratli", "toza" ma'nolarini anglatadi.	8. 1155–1227-yillarda yashagan hukmdor.

Quyidagi ikki ma'lumot rasmdagi shaxs faoliyatiga aloqador emas:

- Birinchi va ikkinchi salib yurishlarida o'z qo'shini bilan ishtirok etgan hukmdor.
- Saljuqiylar davlati asoschisi sifatida tarixda nom qoldirgan.

9-topshiriq. Atamalar izohini to'g'ri belgilang.

1	Temuchin	A	Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon o'z davlatining poytaxtiga aylantirgan qal'a.
2	Keshik	B	Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish uning asosini tashkil etadi.
3	Qoraqurum	C	Favqulodda vaziyatlar uchun doimo jangovar holatda turgan maxsus gvardiya.
4	O'qtoy	D	Mo'g'ullar hukmdori – Chingizxonning asl ismi.
5	Shomonlik	E	1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni uluslarga bo'lib, o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga taqsimlab beradi. Uni taxt vorisi etib tayinlaydi.

Javoblar: 1) D; 2) C; 3) A; 4) E; 5) B.



Respublika ta'lim markazi **10-topshiriq.** Quyida berilgan "Tarixiy pasport" o'yinining sharti bo'yicha rasmdagi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiring.



Ismi: _____

Hukmronlik yillari: _____

Amalga oshirgan yurishlari: _____

Davlat boshqaruvidagi islohotlari: _____

Tuzgan davlati bugungi kunda qaysi mamlakatlar hududlariga to'g'ri keladi:

11-topshiriq. "Zinama-zina" o'yini.

Ko'rsatma. Bunda o'qituvchi proyektor yordamida ekranga quyida keltirilgan "Zinama-zina" o'yinining chizmasini chiqaradi (yoki vatman qog'ozga chizilgan shaklini sinf taxtasiga ilib qo'yadi) hamda ixtiyoriy ravishda 3 nafar o'quvchini taklif qiladi. Har bir o'quvchiga ketma-ketlik asosida bittadan, jami beshta tezkor savol berib boriladi. O'quvchilarning javob qaytarish vaqti 10 soniyadan oshmasligi lozim. Savolga to'g'ri javob topgan o'quvchi zinadan bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi, noto'g'ri javob bergan o'quvchi esa turgan joyida qoladi.



1-savol. Qachon qabilalar ittifoqi xonlarining qurultoyi Temuchinni buyuk xon deb e'lon qilgan va u Chingizxon deb atala boshlagan?

Javob: 1206-yilda.

2-savol. Mo'g'ullar qadimdan qaysi hududlarda yashashgan?

Javob: Janubiy Sibir, Manchjuriya va Mo'g'uliston.

3-savol. Temuchin qaysi yillarda yashab o'tgan?

Javob: 1155–1227-yillar.

4-savol. Chingizxon davlatining poytaxti qayer bo'lgan?

Javob: Qoraqurum qal'asi.

5-savol. Chingizxon zabt etgan hududlarini qaysi o'g'illariga taqsimlab bergan?

Javob: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy, Tulu.





Tarixiy mushohada

So'nggi paytlarda Chingizxon shaxsiga nisbatan bo'lgan qiziqish yana kuchaydi. Uning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar yozilib, kinofilmlar ishlandi. Lekin bir jihatni unutmasligimiz kerak: biror tarixiy shaxsni ideallashtirishga urinish oxir-oqibat o'tmish haqiqatlarini soxtalashtirishga olib keladi. Bu esa tarix fanining xolislik prinsipiga ziddir.

Yaqin o'tmishda va hozirgi kunda ham Chingizxon shaxsiga qarashlar turlicha bo'lgan. Vatani – Mo'g'ulistonda Chingizxon shaxsi nihoyatda ulug'lanadi, unga buyuk sarkarda, xalq qahramoni sifatida qaraladi. Mo'g'ulistonda ko'plab joy, ko'cha nomlari uning nomi bilan atalgan, hatto pul birligida ham "ulug' xon" tasvirini uchratasiz. Mamlakatning Bogdo-uul tog'ida Chingizxonning bahaybat surati chizilgan. Poytaxt Ulan-Bator shahri va boshqa ko'plab joylarda Chingizxon haykali o'rnatilgan. Albatta, bunga mo'g'ullarning qaysidir ma'noda haqqi bor – buni ushbu shaxs faoliyatini milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan talqin etishning yorqin ifodasi sifatida qabul qilish kerak xolos. Chunki Chingizxon mo'g'ullarni millat, xalq sifatida dunyoga tanitdi. Tarixiy nuqtayi nazardan baho berganda, Chingizxon o'z davrida juda ulkan hududni egallagan markazlashgan davlat barpo etdi.

Chingizxon umrini bosqinchilikka, zulmga bag'ishladi. Imkon qadar o'z sarhadlarini kegaytirishga urindi. Bularning bari boshqa xalqlarni qon qaqshatish, qirg'inbarot yurishlar, obod yurtlarni vayron etish, talash va aholisini qul qilish evaziga yuz berdi.

Uning o'limi va dafn etilgan joyi tarixchilar uchun hanuz sirigicha qolmoqda. Rivoyatda aytilishicha, Chingizxon dafn etilganidan so'ng uning qabri minglab otlar bilan toptalgan va u dafn etilgan joydagi izlar yo'q qilingan.

Chingizxon bosqini sayyoramizdagi mamlakatlar, xalqlar va elatlar tarixini, millionlab insonlar taqdirini, hatto o'lkalarning tabiiy iqlimi va relyefini ham o'zgartirib yuborgan; shahar va qishloqlarni vayronaga, ekinzorlarni xarobazorga aylantirgan. Ayrim shahar va xalqlar esa umuman tarix sahifalaridan yo'qolib ketdi. Mo'g'ullar qadami yetgan joylarda sug'orish tarmoqlarini izdan chiqardi, madaniyat o'choqlarini butunlay yo'q qildi, shunday xunrezliklar qilishdiki, ular hatto asrlar davomida asoratda saqlangan xalqlar uchun vahshiylikning timsoli bo'lib qolishgan.

Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Taqdim etilgan ma'lumotlarga qanday sarlavha qo'ygand bo'lar edingiz?
2. Chingizxon faoliyati va uning olib borgan yurishlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Bugungi kunda Chingizxonga o'z yurti – Mo'g'ulistonda munosabat qanday?
4. Nima uchun Chingizxonning o'limi sababi va dafn etilgan joyi tarixchilar uchun hali ham sirigicha qolmoqda?
5. Chingizxon olib borgan bosqinchilik yurishlari mamlakatlar, xalqlar va elatlar taqdiriga qanday ta'sir ko'rsatdi?

6. "Tinchlik – oliy ne'mat" mavzusida esse yozing va fikrlaringizni sinfdoshlaringiz bilan birgalikda muhokama qiling.





I yarim yillik nazorat ishi savollari

O'quvchilarda tarixiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida yozma tarzda nazorat savollari beriladi.

Namuna:

1-variant

1. German qabilalarining ko'chishlari Yevropa taraqqiyotiga qanday ta'sir etgan?
2. Angliya tarixida anglosaks qabilalari qanday o'rin tutadi?
3. Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi va o'ziga xos davlat boshqaruvi.

2-variant

1. Muqaddas Rim imperiyasining vujudga kelishidagi zarur shart-sharoitlar haqida ma'lumot bering.
2. Islom ta'limoti va undagi mazhablar.
3. Mo'g'ullar davlatining dunyo tarixidagi o'рни haqida o'z fikrlaringizni yozing.

3-variant

1. Buyuk Karlning davlat boshqaruvidagi islohotlari va uning natijalari.
2. Qadimgi slavyanlar turmush tarzi va xo'jaligi.
3. Arab xalifaligining vujudga kelishi.

4-variant

1. Germanlarning G'arbiy Rim imperiyasiga bosqinlari va uning oqibatlari.
2. Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi.
3. Islom dinining vujudga kelishi.

5-variant

1. Franklar qirolligining vujudga kelishi.
2. Yustinian I davrida Vizantiya.
3. Slavyan davlatlarining vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.



**12-MAVZU. HINDISTON – “MING AJOYIBOTLAR MAMLAKATI”**

1-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'riligini (-) aniqlang.

T/r	Ma'lumot	+/-
1	Guptalar imperiyasi IV–VI asrlarda Arabiston yarimoroliga qadar bo'lgan hududlarni birlashtirgan.	-
2	Hindistonda dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan kasta tuzumining qadimgi an'analari saqlangan edi.	+
3	In'om etilgan yer patta (“yorliqqa olingan yer”) deb atalgan, uni olgan kishining asosiy majburiyati doimo harbiy xizmatga shay turish, urushlarda ishtirok etish edi.	-
4	G'azna hukmdori Mahmud XI asrning boshlarida Hindistonning shimoliga 17 marta harbiy yurishlar uyushtirgan.	+
5	Kasta a'zolarini avvalo kasb birlashtirgan, u esa otadan bolaga o'tmagan. Bir kastadan boshqasiga o'tish va turli kasta vakillari orasidagi nikoh mumkin bo'lgan.	-
6	Grass yeridan alohida xizmat ko'rsatganlarni taqdirlash uchun ham foydalanilgan.	-
7	Xarsha davlati XIII asrning boshlarigacha Hindistonda yagona imperiya sifatida saqlanib qolgan.	+
8	O'rta asrlarda Hindistonda kohin-brahmanlar va ibodatxonalarda ham yirik yer maydonlari bo'lgan. O'sha davrga oid manbalarda rojalardan biri ibodatxonalarga 1400 ta qishloqni yer-mulk sifatida in'om etgani yozilgan.	+
9	Guptalar imperiyasi siyosiy jihatdan mustahkam emas edi, shuning uchun VI asrda mamlakat shimoli-g'arbdan kelgan kushonlar hujumlari natijasida parchalanib ketadi.	-
10	O'rta asrlarning boshlanish davrida Hindistonda qullar asosan qishloq xo'jaligi ishlarida xizmat qilgan.	-

2-topshiriq. Darslikdan foydalanib, “Meni top” sharti asosida quyidagi matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni topib yozing.

VII asrda Hindistonda bo'lgan xitoylik tarixchi _____ning yozishicha, unda 70 ga yaqin katta-kichik knyazliklar bo'lgan. Knyaz-rojalar hashamatli saroylarda yashaganlar. Rojalar o'z yaqinlari, amaldorlari va jangchilariga xizmatlari evaziga _____ in'om qilgan. O'rta asrlarda Hindistonda _____ va _____da ham yirik yer maydonlari bo'lgan. O'sha davrga oid manbalarda rojalardan biri ibodatxonalarga _____ni yer-mulk sifatida in'om etgani yozilgan. Rojaning eng yaqin qarindoshlari, nufuzli amaldorlariga, ularning tutgan mavqelariga qarab o'nlab, ba'zida yuzlab qishloqlar berilgan bo'lsa, oddiy _____ga bitta yoki bir qishloqning yarmi ham berilgan. In'om etilgan yer grass (“qultum” yoki “bo'lak”) deb atalgan, uni olgan kishining asosiy majburiyati doimo harbiy xizmatga shay turish, urushlarda ishtirok etish bo'lgan. Rojalar o'z xonadonlariga mansub bo'lmagan amaldorlarga yerni ma'lum xizmat muddatiga berganlar. Yer egaligining bu turi _____ (“yorliqqa olingan yer”) deyilgan. Patta yeridan alohida xizmat ko'rsatganlarni taqdirlash uchun ham foydalanilgan.





3-topshiriq. Hindiston tarixiga oid tushunchalar va ularning izohi mos keluvchi kataklarga “√” belgisini qo'ying.

Izoh	Roja	Patta	Grass	Kasta	Rajput
Yerga egalikning bir turi bo'lib, “yorliq” yoki “yorliqqa olingan yer” ma'nosini anglatadi.		√			
In'om etilgan yer “qultum” yoki “bo'lak” deb atalgan.			√		
O'rta Osiyodan kelgan ko'chmanchi eftaliylar va mahalliy zodagon gujarotlarning avlodlari bo'lgan.					√
Uni olgan kishining asosiy majburiyati doimo harbiy xizmatga shay turish, urushlarda ishtirok etish edi.			√		
Kishilarning ma'lum belgilar: merosiy kasb-kor, etnik va diniy mansubligi, urf-odatlar xilmaxilligi va boshqalar asosida bo'linishi.				√	
Undan alohida xizmat ko'rsatganlarni taqdirlash uchun ham foydalanilgan.		√			
Ular faqat ov va harbiy ish bilan shug'ullanganlar, bu ishlarni kichik yoshlaridan o'zlashtirganlar.					√
O'z xonadoniga mansub bo'lmagan xizmatkorlarga yerni ma'lum xizmat muddatiga berganlar.	√				
Ular yevropalik ritsarlar singari tanalarini po'lat zirhlarga o'ramasdan, faqat yengil sovut kiygan. O'tochar qurollarni qo'rqqoqlar quroli hisoblab, faqat qilich, nayza, xanjarlar bilan jang qilgan.					√

4-topshiriq. Raqamdagi voqealar.

Ko'rsatma. Mavzu bo'yicha tarixiy yillar va asrlardan bir nechta beriladi. O'quvchilar shu tarixiy sanalarda sodir bo'lgan voqealarni yozadi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 balldan beriladi. Ballar tegishli ustunga yozib boriladi.

Masalan:

606–647-yillarda Xarsha hukmronlik qilib, bir qator islohotlar o'tkazish orqali mamlakatni rivojlantirdi.

T/r	Asr yoki yillar	Voqealar	Ball
1	320–340-yillar		
2	IV–V asrlar		
3	IV–VI asrlar		
4	VI asr		
5	VII asr		
6	XIII asr boshlari		
7	XI asrning boshlari		



**5-topshiriq. “FSMU” (fikir, sabab, misol, umumlashtirish) usuli bilan ishlang.****Mulohaza uchun savol: “Guptalar davlati inqirozining sababi nimada edi?”**

F (Fikringizni bayon eting)	S (Sabab ko'rsating)	M (Misol keltiring)	U (Umumlashtiring)

6-topshiriq. “Insert” usuli bilan ishlang.






Ko'rsatma. Mavzu bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni o'qib, o'ng tomondagi ustunlarga quyidagi belgilardan mosini qo'yib, jadvalni to'ldiring: “V” – men bilgan ma'lumot, “+” – men uchun yangi ma'lumot, “-” – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi, “?” – men uchun tushunarsiz, noaniq (aniqlashtirishni talab qiladigan) ma'lumot.

Ma'lumotlar	V	+	-	?
Chandragupta				
Guptalar davlati				
Kastalar				
Eftaliylar				
Knyaz-rojalar				
Grass				
Rajputlar				
Patta				
Xarsha				
Mahmud G'aznaviy				
Dehli sultonligi				
Brahmanlar				
Kshatriylar				
Vayshilar				
Shudralar				
Chandallar				
Kushon imperiyasi				





7-topshiriq. Quyidagi namunaga qarab rasmlarda qaysi kasta vakillari tasvirlanganligini toping va jadvalni to'ldiring.

Rasmlar	Kastaning nomi	Tarkibi
	Kshatriylar	Harbiylar, davlat amaldorlari, yer egalari
		
		
		
		

Javobi: 2) shudralar – xizmatkorlar, qullar; 3) brahmanlar – donishmandlar, hind ruhoniylari; 4) chandallar – “hazar qilinganlar”; 5) vayshiylar – dehqonlar, hunarmandlar.



8-topshiriq. SWOT tahlili bilan ishleng.

Ko'rsatma. Mavzuga doir ma'lumotlarning S – kuchli, ahamiyatli tomoni; W – kuchsiz, ahamiyatsiz tomoni; O – imkoniyatlari; T – xavf-xatari qay darajada ekanligini jadvalda aks ettiring (√) va o'z fikringizni asoslashga harakat qiling.

T/r	Ma'lumotlar	S	W	O	T
1	Hindistonda dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan kasta tuzumining qadimgi an'analari saqlangan edi.				
2	O'rta asrlarning boshlanish davrida Hindistonda qulchilik ham saqlanib qolgan edi.				
3	VII asrda Hindistonda 70 ga yaqin katta-kichik knyazliklar mavjud bo'lgan.				
4	Istilochi eftaliylar mahalliy aholining yuqori toifalari bilan aralashib rajputlar kastasiga asos soladilar.				
5	Guptalar davrida Hindiston jamiyatida yer egaligiga asoslangan feodal tuzum shakllanadi.				



9-topshiriq. Yozuvsiz xarita bilan ishleng. Mavzuga tegishli hudud nomlarini xaritada ko'rsating.





13-MAVZU. XITOIY – “OSMONOSTI IMPERIYASI”: YUKSALISH VA TANAZZULLAR

1-topshiriq. “Omadli raqam” texnologiyasi bo'yicha o'quvchilar o'rtasida mavzuga oid savol-javob o'tkazing.

Ko'rsatma. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Doskaga 1 dan 30 gacha raqamlar yozib qo'yiladi. Guruhlar navbat bilan raqam tanlashadi. Tanlangan raqam doskadan o'chiriladi. Guruh o'quvchilariga tanlangan raqamlariga qarab quyidagi jadvalda belgilab qo'yilgan shu raqamdagi savol beriladi. Savolga javob topgan guruhga jadvalning 3-ustunida belgilab qo'yilgan ball beriladi.

T/r	Savollar	Ball
1	Shimoliy dashtlarning ko'chmanchi qabilalari qachon Buyuk Xitoy tekisligiga qarab siljiy boshlagan? <i>IV–V asrlarda.</i>	3
2	Qaysi shaxslar xitoylik buyuk faylasuflar hisoblanadi? <i>Konfutsiy va Lao Szi.</i>	2
3	Xitoyda Shaolin monastiri ruhoniylari tomonidan yaratilgan jang san'ati nima deb ataladi? <i>Ushu.</i>	2
4	Imperator farmonlariga ko'ra, barcha xitoyliklar nimalarga birlashtirilgan edi? <i>Jamoalarga (qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo sohalari bo'yicha).</i>	4
5	Blits-savollar: 1. 1 mu qancha sotixga teng? <i>6 sotix.</i> 2. Xitoy sivilizatsiyasi yana qanday nomlanadi? <i>Uzoq Sharq sivilizatsiyasi.</i>	6
6	Dehqonga berilgan ekin maydoni evaziga ular davlatga soliq to'lashdan tashqari, yana qanday yumushni bajarganlar? <i>Ommaviy ishlarda mehnat qilish majburiyatini ham olganlar.</i>	3
7	Xitoyliklar ongida chirmashib ketgan uch buyuk ta'limot qaysilar hisoblanadi? <i>Konfutsiylik, daosiylik va buddaviylik.</i>	3
8	Oddiy insonlar imperator bilan qanday muloqot qilishlari shart bo'lgan? <i>Osmon o'g'li bilan faqat tiz cho'kib, ko'zlarini pastga qaratib turgan holda so'zlashishlari shart bo'lgan.</i>	4
9	Insonlar va tabiat munosabatlari masalasini xitoyliklar qaysi ta'limotdan o'rgangan? <i>Daosizm.</i>	2
10	Xitoyda 907–960-yillarda qaysi sulola hukmronlik qilgan? <i>U Day.</i>	2
11	Xitoy imperatorlari o'zlarini kim deb hisoblar edi? <i>Osmon o'g'li.</i>	3
12	Dehqonlarga berilgan ekin maydoni qancha bo'lgan? <i>80 mu bo'lgan.</i>	2
13	Suy sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qilgan? <i>589–618-yillarda.</i>	2



14	Buyuk kanal qaysi daryolarni birlashtirgan? <i>Xuanxe va Yanszi daryolarini birlashtirgan.</i>	3
15	Qaysi asrlarda amaldorlarning suiiste'molliklari va yer tanqisligi tufayli mamlakatda dehqonlar qo'zg'olonlari boshlanadi? <i>X–XII asrlarda.</i>	3
16	Xitoylik dehqonlar o'rta asrlarda qaysi eng yirik ikki majburiyatni o'taganlar? <i>Buyuk kanalni qurish va Xitoy devorini ta'mirlash.</i>	4
17	Xitoy 1279-yilda kimlar tomonidan butunlay istilo etiladi? <i>Mo'g'ullar.</i>	2
18	Xitoyliklar o'rta asrlarda nimalarni ixtiro qilgan? <i>Oppoq va silliq chinni yasash sirini ochgan, iyerogliflar o'yib chiqilgan maxsus taxtachalar yordamida kitob bosishni, poroxni kashf qilgan.</i>	5
19	Xitoy maqolini to'ldiring: "... dengiz singari chuqur, ulardagi suiiste'molliklar esa osmon singari balanddir". <i>Davlat boshqarmalari. (Bonus!)</i>	3+2
20	Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, mansabdor qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak edi? <i>Ta'lim olgan, bilimli, shuningdek, go'zal xulqlarga ega inson ham bo'lishi kerak edi.</i>	3
21	Blits-savollar: 1. O'rta asrlarda Xitoyda eng kam hukmronlik qilgan sulola qaysi? <i>Suy.</i> 2. Daosizm ta'limotiga kim asos solgan? <i>Lao Szi.</i>	6
22	Konfutsiylik ibodatxonalarida Konfutsiyning hikmatli so'zlari bilan bir qatorda yana kimlarning haykalchalari yonma-yon turgan? <i>Lao Szi va Budda. (Bonus!)</i>	3+2
23	Xitoy 1279-yilda mo'g'ullarning qaysi hukmdori butunlay bosib oladi? <i>Xubilay.</i>	2
24	Xitoy o'rta asrlarda qaysi ta'limotga tayangan qudratli davlat bo'lgan? <i>Konfutsiylik ta'limoti an'anasiga.</i>	3
25	Imperatorning kiyimiga qaysi afsonaviy jonzo'ning tasviri tushirilgan? <i>Ajdarho.</i>	2
26	Kimlar adolatli, beg'araz, xalq manfaati uchun barcha narsadan voz kecha oladigan kishi bo'lmog'i lozim edi? <i>Mansabdorlar, amaldorlar.</i>	3
27	Sun sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qilgan? <i>960–1279-yillar.</i>	2
28	O'rta asrlarda amaldor bo'lish uchun imtihon topshiruvchilardan nimalar talab qilingan? <i>Chiroyli iyerogliflar bilan davlat boshqaruvi san'ati bo'yicha insho yozishlari, Konfutsiy va boshqa donishmandlar asarlaridan parchalarni yoddan aytib berishlari, marosimlarni bilishlari va insoniylik sifatlarini ko'rsata olishlari.</i>	5
29	Imperatorning kiyimi odatda qanday rangda bo'lgan? <i>Sariq.</i>	1
30	Turk xoqonligi qaysi hududda vujudga kelgan? <i>Markaziy Osiyoda.</i>	3





2-topshiriq. “Mening juftimni top” sharti asosida so'zlarning mantiqiy juftini topib tarixiy ma'lumot yozing. O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.

Suy	Aholi majburiyati	Ushu	Konfutsiy
80 mu	Buyuk kanal	589–618	1279
Xubilay	Faylasuf	Dehqon	Shaolin monastiri

Namuna: aholi majburiyati, Buyuk kanal.

O'rta asrlarda Xitoyda aholi davlatdan olgan yer evaziga soliq to'lashdan tashqari, turli majburiyatlarni ham bajargan. Ulardan biri Xuanxe va Yanszi daryolarini birlashtirgan Buyuk kanalni qazish bo'lgan.

3-topshiriq. Quyidagi atamalarga ta'rif bering.

Atamalar	Ta'rifi
Loyan	
Daosizm	
Konfutsiylik	
Osmon o'g'li	
Uzoq Sharq sivilizatsiyasi	
Xitoy iyeroglifi	

4-topshiriq. “Ortiqchasini top” o'yini asosida quyidagi ikki ustunda berilgan so'zlar qatoridan bittadan ortiqcha so'zni aniqlang va o'chiring. Qolgan so'zlar asosida tarixiy davrning manzarasini yarating.

Daosiylik	Tan
Budda ibodatxonasi	Loyan
Lao-szi	U Day
Konfutsiy	Sun



5-topshiriq. Quyida berilgan "Tarixiy pasport" o'yining sharti bo'yicha rasmdagi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiring.



Ismi: _____

Yashagan davri: _____

Asarlari: _____

Ilgari surgan g'oyalari: _____

Yaratgan ta'limoti va uning asosiy mohiyati: _____


6-topshiriq. Quyidagi rasmlarda xitoyliklar ixtiro qilgan narsalar tasvirlangan. Ularning nimalar ekanligini aniqlang va ushbu ixtirolar haqida internet manbalaridan mustaqil o'rganing.

Rasmlar	Ixtironing nomi	Ixtiro haqida ma'lumot
	Xitoy qog'ozi	Qog'oz dastlab Xitoyda tayyorlana boshlangan. Xitoydagi bir qator manzilgohlarda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar paytida miloddan avvalgi II-I asrlarga oid qog'oz parchalari topilgan. Xan imperiyasi saroyida ishlagan olim Say Lun mil. avv. 105-yilda imperatorga hisobot taqdim etib, unda qog'oz tayyorlash jarayonini tasvirlab beradi. U qog'ozni daraxt po'stlog'i, kanop qoldiqlari, mato parchalari va baliq to'rlaridan tayyorlagan.



	Kompas	<p>Kompasni xitoyliklar juda qadim zamonlarda ixtiro qilishgan. Xitoylik faylasuf Xan Fey-zi mil. avv. III asrda kompasning tuzilishini shunday tasvirlagan: “Bu kompas tor tutqichli va sharsimon qavariq qismi bo'lgan magnit qoshiqning bir turi bo'lib, u sayqallangan taxta yoki mis taxtachaga birlashtirilgan. Ushbu taxtada asosiy yo'nalishlar ko'rsatilgan. Qoshiq aylantirilib, surish orqali harakatga keltirilgan. Uning o'qi to'xtab, doimo janubga ishora qilgan”.</p>
	Porox	<p>Porox – ko'p komponentli portlovchi moddalarning zichlashtirilgan qattiq aralashmasi. Porox havosiz muhitda barqaror yonib, katta miqdorda qizigan gazsimon mahsulotlar hosil qilish xususiyatiga ega. Poroxning yonishi tashqi bosimning keng oralig'ida issiqlikni qavatdan qavatga o'tkazishga asoslangan.</p>
<p>汉语 漢語</p>	Iyeroglif	<p>Xitoy yozuvi – so'z va birikmalarni yozishda maxsus belgilar – iyerogliflar qo'llanadigan yozuv. Iyerogliflar shakli turli kombinatsiyalarda takrorlanuvchi 1 dan 36 tagacha bo'lgan standart chiziqlardan iborat. Xitoy iyerogliflari yozuv qoidalari qat'iy amal qilgan holda yuqoridan pastga qarab yoziladi. Eng qadimgi iyerogliflar mil. avv. 2-mingyillik o'rtalariga mansub.</p> <p>Xitoy iyerogliflarining umumiy soni 60 mingdan ko'proq bo'lib, hozirgi xitoy tilida taxminan 8–10 ming iyeroglif qo'llanadi.</p>
	Kitob bosish dastgohi	<p>Kitob bosish – bo'yoqni bosma formadan qog'ozga o'tkazib, kitob, jurnal, gazeta va boshqa bosma mahsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish jarayoni. Kitob bosishning o'tmishdoshi ksilografik bosma bo'lib, unda bosiladigan butun bir bet yozuv taxtaga o'yib qo'yilardi. XI asrdan boshlab Xitoyda kitobni qo'lda ko'chirishdan bosish usuliga o'tilgan. Biroq bu usul keng rivojlanmadi. Faqat taxminan 400 yil o'tgandan so'ng Yevropada harf terish shrifti ixtiro qilindi.</p>



	Chinni	Chinni idishlar tayyorlash Xitoyda IV–VI asrlarda paydo bo'ldi. Xitoy kulolchiligining gullab-yashnashi tan sulolasi davrida (milodiy 618–907-yillar) boshlangan. U polixromli sirlarning paydo bo'lishi va turli xil shakllar bilan birga vujudga keldi: vazalar, qopqoqli idishlar, idish-tovoqlar, ko'zalar, kosalar, pardoz-andoz buyumlari uchun idishlar. Ushbu mahsulotlar ko'pincha naqshlar bilan bezatilgan.
---	--------	--

O'rta asrlarda Xitoyda fanning rivojlanishi

O'rta asrlarda Xitoy ilm-fanning bir qator yo'nalishlarida yevropaliklardan ancha ilgari ketgandi. Astronomlar meridian uzunligini aniqladilar; Quyoshda dog'larni topdilar va XIII asrda yil davomiyligining haqiqiy qiymatidan atigi 27 soniya farq qiladigan taqvim yaratdilar.

Xitoy tabiblari o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini yaxshi bilishgan. Ular jenshen idizidan ko'plab kasalliklarni davolash uchun foydalanganlar. Chechakka qarshi emlash Xitoy tibbiyotining katta yutug'i bo'lgan.

Xitoyliklar o'z mamlakati tarixini diqqat bilan o'rganishgan. Xitoyliklarda "O'tmishni unutm, u – kelajakning ustoz" degan naql bor. Har bir imperator hukmronligi davrida uning farmonlari va boshqa hujjatlari kelajakda tarixchilarning mehnatini osonlashtirish maqsadida saqlab qo'yilgan.


Xitoylik sayohatchilar O'rta Osiyo, Hindiston va Indoneziyada bo'lib, ko'plab xalqlarning hayoti va urf-odatlarini yozib qoldirganlar.

Xitoylik kulollar maxsus loy aralashmasidan tayyorlanadigan chinnini ixtiro qilganlar. Xitoylik hunarmandlar "chinni idishlar oynadek tiniq, qog'ozdek yupqa, bongdek jarangdor, quyoshli kundagi ko'idek yarqiroq bo'lishi kerak", deyishgan. Chinni, shuningdek, ipak ishlab chiqarish usuli sir saqlangan.

VI asrda hindistonlik budda rohibi Bodhidharma Xitoydagi Shaolin monastiriga keladi. U monastir rohiblarini qaroqchilar, bosqinchilar va ko'chmanchi qabilalar hujumidan himoyalash uchun maxsus jang usulini ishlab chiqadi. Shunday qilib, Xitoyning jang san'atlaridan biri – **ushu** paydo bo'ladi. Keyinchalik bu jang san'atini ular ruhiy kamolotga erishish yo'li, insonning o'z tanasining yashirin kuchi ustidan nazorat o'rnatishi sifatida tushuntira boshlashadi.

**14-MAVZU. KOREYA O'RTA ASRLARDA****1-topshiriq. "Tarixiy tasavvur" metodi bilan ishlang.**

Ko'rsatma. Mavzu yuzasidan o'quvchilar tasavvur hosil qilishlari uchun quyidagi jadval taqdim etiladi. Ma'lumotlarni ko'rish orqali eslab qolish.



2-topshiriq. "Toj" metodi. Bunda o'qituvchi qog'ozdan toj yasab, unga mavzuga oid bo'lgan atama yozadi. Yozilgan so'zni ko'rsatmagan holda tojni o'quvchining boshiga kiydiradi va so'zga ta'rif bera boshlaydi. Agar o'qituvchi bergan birinchi ta'rifda o'quvchi so'zni topa olmasa, unda jamoasidagi o'quvchilar darslikdan foydalanib so'zga ta'rif berishadi. Bunda berilayotgan ta'riflar murakkablikdan oddiylik tomon olib boriladi.

Koguryo

- Bu davlatda zodagonlar toifasining mavqeyi yuqori ekanligi qirollar nufuzining past bo'lishiga olib kelgan.
- Qirollik odatda ko'pi bilan besh-olti nufuzli oila vakillarining ishi bo'lib, agar hukmdor mustaqil bo'lishga intilsa, uni almashtirish qiyin ish bo'lmagan.
- Qo'shini o'zining jangovarligi bilan ajralib turgan.
- Dastlab poytaxti Kunneson qal'asida bo'lgan, V asrda Pxyenyanga ko'chirilgan.
- Uning asoschisi Jumong (Tonmyon) bo'lgan.



Silla



- Bu qirolikda o'zaro urushlarga chek qo'yilishi, qo'shni davlatlar bilan tinchlik o'rnatilishi mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari rivojiga yo'l ochadi.
- Koreya yarimorolining janubi-sharqida joylashgan.
- 668-yilda Xitoydagi tan sulolasi bilan ittifoq tuzib, Koreya yarimorolini o'z hokimiyati ostida birlashtirgan.
- Dastlab uch qirollik ichida eng zaifi va kam taraqqiy etgani edi.
- VIII asr o'rtalarida bu qirollikning oltin davri boshlanadi. Ushbu davrda davlat o'z taraqqiyoti va qudratining cho'qqisiga erishadi.

3-topshiriq. "Avtofokus" metodi. Ushbu metodni qo'llashda qizil va oq kartochkalar kerak bo'ladi. Dars boshida sinfdagi o'quvchilarning har biriga ushbu kartochkalar tarqatib chiqiladi. Guruh ikki – "oq" va "qizil" guruhlariga bo'linadi. So'ng dars mobaynida to'satdan savol beriladi.

"Qizil kartochkasi borlar o'rnidan tursin", deyiladi va ulardan biriga mavzu yuzasidan biror savol beriladi. Javob topa olishsa, qizil kartochka guruhiga bir ball beriladi.

Keyin yana dars davomida to'satdan: "Oq kartochkasi borlar o'rnidan tursin", deyiladi va yuqoridagi kabi oq kartochkasi bor o'quvchilardan istalgan bir-biriga mavzu yuzasidan savol beriladi. Dars tugaguncha bu jarayon bir necha bor takrorlanadi. Dars so'ngida g'olib guruh aniqlanadi.

Koreya haqida qiziqarli ma'lumotlar

1. Janubiy Koreyada yoshga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi noodatiy bo'lib, bola tug'ilganidan darhol bir yoshga to'lgan, ikkinchi yondashuvda esa boshqa mamlakatlar kabi bolaning yoshi tug'ilgandan keyin hisoblanadi. Oy taqvimiga ko'ra, u allaqachon 2 yoshda. Bundan tashqari, tug'ilgandan 100 kun o'tgach, chaqaloq uchun katta bayram tashkil etiladi.

2. Koreys milliy oshxonasining asosini guruch tashkil etadi, koreyscha "pub".
3. Koreya xalqi o'z davlatini "Hanguk" deb ataydi, bu "Birinchi davlat" deb tarjima qilinadi.
4. Koreyslar o'z mamlakatining asoschisi ayol va ayiqning o'g'li ekanligiga ishonishadi.
5. Koreyslarning eng keng tarqalgan familiyasi Kim.



**4-topshiriq.** Quyidagi xaritada Koguryo, Silla, Pekche qirolliklari hududlarini belgilang va ular haqida tahliliy fikr yuringing.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.



T/r	Yo'nalish tavsifi	Koguryo qirolligi	Silla qirolligi	Pekche qirolligi
1	Davlatning tashkil topishi			
2	Hududiy chegaralari			
3	Hukmdorlari va ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar			
4	Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol			



5-topshiriq. Jumlalarni davom ettiring.

1. Choson mamlakati (koreys tilida “**tonggi tarovat**” ma’nosini bildiradi) ilk koreys davlatidir. Mazkur davlatning asoschisi afsonaviy Tangun bo’lib, u poytaxti Pxenyan bo’lgan Choson qirolligiga asos solgan. Rivoyatlarga ko’ra, _____



2. Qadimgi Choson davlati mil. avv. I asrda o’zaro nizolar, ziddiyatlar hamda xitoyliklar bilan bo’lgan janglar tufayli parchalanib, uch qirollikka _____



3. Koryo qirolligi lashkarboshi Van Gon tomonidan tuzilgan bo’lib, bu sulola mamlakatni 918–1392-yillarda boshqaradi. Bu davrda mamlakat poytaxti _____



4. Koguryo o’z hududini kengaytirish va mustaqilligini saqlab qolish maqsadida nafaqat Koreya yarimorolidagi qo’shni qirolliklarga, shuningdek, _____ qarshi tinimsiz kurash olib borgan.

Javoblar:

1. Samoviy hukmdorning o’g’li shahzoda Xvanun Txeboxsan tog’ida ilohiy maskan qurdirgan.
2. Pekche, Silla va Koguryoga bo’linib ketadi.
3. Sonak (Shimoliy Koreyadagi hozirgi Keson) bo’lgan.
4. Xitoydagi xan, suy va tan sulolalariga qarshi tinimsiz kurashlar olib borgan.

6-topshiriq. 3D metodi. Bu metodning maqsadi matnni samarali yodlash, kerakli ma’lumotlarni eslab qolish va uni tinglovchiga mazmunli yetkazib berishdan iborat. Metodni amalga oshirishda **3 ta** savolga javob berish kerak bo’ladi:

1. Men nimani o’rgandim?

Mavzudan qanday ma’lumotlar o’qish aniqlashtirib olinadi, so’ng yaxshilab o’qiladi. O’qish jarayonida diqqatni jamlashga, chalg’imaslikka va asosiysi tushunishga harakat qilinadi.

2. Men bundan nima oldim?

O’qilgan ma’lumotlardan o’zingizga qanday xulosa chiqardingiz? Nimani tushundingiz va nimani his qildingiz? Ushbu mulohazalar xususida biroz o’ylab ko’ring.

3. Men kimga o’rgataman?

Ma’lumotlarni kimgadir o’rgatishingiz yoki so’zlab berishingiz kerak bo’ladi, bu esa eng muhim bosqich hisoblanadi:

a) do’stingiz yoki oila a’zolaringizga o’rgating;

b) daftarga qayd eting, ilmiy ma’lumotlarni esa savol-javob va test shaklida yozing.

Shu tariqa bu metodni amalga oshirish orqali mavzuni o’zlashtirib olish osonlashadi.

**7-topshiriq. "Grafik test" metodi.**

Ko'rsatma. Bu metoddan asosan 7-sinflarda foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu metod orqali o'quvchilar o'rganilgan mavzudan asta-sekinlik bilan umumiy xulosa chiqarishni o'rgana boshlaydilar. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatadi va oldindan tayyorlangan ma'lumotlarni ketma-ketlikda o'qiydi. O'quvchilar jadvaldagi kataklarni javoblarga mos ravishda bo'yab boradilar. Jarayon yakunida hosil bo'lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

Qirolliklar	Uch qirollik ichida eng zaifi bo'lgan	Koreya yarimorolining janubida paydo bo'lgan	Koreys tilida "tonggi tarovat" degani	1231-yilda mo'g'ullar bosib olgan	V asrda poytaxti Pxenyan bo'lgan
Choson					
Koguryo					
Silla					
Pekche					
Koryo					

8-topshiriq. Boshqotirmada yashiringan yillarni shunday ketma-ketlikda qo'yingki, unda o'rta asrlardagi mavzuga doir va unga yondosh sodir bo'lgan voqealar hosil bo'lsin. So'ng o'sha yillarda bo'lgan voqealarni yozing. Qo'shimcha ravishda mavzuni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

13926681231932

Namuna: 1392, 1932 va hokazo.

- _____
- _____
- _____
- _____


9-topshiriq. Mavzuga oid so'zlarni toping va og'zaki izohlang.

Choson	Uch qirollik	Koguryo	Sonak	Keshik
668-yil	Van Gon	Van In	Nippon	"Tonggi tarovat"
Temuchin	Pekche	III-IV asrlar	Silla	Jumong






10-topshiriq. Koreya yarimorolida davlatlarning paydo bo'lish davriy ketma-ketligini tegishli raqamlarda kataklarga yozing. Shuningdek, mavzuni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.



Javobi:



"Zakovat taym". Mantiqiy savol.

Moviy ko'llari va daryolarining betakror go'zal manzarasi, yam-yashil qarag'ayzorlari tufayli bu mamlakatni qadimdan "Tonggi musaffolik mamlakati" deb atashadi. Bu qaysi mamlakat?

Javob: Koreya.

11-topshiriq. "So'rov tarzidagi jumboq" metodi. Bunda o'quvchilarga mavzu yuzasidan mantiqiy o'ylash va mustaqil o'rganishga undaydigan, o'ylantiruvchi savollar beriladi. O'quvchilarga bunday savollar berish va ularni o'rganishga undash muammolarni hal qilish ko'nikmalarini takomillashtirish hamda tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi – ikkalasi ham muhim hayotiy ko'nikmalardir.

Savollar subyektiv bo'lishi mumkin. Masalan:

1. Miloddan avvalgi I asrda o'zaro nizolar, ziddiyatlar hamda xitoyliklar bilan bo'lgan janglar tufayli parchalanib ketmagan taqdirda Choson davlatining keyingi rivojlanish bosqichi qanday kechar edi?

2. O'rta asrlarda pekchelik tabib, hunarmand va olimlar hozirgi Yaponiyaning ijtimoiy va madaniy hayoti asoslari shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlar. Nima sababdan ular aynan Yaponiyaning rivojlanishi uchun ta'sir ko'rsatgan, boshqa davlatlarga emas?

3. Nima uchun Pekche, Silla, Koguryo qirolliklari qayta birlashish choralarini ko'rmadi?

Bunday savollar o'quvchilarda yangi fikrlarning tug'ilishiga yordam beradi. Ular o'qituvchining e'tiborini his qiladi. Bu esa o'z-o'zidan o'zaro hurmatni oshiradi.



**15-MAVZU. KUNCHIQAR MAMLAKAT – YAPONIYA O'RTA ASRLARDA**

1-topshiriq. “Aql mnemonikasi” metodi. Ushbu metod 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda o'quvchilarga o'tilgan mavzuning muhim ma'lumotlari aks etgan jadval taqdim etiladi va o'quvchi 1–2 daqiqa davomida ushbu ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qiladi. Jadvaldagi ma'lumotlar 9 tadan kam, 15 tadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Xitoyning ta'siri	XIII asr oxiri	Tabiiy ofatlar
VII asr	Busido	Nippon
Xokkaydo oroli	Samuray	Buddaviylik rohiblari
Daymyo	Ikebana	Kunchiqar mamlakat

Ikkinchi bosqichda o'quvchilardan ma'lumotlar jadvali olib qo'yilib, undagi ma'lumotlar zanjir shaklida o'quvchilar tomonidan izohi bilan aytib o'tiladi. Sharti shundaki, birinchi o'quvchi aytgan ma'lumotni ikkinchi o'quvchi takrorlab, o'zi ham qo'shimcha ma'lumot aytadi, uchinchi o'quvchi esa oldingi ikki o'quvchi aytgan ma'lumotlarni takrorlab, o'zi ham qo'shimcha ma'lumot aytishi kerak bo'ladi va shu tariqa qolganlar ham davom etadilar. Ma'lumotlarni chalkashtirib aytsa yoki o'zi qo'shimcha qilolmasa, o'sha o'quvchi o'yindan chiqadi.

Uchinchi bosqichda o'sha jadvaldagi ma'lumotlar yuzasidan lotereya o'yini o'tkaziladi. Bunda o'quvchi o'qituvchi bergan savolning javobini o'sha jadvaldan topib belgilashi lozim. To'g'ri javoblarni belgilagan o'quvchilar g'olib hisoblanadi.

2-topshiriq. “Tushunchalar tahlili” metodi. Mazkur metod o'quvchilar yoki qatnashchilarning mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llanadi.

T/r	Atamalar	Izohi
1	Ikebana	
2	Sunami	
3	Oltin pavilyon	
4	Nippon	
5	Mikado	
6	Syogun	
7	Samuray	
8	Busido	





3-topshiriq. “FSMU” (fikir, sabab, misol, umumlashtirish) metodi.

Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini bildirish va himoya qilishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil qilishga va o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholashga o'rgatadi.

“FSMU” metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Yaponiya taraqqiyotining o'ziga xosliklari



F



M



S



U

O'quvchilarni yoshligidan axborotlarni saralashga o'rgatish ham bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki axborotning oluvchisi, tarqatuvchisi va yaratuvchisi ham aynan siz-u biz tarbiyalayotgan maktab o'quvchisi bo'lishi mumkin. To'g'ri, oldinlari axborot va xabarlarni to'plash va uzatish rasmiy ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilardi, ammo bu hozir chegaralanmagan. Shuning uchun o'quvchilar bu metod orqali ma'lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, baholashni, tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarishni o'rganadilar.





Namuna:



Yaponiya orollarda joylashgani sababli boshqa mamlakatlardan ajralib qolgan.



Ko'chmanchi xalqlar hujumlaridan tabiiy muhofazalangan.



Uning iqlimi dehqonchilik qilish uchun qulay, lekin shu bilan birga, qiyinchiliklarni yengishni talab etardi. Orollarning aksari tog'lardan iborat bo'lganligi uchun ishlov beriladigan yer maydonlari kam edi. Yaponiya go'zal manzarali tabiati bilan ajralib turgan.




Bugungi kundagi Yaponiyaning taraqqiy etishiga, albatta, uning uzoq yillik tarixiy yo'lni bosib o'tganligi, rivojlanish uchun o'z modelini ("yapon mo'jizasi" deb ataladi) ishlab chiqqanligi asos bo'ldi.



4-topshiriq. Piramida metodi.

Raqamlar piramidasidagi har bir raqam ostida mavzuga oid savollar yozilgan bo'ladi. Savollar darajasi pastdan yuqoriga qarab murakkablashib boradi.



1. Yaponiya qaysi davlatning ta'siri ostida edi? *Xitoy.*
2. Yaponiyaliklar xitoyliklardan nimalarni o'zlashtirib olgan? *Choy, sholi, tibbiyot yutuqlari, harbiy ish, iyeroglif yozuvini.*
3. Mamlakat VII asrda qanday nom bilan atala boshlandi? *Nippon.*
4. Yaponiyada qachon qabilalar ittifoqi shakllana boshladi? *IV asrda.*
5. Samuraylar hayotida qanday yozilmagan qonun-qoidalar bor edi? *O'z burchiga sadoqat, jasurlik va sodiqlik g'oyalari.*
6. Qachon Yaponiyani mo'g'ullar Xitoy harbiy kemalari yordamida bosib olishga urinadilar? *XIII asr oxirida.*
7. Yaponiyaga buddaviylik dini qaysi hudud orqali kirib kelgan? *Xitoy.*
8. Mo'g'ullarning Yaponiyani bosib olishiga to'sqinlik qilgan omillar qaysilar? *1) dengiz to'foni; 2) samuraylarning qat'iyati.*
9. Yaponiyada yirik mulkdorlar nima deyilgan? *Daymyo.*

5-topshiriq. Mavzuga oid rasmlar bilan ishleng.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.

Topshiriq. "So'zlar bahsi" metodi.



Bu metod tarix darslarida qo'llanganda bir bob, mavzu va mavzuning qismlari yuzasidan so'zlar bahsini tashkil etish tavsiya etiladi. Tarix darsida o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga doir so'zlarning harflarini chalkash holda keltirib, undan so'z yasash va uning ma'nosini keltirishni topshiradi. Shu tariqa o'quvchining so'z boyligini oshirishga erishiladi. Sinfdan o'quvchilar uch guruhga bo'linib, mavzuning uchta qismi yuzasidan bellashadilar.

Topshiriq namunalari:

- 1-guruh: eanikab, okkxodya, oshli, ibtbityo, ubdydavkili, ipnpon.
- 2-guruh: mipretaor, imakdo, ysognu, imnaomto, akmaukra.
- 3-guruh: ahriby, samruay, ubisdo, o'mg'lu, xiyto.

Topshiriq javoblari:

- 1-guruh: ikebana, Xokkaydo, sholi, tibbiyot, buddaviylik, Nippon.
- 2-guruh: imperator, mikado, syogun, Minamoto, Kamakura.
- 3-guruh: harbiy, samuray, busido, mo'g'ul, Xitoy.

Shu tariqa birinchi guruh "Yaponiyaning geografik joylashuvi"ga doir atamalarni, ikkinchi guruh "Mamlakat taraqqiyotining o'ziga xosligi"ga doir atamalarni, uchinchi guruh "Samuraylar" qismiga oid atamalarni topishi kerak.

Yaponiya haqida qiziqarli ma'lumotlar

- Yaponlarda birvarakayiga uch xil yozuv usuli mavjud: xiragana (yapon so'zlarini yozish uchun bo'g'imlash tizimi), katakana (o'zlashtirilgan so'zlarni yozish uchun bo'g'imlash usuli) hamda kandji (iyeroglif yozuvi).
- Yapon tilida yil oylarining nomi yo'q. Buning o'rniga ular oylarni raqamlar bilan belgilaydilar, masalan, sentyabr oyi *to'qqizinchi oy* deb ataladi.
- Tokio dunyodagi eng xavfsiz megapolisdir. Tokio shunchalik xavfsizki, olti yashar bolalar jamoat transportidan mustaqil ravishda bemalol foydalana oladi.
- Yaponiyada imzo o'rniga maxsus shaxsiy muhr bosiladi. Bunday muhr har bir yaponiyalikda bor va undan kun davomida ko'p marta foydalaniladi. Uni istalgan do'kondan sotib olish mumkin.
- Yaponiya poyezdlari kechikmaydigan yagona mamlakatdir.



**16-MAVZU. AMERIKA O'RTA ASRLARDA****1-topshiriq. "Ortiqchasini top" o'yini.**

Ko'rsatma. Ushbu metodni qo'llash uchun o'qituvchi muayyan mavzuga doir atamalar, toponomik tushunchalar ro'yxatini tuzadi. Har bir ro'yxatga bittadan ortiqcha, ro'yxat tasnifiga alaqador bo'lmagan ma'lumot kiritilgan bo'ladi.

Namuna:

1. Yukatan yarimoroli.
2. "Buyuk kishi".
3. Chichen Itsa.
4. Nolni anglatuvchi belgi.
5. Kohinlar muhim o'rin egallagan.
6. Asosiy ekin – makkajo'xori.

1. Tenochtitlan.
2. "Suzuvchi dalalar".
3. Kusko.
4. Tlatoani.
5. Qadalma naqshlar.
6. Shoir-qo'shiqchilar musobaqasi.

1. Tugunli xat.
2. Kusko.
3. Oliy inka.
4. Aniq taqvim 12 oyga bo'lingan.
5. Mozaika.
6. "Quyoshning o'g'li".

2-topshiriq. Matn bilan ishlash. O'quvchilarga mavzuga oid matnlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar matnlardagi tushirib qoldirilgan tushunchalarni yozib, ularni izohlashlari kerak bo'ladi.

Markaziy Amerikaning _____ yarimorolida (hozirgi Meksika) qadimdan mayya xalqlari yashab kelgan. Milodiy _____ mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi. Ularning har birini _____ – hukmdor boshqargan, uning hokimiyati merosiy bo'lgan.

Mayyalarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida yozuvni yaratish imkonini beradi. _____ qilqalam bilan iyerogliflar bitib, rasmlar bilan bezatganlar. Mayyalar hayotida kohinlar muhim o'rin tutgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab berganlar. Mayyalar eng aniq _____ lardan birini yaratganlar. Matematikaga "nol"ni anglatuvchi belgini mayyalar hindlardan avval kiritgan. Mamlakat poytaxti _____ da rasadxona qurilgan.

Tushirib qoldirilgan tushunchalar: *Yukatan; I mingyillikda; "buyuk kishi"; kohinlar; taqvim; Chichen Itsa.*

_____ning And tog'lari yonbag'irlaridagi vohalarda Inklar davlati vujudga kelgan. _____ tillarida so'zlashuvchi inklar XII–XIII asrlarda _____ daryosi havzasida Kusko shahriga asos soladilar.

Inklar boshqa qabilalar yerlarini bosib olib, And tog'laridan Tinch okeangacha bo'lgan ulkan hududda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. Bu davlatni _____ boshqargan. U "Quyoshning o'g'li", quyoshning yerdagi ramzi sanalgan. Aholi, shuningdek, turli tabiat kuchlari, _____ ilohlariga ham e'tiqod qilgan. Bosib olingan hududlar aholisiga inklar o'z tartiblarini, madaniyatlarini o'tkazganlar. Natijada dastlab qabila nomi bo'lgan _____ atamasi hukmron toifa – zodagonlarning umumiy nomiga aylangan.

Tushirib qoldirilgan tushunchalar: *Janubiy Amerika; kechua; Urubamba; oliy inka; yer va suv; ink.*



**3-topshiriq. Moslashtiring.**

T/r	Tushuncha		Izoh
1	Kipu	A	U "quyoshning o'g'li", uning yerdagi ramzi sanalgan.
2	Kusko	B	Bu yerda har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo'shiqchilar musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar mukofotlangan.
3	Oliy inka	C	Inklarning o'ziga xos "tugunli xati" bo'lib, uning sirlari faqat ruhoniylarga ma'lum edi.
4	"Suzuvchi dalalar"	D	Inklar davlatining poytaxti.
5	Tenochtitlan	E	Uni atsteklar yer taqchil bo'lgani uchun yaratganlar. Bu o'ziga xos ekinzorlardan yiliga bir necha marta hosil olingan.

Javoblar: 1) C; 2) D; 3) A; 4) E; 5) B.

4-topshiriq. "Insert" metodi. Bu metod o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirib olganliklarini bilib olish uchun qo'llanadi.

V	O'qiyotgan matningizda bildirilgan fikrlar sizga ma'lum, siz ularni bilsangiz, bilaman deb o'ylagan fikringizga mos kelsa, "V" belgisini qo'yasiz.
+	Agar o'qiyotgan matningizda siz uchun yangiliklar bo'lsa, "+" belgisini qo'yasiz.
-	O'qilayotgan jumlar sizning bilimingizga qarama-qarshi bo'lsa yoki bilaman deb o'ylaganingizga mos kelmasa, "-" belgisini qo'yasiz.
?	O'qilayotgan jumlar sizga tushunarli bo'lmasa, ya'ni uni tushunish uchun qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinsa, "?" belgisini qo'yasiz.

V	+	-	?
Mayya davlati			
Markaziy Amerikaning Yukatan yarimorolida (hozirgi Meksika) qadimdan mayya xalqlari yashab kelgan. Milodiy I mingyillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi. Ularning har birini " buyuk kishi " – hukmdor boshqargan, uning hokimiyati merosiy bo'lgan.			
Atsteklar davlati			
Atsteklarda yer taqchil bo'lganidan, ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda "suzuvchi dalalar" ham yaratganlar. Bu o'ziga xos ekinzorlardan yiliga bir necha marta hosil olingan.			
Inklar davlati			
Inklardan bo'lmagan aholi jamoa bo'lib yashab, hukmron toifa uchun ishlagan. Jamoa dehqonlar oilalaridan tashkil topib, ularning har biriga ma'lum yer, ekin maydoni birlashtirib qo'yilgan.			






5-topshiriq. To'g'ri-noto'g'ri o'yini. Mavzuga oid tarixiy ma'lumotlar to'g'ri berilgan bo'lsa "to'g'ri", xato berilgan bo'lsa "noto'g'ri" deb yoziladi.

T/r	Tarixiy ma'lumotlar	To'g'ri / Noto'g'ri
1	Kechua, mayya, atstek, olmek va toltek qabilalari toshboltalar bilan o'rmondagi daraxtlarni kesib, shox-shabbalarini yondirib, kulidan o'g'it sifatida foydalanishgan.	To'g'ri
2	Markaziy Amerikaning Yukatan yarimorolida (hozirgi Meksika) qadimdan mayya xalqlari yashab kelgan. Milodiy II mingyillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi.	Noto'g'ri
3	Atsteklarda hunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, mis va oltindan zargarlik buyumlari yasash sohalari yaxshi rivojlangan. Ayni paytda ular temir ma'danini bilmagani sababli bolta va pichoqlarni toshdan yasashda davom etgan. Zargarlar qimmatbaho toshlarga ishlov berib, qadama naqshlar (mozaika) yasab, saroy va ibodatxona devorlarini bezashgan.	To'g'ri
4	Poytaxt Tenochtitlanda zodagonlarning farzandlari va oddiy xalq bolalari uchun alohida-alohida maktablar bo'lgan. Xalq bolalari uchun maktablarda dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy ish o'rgatilgan. Zodagonlarning farzandlari esa tarix, husnixat, o'qish, hisoblash, astronomiya, she'riyat, notiqlik san'atlari asoslarini o'rganishgan. Tenochtitlanda har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo'shiqchilar musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar mukofotlangan.	To'g'ri

6-topshiriq. Venn diagrammasi bilan ishleng.

Ko'rsatma. Amerika xalqlariga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi va solishtiriladi hamda umumiy jihatlari aniqlanadi.



Atsteklar

1. Markaziy Amerikaning hozirgi Meksika hududida yashagan.
2. XII asrda Tenochtitlan shahriga asos soladilar.
3. Atsteklarda yer taqchil bo'lganidan, ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda "suzuvchi dalalar" ham yaratganlar.
4. Atsteklar urug'-jamo'a bo'lib yashaganlar.
5. Hukmron qabila vakillaridan tlatoani – lashkarboshi saylanib, u oliy hukmdor bo'lishdan tashqari, bosh kohin vazifasini ham bajargan.

Umumiy jihatlari

1. Dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.
2. O'zlarining davlatlarini barpo etganlar.
3. Markaziy Amerikada istiqomat qilishgan.

Mayyalar

1. Markaziy Amerikaning Yukatan yarimorolida (hozirgi Meksika) yashagan.
2. Milodiy I mingyillikda mayyalarda shahar-davlatlar vujudga keladi.
3. Mayyalarining iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida yozuvni yaratish imkonini beradi.
4. Mayyalar hayotida kohinlar muhim o'rin tutgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab berganlar.
5. Matematikaga "nol"ni anglatuvchi belgini mayyalar hindlardan avval kiritgan.

7-topshiriq. "Rasmlarda tarix".

Ko'rsatma. Bunda mavzuga oid suratlar taqdim etiladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'z fikrini mustaqil bayon etadi va qolgan o'quvchilar bilan bahs-munozaraga kirishadi. O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir.

O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.





8-topshiriq. "FSMU" (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi.

Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini bildirish va himoya qilishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil qilishga va o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda baholashga o'rgatadi.

"FSMU" metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

O'rta asrlarda Amerika xalqlari (atstek, mayya va inklar) xo'jaligi va ular asos solgan davlatlar

F (fikringizni bayon eting)	S (sabab ko'rsating)	M (misol keltiring)	U (umumlashtiring)



9-topshiriq. Xarita bilan ishleng. Ink, mayya, atstek qabilalari yashagan hududlar hozir qaysi davlatlarga to'g'ri keladi?





10-topshiriq. O'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriq.

KONKURS TIPIDAGI O'YIN – “TARIXIY AUKSION”

Oldindan beriladigan topshiriqlar. Sinf oldindan qator bo'yicha uch guruhga bo'linadi: auksionda bir guruh atsteklarni ko'rsatsa, boshqasi inklarni, yana biri mayyalarni ko'rsatadi. Ular o'zlariga topshirilgan vazifa bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ham tanishib chiqadi, so'ng o'zlari ko'rsatgan xalq joylashgan hududni xaritadan topib belgilaydi.

Kirish qismi. O'qituvchi “Tarixiy auksion” alohida ahamiyatga ega o'yin turi ekanligini aytadi. Asosan auksionlarda qimmatbaho narsalar sotiladi: dastlab ular baholanadi, keyin boshlang'ich narx qo'yiladi va shundan so'ng savdo boshlanadi. Bizning auksion intellektualdir. Buyum haqida eng ko'p ma'lumot bilgan o'quvchi yoki guruh yutadi. Odatiy auksiondagidek, dastlab buyum namoyishga qo'yiladi. U haqda qisqacha ma'lumot beriladi. So'ng savdo bo'lib o'tadi: kim bu buyum haqida ko'proq ma'lumot biladi? Hay'at a'zolari baholab borishadi.

Auksion oldidan dastlab mashq o'tkazib olinadi: uchala guruh o'z cheklariga tushgan xalqlar haqida gapirib berishadi. Ularga oldindan boshqa topshiriq berib qo'yilgan bo'lishi ham mumkin.

O'yinning asosiy qismi.

1-shart. Guruhlar tomonidan mamlakatning tanishtirilishi.

Mayyalar

Mayya qabilalarini Amerikaning Kolumbgacha bo'lgan davri daholari deyishgan. Yevropaliklar birinchi duch kelgan xalqlar – shular. Ziroatchilik – makkajo'xori, shirin kartoshka, pomidor, qovoq, loviya, kakao, qalampir, qovun, avokado, vanil, non daraxti yetishtirish bilan shug'ullanishgan. Shuningdek, tamaki hamda paxta ham yetishtirishgan. Nonni *tortilyas* deb atashgan. Loviya, qovoq, pomidordan yovg'on qaynatishgan, makkajo'xoridan bo'tqa, kakao donlaridan qaynoq shokolad, daraxt po'stlog'idan ichimlik – *balche* tayyorlashgan.

Mayyalar it, kurka, bo'rsiq, bug'ularni qo'lga o'rgatish bilan birga ularni iste'mol ham qilishgan. Bundan tashqari, qo'ziqorin hamda hasharotlar – chumoli, chigirtka, ipak qurtini ham iste'mol qilishgan. Ular turli o'simliklarning xususiyatlarini ham bilishgan.

Mayyalar kulolchilik, zargarlik bilan shug'ullanib, me'morchilikda katta yutuqlarga erishgan: yuqorisida ibodatxona bo'lgan qirrali piramidalar, saroy, maydonlar, yo'llar qurishgan. Mayyalar o'z yozuvlariga ega bo'lishgan, ular birinchi bo'lib 0 ni sanoq sistemasiga kiritishgan, 365 kundan iborat taqvim tuzishgan (aniqlik bo'yicha eng oldingi o'rinlarda turadi). Har bir oy qishloq xo'jaligi ishlari hamda tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lgan: yanvar – “makkajo'xori yig'imi”, iyun – “bulutli”, avgust – “momaqaldiroq” va boshqalar.

Mayyalar 400 xil dori (deyarli barcha kasalliklarga davo) turini, qon olishni, bug'li vannalarni bilishgan, mohir jarroh bo'lishgan, jarohatlarni soch bilan tikishgan. Mayyalar chiroy haqidagi o'z qarashlariga mutanosib ravishda o'zlarini tatuirovkalar bilan bezashgan, ataylab g'ilaylikni shakllantirishgan.

Atsteklar

Atsteklar xo'jaliklarining asosi dehqonchilik hisoblangan, asosiy iste'mol mahsuloti esa makkajo'xori bo'lgan. Ular qovoq, pomidor, shirin kartoshka, tamaki, paxta yetishtirishgan. O'zidan pushti bo'yoq ajratadigan hasharotlar – koshenil keladigan kaktuslarni yetishtirishgan. Agava o'simligidan arqon va ichimlik, kakao donlari hamda qalampirdan esa suyuq





shokolad tayyorlashgan.

Atsteklarda to'pni halqadan o'tkazish o'yinlari bo'lgan. Ular temirni bilishmagan. Mis bo'laklari hamda kakao donlari pul vazifasini bajargan. Ular kuchukchalar, kurka, g'oz, o'rdaklarni boqishgan. Ov atsteklar hayotida ahamiyatga ega bo'lmagan, shuning uchun ular vegetarian bo'lishgan.

Ular quruvchilik, kulolchilik hamda zargarlik sohalarida katta yutuqlarga erishganlar. Patlardan tayyorlangan mahsulotlari bilan mashhur bo'lishgan. Mashhur inshootlari – piramidalar, g'ishtdan, toshdan qurilgan poydevorli uylar, hukmdor saroylari saqlanib qolgan. Ular birinchi bo'lib hayvonot bog'lariga asos solishgan. 365 kundan iborat o'z taqvimlarini tuzishgan. 1 dan 19 gacha sanashgan va piktografik yozuvga ega bo'lishgan.

Inklar

Inklar dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. O'simliklarning 100 xil turini bilishgan: ananasdan tortib paxtagacha. Asosiy madaniylashtirgan ekinlari – kartoshka va makkajo'xori. Inklar sabzavot, chacha pivosi, dengiz cho'chqasini tanovul qilishgan. Terisi hamda juni uchun uy hayvoni sifatida lamalarni boqishgan. Sut iste'mol qilishmagan, ammo ba'zi hollarda go'sht yeb turishgan. Lamalardan yerga ishlov berishda foydalanishgan. Ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishgan.



Inklar konchilik, metallurgiya, qurolsozlik, to'qimachilik (jun va paxtadan) sohalarida ancha ilgari ketishgan. Ularda to'qimachilik, zargarlik, tugunli xat – kipu rivojlangan. Ibadatxonalar, uylar, saroylar, qal'alar – barchasi mustahkam toshdan qurilgan. Inklar yo'l, ko'priklar, saroy, qurol omborlari qurishgan, choparlar xizmatiga ega bo'lishgan. Astronomiya bilan shug'ullanishgan. 365 kundan iborat o'z taqvimlarini tuzishgan, o'z uzunlik o'lchov birliklari bo'lgan, xaritalar tuzishgan. Hisoblashda hisob taxtasi va dumaloq toshlardan foydalanishgan. Ko'p kasalliklarni davolashni bilishgan.

Inklar xati – kipu tugunli arqonlardan iborat bo'lib, tugunlarga iplar bog'langan. Iplar rangi ramziy ahamiyat kasb etgan: jigarrang – kartoshkani, sariq – oltinni, qizil – jangchini anglatgan. Maktabda shunday o'rgatishgan. Inklar omochni, kulolchilik charxini, harakatlanish vositalarini bilishmagan.

2-shart. Har bir guruh auksionda qatnashib, o'z bilimlari bilan u yoki bu buyum, o'simlik yoki jonivorni sotib oladi. Buning uchun mazkur o'simlik yoki hayvon qay tarzda Yevropaga kelib qolgani, bu yerda tarqalgani haqida aytishlari kerak.

Buyumlar: *mushket (pilta miltiq turi), kompas, karavella (uch yoki to'rt mactali yelkanli kema), to'pponcha, karabin (qisqa stvulli miltiq).*

O'simlik va hayvonlar: *kartoshka, pomidor, qalampir, loviya, makkajo'xori, eritilgan shokolad, tamaki, kurka.*



11-topshiriq. “Mayyalar davlati va uning tarixda tutgan o‘rni” mavzusida esse yozing. Esse yozish uchun e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar: davlatning paydo bo‘lishi, qabila yashagan hududlar, dehqonchilik va chorvachilik, davlat aholisi, ixtirolari.



“Atsteklar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol” mavzusida esse yozing. Esse yozish uchun e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar: Atsteklar davlatining vujudga kelishi, o‘ziga xos xususiyatlari, dehqonchilik va chorvachilik, davlat tarixining qay darajada o‘rganilganligi.



“Inklarning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi” mavzusida esse yozing. Esse yozish uchun e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar: inklarning ixtirolari va ularning ahamiyati, davlat boshqaruvi, jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi.







II BOB BO'YICHA TAKRORLASH

1-topshiriq. "Tarixiy pasport" o'yini.

Ko'rsatma. Quyidagi rasmda tasvirlangan tarixiy shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiring.

1. Tarixiy shaxsning to'liq ismi:

2. Yashagan davri:

3. Tug'ilgan joyi:

4. Harbiy yurishlari:

5. Jahon tarixida tutgan o'rni:



2-topshiriq. Keltirilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri / Noto'g'ri
1	Arabistonning yuksak rivojlangan viloyatlari Yaman va Hijoz bo'lgan. Yaman unumdor yerlari, mevali bog'lari, xurmozorlari bilan nom qozongan. Arablarda Yaman "haq", "baxtli" ma'nolarini bildirgan. Hindistondan Vizantiyaga ziravorlar, ipak gazlamalar, marvarid va boshqa narsalar tashiladigan yo'l ustida joylashganligi bois Hijoz va Yamanning dengiz sohillarida shaharlar vujudga kelgan.	To'g'ri
2	Umar (634–644) davrida Vizantiya qo'shinlari mag'lub etilib, bir necha yilda Suriya, Falastin, Misr, Eronning katta qismi va O'rta Yer dengizining Afrika sohillari zabt etiladi. Uning davrida soliq-o'lpon tizimi tuzilib, devon ro'yxatiga kiritilgan barcha davlat xizmatchilariga maosh to'lash tartibi bekor qilindi.	Noto'g'ri
3	Xalifalikdan ilk mustaqil amirlik Ispaniyada 756-yili ajralib chiqadi. U X asrdan Qurdoba (Kordova) amirligi deb atala boshlaydi. IX asrdan Misr, Eron, Movarounnahr va Xuroson mustaqillikka erishadi.	To'g'ri



4	Saljuqiylar turkiy o'g'uz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog'iston hududi va Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda yashaganlar. Ular ko'plab urug'-qabilalarga bo'linib, ko'chmanchi hayot kechirganlar.	To'g'ri
5	Saljuqiylarning eng mashhur harbiy vaziri Nizomulmuluk bo'lib, u davlat boshqaruv asoslariga oid "Siyosatnoma" asarini yozib qoldirgan.	Noto'g'ri
6	Mo'g'ul qabilalari orasidagi o'zaro urushlarda Temuchin (1155–1227) g'olib chiqadi. 1206-yilda Onon daryosi bo'yidagi qurultoyda u ulug' xon deb e'lon qilinadi. Bosh shomon butun xalq oldida Temuchinga Chingizxon unvonini beradi. Chingiz so'zi "kuchli", "qudratli", "toza" ma'nolarini anglatadi.	To'g'ri
7	1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni uluslarga bo'lib, o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga taqsimlab beradi. Jo'jini taxt vorisi etib tayinlaydi.	Noto'g'ri

3-topshiriq. Solishtirish metodi.

Ko'rsatma. Ushbu metod tarix fanida qo'llanganda tarixiy shaxslar, predmetlar va voqealar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlashga xizmat qiladi. Quyida o'quvchilar Saljuqiylar davlati va Arab xalifaligini o'zaro solishtiradilar.

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.






2. Arab xalifaligining vujudga kelishi.



4-topshiriq. "Marra tomon olg'a" savol-javob o'yini.

II bob mavzulari yuzasidan "Marra tomon olg'a" savol-javob o'yini o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha bir guruh o'quvchilar uylarida o'zlari tuzib kelgan savollarni boshqa guruhga beradilar. Bilim cho'qqilarini zabt etish uchun marra tomon olg'a!

Izoh. Shakl ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o'quvchilar birin-ketin savolga javob beradi. Savolga noto'g'ri javob bergan yoki umuman javob bera olmagan o'quvchi yo'lda qoladi, to'g'ri javob topa olgan olgan o'quvchi marra tomon ketaveradi.



Savollardan namunalar:

1. Arabistonning yuksak rivojlangan viloyatlari qaysilar?
2. Arablar qachon yagona davlatga birlashdi?
3. Badaviylar ijtimoiy tuzumining o'zgarishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
4. Xulafoyi roshidinlar kimlar?
5. Xalifa Umar zamonida qaysi hududlar Arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olindi?
6. Abbosiylar sulolasining eng mashhur xalifasi kim?
7. To'g'ri yo'ldan borgan dastlabki to'rt xalifalar qanday nomlanadi?
8. Saljuqiylar sulolasi qaysi davrlarda hukmronlik qilgan?
9. Chingizxonning nabirasi Botuxon qachon Sharqiy Yevropada bosqinchilik yurishlarini olib bordi?
10. Hindistonda kasta a'zolarini nima birlashtirgan?



III BOB. O'RTA ASR XALQLARINING IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR

17-MAVZU. O'RTA ASRLARDA XRISTIAN OLAMIDA SODIR BO'LGAN O'ZGARISHLAR

1-topshiriq. Yevropada xristian dini tarqalishining davriy izchilligini raqamlar orqali ko'rsating.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.

A) Franklar qiroli Xlodvig tomonidan qabul qilinishi	1
B) Kiyev Rusi va Bolgariyaga tarqalishi	2
C) german qabilalari orasida tarqalishi	3
D) Yevropada xristianlik dini tarqalishining boshlanishi	4

Javoblar:

1	2	3	4
C	D	A	B

2-topshiriq. “Meni top” o'yinining shartiga ko'ra, tushirib qoldirilgan so'zlarni topib, matnni to'ldiring.

Yevropada _____ asrda boshlangan yer egaligi munosabatlariga o'tish jarayonidan cherkov ham chetda qolmaydi. Ekinzorlarning uchdan bir qismi _____ va _____lar qo'lida to'planadi. Davlat soliqlaridan ozod etilgan bu yerlarda cherkovdan ijaraga yer olgan yuz minglab qaram dehqonlar mehnat qilganlar

Undan tashqari, xristian cherkovi aholidan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida soliq undirgan. Aholi bolani cho'qintirganda, nikohdan o'tganda, marhumga ta'ziya marosimi o'tkazganda va boshqa udumlar uchun ham pul to'lagan. Cherkovga tushadigan daromadning ancha qismi _____ xazinasiga yuborilgan. Bulardan tashqari, katolik cherkovi _____ (lotincha, “afv”) – papa tomonidan kishilarga qilgan va hali qilmagan gunohlarini kechish uchun pulga sotilgan yoki katolik cherkovi oldidagi xizmatlari evaziga berilgan yorliqlarning hisobiga ham boyigan.


Yevropada cherkov davlatning muhim tashkilotiga aylanib, uning siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga aralashgan, sud vazifasini ham bajargan. _____ qo'llagan jazolarning eng






to'g'ri interdikt – mamlakatda ibodat va marosimlarning vaqtinchalik taqiqlanishi bo'lgan. _____ (1198–1216) papaligi davrida katolik cherkovi o'z qudratining cho'qqisiga chiqadi. Papaning “Oy o'z yog'dusini _____dan olganidek, qirol hokimiyati o'z jilosini papalikdan oladi” degan so'zlari amalda bo'lgan. Rim papasi german, fransuz va ingliz hukmdorlarini interdikt orqali tavba-tazarru qildiradi. Aholiga o'z hukmini o'tkazishda papa rohiblarga tayangan.

3-topshiriq. “Xronologiya o'yini” metodi. Raqamlarni to'g'ri tartibda joylashtirib tarixiy sanani toping va shu sanada sodir bo'lgan mavzuga doir muhim voqeani yozing.



Namuna: 1223.


Mo'g'ullar 1223-yilda rus yerlariga bostirib kiradi.



1054 _____



1198 _____



1227 _____

4-topshiriq. Atamalarga izoh bering.

T/r	Atamalar	Izoh
1	Autodafe	
2	Inkvizitsiya	
3	Papa	
4	Indulgensiya	
5	Yeretik	
6	Interdikt	

5-topshiriq. Kichik guruhlariga bo'linib, jadvalni to'ldiring.

Ko'rsatma. Ushbu topshiriqda mavzuga doir ba'zi tarixiy tushunchalar orqali o'quvchilar ongida zo'ravonlikka qarshi kurashish, insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.



Suratlar	Tushunchalar	Tushunchalar ta'rifi
	Yeretiklar	Ular cherkov va uning ta'limotiga qarshi kishilar bo'lib, o'zlarini "sof xristianlar" deb atagan. Bunday kishilar cherkovning boyliklari, hashamatli udum-marosimlariga qarshi chiqib, sodda cherkov g'oyasi tarafdorlari bo'lishgan.
	Indulgensiya	Papa tomonidan kishilarga qilgan va hali qilmagan gunohlarini kechish uchun pulga sotilgan yoki katolik cherkovi oldidagi xizmatlari evaziga berilgan yorliq.
	Inkvizitsiya	Rim papasi tomonidan yeretiklarga qarshi kurashish uchun cherkov sudi – inkvizitsiya (lotincha, "qidiruv") tuziladi. Shu tariqa inkvizitsiya xristian cherkovi dushmanlarini izlab topish va jazolash bilan shug'ullangan.
	Rim papasi	Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy Rimga ajralishi cherkovning ham bo'linishiga olib keladi. Frank qiroli ko'magida 756-yilda Italiyada Rim papalari davlati – Papa viloyati tashkil topadi. Rim papasi G'arbiy Yevropadagi barcha xristianlarning diniy rahnamosi sifatida diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan hukmronlik qilgan.



6-topshiriq. Boshqotirmadagi raqamlarni shunday ketma-ketlikda qo'yingki, o'rganilayotgan mavzuga doir voqealar sanasi – yillar hosil bo'lsin. So'ng o'sha yillarda sodir bo'lgan voqealarni yozing. Mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va darsni qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

12411987121661054

Namuna: 1198, 987.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____

7-topshiriq. "Tarixiy pasport" o'yini.

Ko'rsatma. Quyidagi rasmda tasvirlangan tarixiy shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiring.

Ismi: _____

Unvoni: _____

Hukmronlik yillari: _____

Amalga oshirgan ishlari: _____

Sevimli iborasi: _____





Topshiriq. Jadvaldagi bo'sh joylarni to'ldiring va ma'lumotlarni umumlashtirib tushuntirib bering. Mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va darsni qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

Voqealar	Shaxs	Yillar
Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy Rimga ajralishi cherkovning ham bo'linishiga olib keladi. Frank qiroli ko'magida Italiyada yangi davlat – Papa viloyati tashkil topadi.	Rim papalari	
Frank qabilalari xristianlikni qabul qildi.		V asrning oxiri
Xristian cherkovi dushmanlarini izlab topish va jazolash bilan shug'ullangan. Inkvizitsiya uning davrida o'z qudratining cho'qqisiga chiqqan.	Papa Grigoriy IX	
Uning davrida katolik cherkovi o'z qudratining cho'qqisiga chiqadi. U german, fransuz va ingliz hukmdorlarini interdikt orqali tavba-tazarru qildiradi. Aholiga o'z hukmini o'tkazishda rohiblarga tayangan.		1198–1216-yillar
Sharqiy Yevropada bolgarlarni xristian diniga o'tkazishdagi raqobat cherkovni rasman ikki: g'arbiy – katolik ("jahon") va sharqiy – pravoslav ("sof din", "chin e'tiqod") cherkovlariga bo'linishiga olib keladi. Shundan boshlab hozirgi kunga qadar rim-katolik va yunon-pravoslav cherkovlari mustaqil faoliyat yuritib kelmoqda.	Rim papasi va Konstantinopol patriarxi	



Tarixiy mushohada

Yevropada inkvizitsiya – cherkov sudi tomonidan aybdor deb topilgan yeretiklarga nisbatan ko'pincha gulxanda yondirish – "autodafe" (portugalcha, "e'tiqod" yoki "din ishi") jazo chorasi qo'llangan. Yeretik maydonga olib chiqilib, xalq oldida ustunga bog'lanib, yoqib yuborilgan. Olov yonib ketgan odamning ruhini yomon tanadan va uning gunohlaridan tozalashiga ishonishgan.

Aziz o'quvchi! Yevropadagi ushbu voqelikning kelib chiqishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?



**18-MAVZU. SALIB YURISHLARI**

1-topshiriq. Tarixiy tasavvuringiz yordamida quyida berilgan rasmlar ketma-ketligidan foydalanib Klermon soborida uyushtirilayotgan salib yurishlarining boshlanish jarayonlarini tasvirlang.



Papa Urban II nutq so'zlamogda.



Klermon sobori, 1095-yil 26-noyabr.



Vizantiya imperatorining xristianlar dushmanlari bilan kurashish uchun jangchilar yuborishini so'rab qilgan murojaatiga ko'ra, Urban II 1095-yilda Fransiyaning Klermon shahridagi cherkov yig'inida nutq so'zlaydi. U Quddusdagi "payg'ambar qabrini" musulmonlardan ozod etishga chaqiradi. Papa yurishda ishtirok etganlarga ularning gunohlari kechirilishini, halok bo'lganlar ruhining jannatga – "arshi a'loga" tushishini va'da qiladi. Urban II Falastin – "muqaddas yer"ning boyliklari va hosildor ekanligini ham eslatib o'tadi. Ular matodan "xoch", ya'ni salib shaklini qirqib, o'z kiyimlariga tika boshlaydilar. Ayni shu sababli yurish qatnashchilari "salibchilar", yurishlarning o'zi esa "salib yurishlari" nomini oladi.

2-topshiriq. Salib yurishlari ishtirokchilari va ularning maqsadlarini o'zaro moslashtiring.

1	Dehqonlar	A	Ular o'zlariga yangi hududlar va fuqarolarni bo'ysundirib, yer-mulklarini yanada kengaytirishni maqsad qilganlar.
2	Ritsarlar	B	Ular oilaning kichik o'g'illari bo'lgani bois katta meros ololmas edilar, shuning uchun o'zlariga shon-shuhrat va boylik istab yo'lga chiqqanlar.
3	Gersoglar, graflar va hatto ayrim qirollar hamda imperatorlar	C	Ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar.
4	Savdogarlar	D	Salib yurishlarida qatnashish orqali o'zlarining og'ir hayotidan qutulib, Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar.

Javoblar: 1) D; 2) B; 3) A; 4) C.



**3-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'riligini (-) belgilang.**

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.

T/r	Tarixiy ma'lumotlar	+/-
1	Papa Urban II 1094-yilda Italiyaning shimolidagi Tuluza shahrida cherkov yig'iniga to'plangan minglab ruhoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi.	-
2	Birinchi salib yurishlarida Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatlaridan kelgan ritsarlar qatnashadi. Ular yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangan edilar.	+
3	Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning yozidan to'plana boshlagan ritsarlarni imperator Aleksey I Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram bo'lishi haqida vassallik qasamyodini qabul qildirgach, Bering bo'g'ozi orqali Kichik Osiyoga o'tkazib yuboradi.	-
4	1098-yilgacha davom etgan yurishlar Suriya bilan Falastinda salibchilar o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlanadi. Ularning orasida Tripoli qirolligi salibchilarning asosiy davlati edi. Salibchilar Quddusni egallash mobaynida birgina jome masjidida 10 ming musulmonni o'ldiradilar. Yahudiylar o'z sinagogasi (ibodatxona)da yoqib yuboriladi.	-
5	Qirg'in paytida ko'plab ayollar va bolalar ham halok bo'ladi. Qirg'inlar harbiy zarurat bilan emas, balki faqat odamlarning qalbiga dahshat solish istagi bilan qilinadi. Salibchilar hatto sharqiy shahar aholisi bo'lgan nasroniylarni dushmanga yordam berishda ayblab, o'z uylaridan quvg'in qilishadi. Shaharliklar uyiga bostirib kirgan ritsar eshikka qalqonni osib qo'yar va bu uy barcha jihozlari bilan yangi xo'jayinga o'tganligini anglatar edi.	+
6	Yevropadan kelayotgan ritsarlar oqimi xristianlarga istilo qilingan hududlarni 300 yilcha qo'lda saqlash imkonini beradi.	-
7	Yaqin Sharqda salibchilar mahalliy dehqonlarni qaramlikka tushiradilar. Yangi xo'jayinlar hosilning 1/3 qismini soliqqa ola boshlaydi. Bundan tashqari, aholi qo'shimcha ravishda qirolga, xristian cherkoviga ham soliq to'lashga majbur etiladi. Natijada mahalliy aholida salibchilarga nisbatan nafrat kuchayib, qo'zg'olonlar ham bo'lib turadi.	+





4-topshiriq. Xarita bilan ishleng. Quyidagi xaritada birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi salib yurishlari bo'lgan hududlarni belgilang va tahliliy fikr yuring.

Ushbu topshiriqda mavzuga doir ba'zi tarixiy tushunchalar orqali o'quvchilar ongida zo'ravonlikka qarshi kurashish, insonparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

T/r	Salib yurishlari	Birinchi salib yurishi	Ikkinchi salib yurishi	Uchinchi salib yurishi	To'rtinchi salib yurishi
1	Yuzaga kelish omillari				
2	Bo'lib o'tgan vaqt				
3	Asosiy voqealari				
4	Oqibatlari				



Salib yurishlari xaritasi



5-topshiriq. O'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi har bir mavzuni o'rganishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va o'quvchilarning bilish faoliyatini ularni hal qilishga yo'naltirishi lozim.

Masalan: "Tasavvur qiling, siz salib yurishlari davrida musulmon davlatlaridan birining hukmdorisiz. Murakkab bir vaziyatda Yevropa hukmdorlari salib yurishlarini boshlashdi. Sizga ma'lumki, salib yurishlarida asosiy kuchlardan biri papa rahnamoligidagi diniy-ritsarlik ordenlari bo'lsa, yana biri Yevropa davlatlari qirollari edi. Sizningcha, musulmon davlatlari g'alaba qozonish uchun qaysi asosiy kuchga alohida e'tibor qaratishi va qanday yo'l tutishi lozim (diplomatiya, urush olib borish, taslim bo'lish)". O'quvchilar o'z fikrlarini quyidagi jadvalda aks ettiradilar.

XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida jadvaldagi ba'zi tushunchalar orqali o'quvchilarda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor berish tavsiya etiladi.

Salib yurishlaridagi asosiy kuchlar	Amalga oshirgan ishlari
 <p>Papalar</p>	
 <p>Diniy-ritsarlik ordenlari</p>	



Yevropa qirollari

6-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan sanalarni sodir bo'lgan voqealar bilan moslashtiring. Mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va darsni qiziqarli tarzda tashkil etish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

T/r	Sanalar		Voqealar
1	1202–1204-yillar	A	Fransiyaning Vandom qishlog'idan Stefan ismli bir cho'pon bola chiqib, butun mamlakat bo'ylab yurib bolalarni salib yurishlariga targ'ib qila boshlaydi.
2	1187-yil	B	XII asr oxirida papa Innokentiy III yangi salib yurishlarini tashkil etishga kirishadi. Bu salib yurishlarining to'rtinchisi bo'ldi va Konstantinopol asos solinganidan buyon ilk bor dushman o'ljasiga aylandi.
3	1212-yil	C	Misrda hokimiyatni to'liq qo'lga olib, Ayyubiylar davlatini tuzgan Salohiddin Ayyubiy salibchilarga qarshi kurashni davom ettirib, ulardan Quddusni tortib oladi.
4	1269–1270-yillar	D	Yevropada uchinchi salib yurishlari tugadi. Unda german imperatori, Fransiya va Angliya qirollari ishtirok etgan bo'lsa-da, bu yurishlar ham muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.
5	1192-yil	E	Fransiya qiroli Lyudovik IX boshchiligida sakkizinchi salib yurishlari bo'lib o'tdi.

Javoblar: 1) B; 2) C; 3) A; 4) E; 5) D.





7-topshiriq. “Meni top” o'yini sharti bo'yicha tushirib qoldirilgan so'zlarni topib quyidagi matnni to'ldiring.

XII asrdan musulmon amirliklari birlashib, salibchilarga qarshi kurash boshladilar. Saljuqiylar hukmdori _____ning ishonchli vakili – Imomiddin Zangiy salibchilarga zarba berib, _____ va _____ oralig'idagi yerlarni egallaydi. Uning o'g'li Nuriddin Zangiy 1146-yilda otasi o'rniga taxtga o'tirib, darhol salibchilarga qarshi urushga o'tlanadi. Ularga qarshi kurashish uchun Yevropa feodallari 1147–1149-yillarda ikkinchi _____ni uyushtiradilar. Fransiya va Germaniya qirollari o'z qo'shini bilan ishtirok etgan bu yurishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi va _____ning yengilmasligi haqidagi afsonani yo'qqa chiqaradi. Nemis salibchilarini saljuqiylar Kichik Osiyoda tor-mor etgan bo'lsa, fransiyaliklar _____ni qamal qilib, egallay olmay, Yevropaga qaytadilar.

Nuriddin Zangiy salibchilarni Sharqdan butunlay surib chiqarishni maqsad qilgan edi. U salibchilar tuzgan Antioxiya knyazligi hududining katta qismini egallaydi. Edessa grafligida ham o'z hukmronligini saqlab qoladi. _____da Nuriddin Zangiy qo'shini Damashqni egallashi bilan Suriyada musulmonlar yagona siyosiy hokimiyatga ega bo'ladi. Bu davrda Yaqin Sharqda qattiq qarshilikka uchragan salibchilar Misrni zabt etishga kirishadilar. Nuriddin Zangiy 1169-yilda Shirkuh va uning jiyani Salohiddin boshchiligida qo'shin jo'natib, Misrni egallaydi.

Shirkuh vafot etgach, uning jiyani Salohiddin _____da hokimiyatni to'liq qo'lga olib, Ayyubiylar davlatini tuzadi.

8-topshiriq. “Xronologiya o'yini”.

Ko'rsatma. Raqamlarni to'g'ri tartibda joylashtiring. Qo'shimcha ravishda mavzuni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun “Jahon tarixining muhim sanalari” nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

Namuna:

0	1	6	9
1	0	9	6

Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to'plana boshlagan ritsarlarni imperator Aleksey I Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram bo'lishi haqida vassallik qasamyodini qabul qildirgach, Bosfor bo'g'ozini orqali Kichik Osiyoga o'tkazib yuboradi.

1	8	1	7
---	---	---	---

1187-yil _____

1	7	1	4
---	---	---	---

1147-yil _____

2	1	4	0
---	---	---	---

1202-yil _____

9-topshiriq. Quyidagi jadvalda berilgan so'zlardan mavzuga oidlarini toping va og'zaki izohlang.

Salib	Urban II	Grigoriy XVI	Shamol tegirmonlari	Tarak
1295-yil	Iskandariya	Hammom	1204-yil	Jon Boll
Stefan	Richard I	Kale	Salohiddin Ayyubiy	Aloqa kaptarlari





Qo'shimcha ma'lumotlar Salib yurishlari va ularning natijalari

Salib yurishlari	Yurish ishtirokchilari	Natijasi
Birinchi salib yurishi (1096–1099-yillar)	Feodallar, ritsarlar, dehqonlar	Quddus salibchilar tomonidan ishg'ol etiladi; Quddus qirolligi tuziladi.
Ikkinchi salib yurishi (1147–1149-yillar)	Fransiya imperatori Lyudovik VII, nemis imperatori Konrad III rahbarlik qilgan.	Damashq va Askalonga uyushtirilgan ikki yurish salibchilarning uquvsizligi tufayli muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanadi.
Uchinchi salib yurishi (1189–1192-yillar)	German imperatori Fridrix I Barbarossa, Fransiya qiroli Filipp II Avgust, Angliya qiroli Richard I Sheryurak	Yurish muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.
To'rtinchi salib yurishi (1202–1204-yillar)	Tashkilotchisi Innokentiy III	G'arbiy – katolik va sharqiy – pravoslav cherkovlarining bo'linishi yakunlanadi.
Beshinchi salib yurishi (1217–1221-yillar)	Nemis ritsarlari	Damyetta shahrida salibchilarning halokatli mag'lubiyati bilan yakun topadi.
Oltinchi salib yurishi (1228–1229-yillar)	Fridrix II	Fridrix II sulton bilan muzokara olib borib, xristianlarning 10 yil davomida muqaddas joylarga kirishlariga ruxsat olishga muvaffaq bo'ladi.
Yettinchi salib yurishi (1248–1254-yillar)	Turli mamlakatlarning kambag'al ritsarlari	Salibchilar mag'lubiyatga uchraydi va asirga olinadi. Bu salib yurishi ham samarasiz yakunlanadi.
Sakkizinchi salib yurishi (1269–1270-yillar)	Lyudovik IX	Salibchilar tomonidan Shimoliy Afrikadagi Tunisning qamal qilinishi ularga qarshi kurashning kuchayishiga olib keladi.





19-MAVZU. YEVROPADA O'RTA ASR SHAHARLARINING O'ZIGA XOSLIGI

1-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni topib matnni to'ldiring.

Yevropada X–XI asrlarda ishlab chiqarish yuksalgan. Bu eng avvalo _____ da kuzatildi. Mehnat qurollarining takomillashuvi, ustalar mahoratining oshishi _____ ni _____ dan alohida sohaga aylantiradi. _____ ning ixtiro etilishi va ot yordamida omoch tortish yer haydashni tezlashtirgan. Hosildorlikning oshishi dehqon xo'jaligida ortiqcha mahsulotning ko'payishiga va uni hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlashga yo'l ochgan. _____ lar tayyorlaydigan buyumlarning turi, soni, sifati oshib borgan. Lekin qishloqda feodallar hukmronligi ta'sirida hunarmandning erkinligi cheklangan edi. Natijada ular qishloqlardan qochib, o'z buyumlarini tayyorlash va sotish imkoniyati bo'lgan joylarga keta boshlaganlar.

2-topshiriq. Yevropada shaharlarning vujudga kelishi va yuksalishi turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Quyida berilgan hududlarda shaharlarning paydo bo'lish va yuksalish davrining ketma-ketligini tegishli raqamlarda kataklarga yozing. Shuningdek, mavzuni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Vengriya, Boltiqbo'yi, Rus yerlari.
2. Italiya, Fransiyaning janubidagi yerlar.
3. Fransiyaning shimoli, Niderlandiya, Angliya va Germaniya.



Javobi:



3-topshiriq. Quyidagi keltirilgan matndan 4 ta xatoni toping.

Shaharlar ko'pincha qarovsiz yerlarda vujudga kelgan. Dastlab feodallar o'z yerlaridagi shaharlarga homiylik qilib, ko'chib kelgan hunarmandlarni soliqlardan ozod etgan. Shaharlar o'sib, boyib borishi bilan xo'jayinlar ularning ko'proq daromad olishlariga sharoit yaratib, kamroq soliq ola boshlaganlar. Feodallar hunarmandchilik va savdning yuksalishiga to'sqinlik qila boshlagan. Natijada shaharliklar senyor hukmidan ozodlikka chiqishga intilganlar. Ko'pincha shaharlar o'z erkinligini bir yil haq olmasdan ishlab berish evaziga qo'lga kiritgan. Bunday imkoniyat bo'lmagan paytda ozodlik uchun qo'zg'olon yo'li tutilgan. Fransiyaning qator shaharlarida XIII–XIV asrlarda senyorlarga qarshi kurashlar bo'lib o'tgan.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____





4-topshiriq. Quyida berilgan rasmlardan foydalanib o'rta asr shaharlari va feodallar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirib bering.



O'rta asr shaharlarining feodallarga qarshi harakatlari

Dastlab feodallar o'z yerlaridagi shaharlarga homiylik qilib, ko'chib kelgan hunarmandlarni soliqlardan ozod etgan. Keyinchalik feodallar hunarmandchilik va savdning yuksalishiga to'sqinlik qila boshlagan. Natijada shaharliklar senyor hukmidan ozodlikka chiqishga intilganlar. Ko'pincha shaharlar o'z erkinligini to'lov, pul evaziga qo'lga kiritgan. Bunday imkoniyat bo'lmagan paytda ozodlik uchun qo'zg'olon yo'li tutilgan. Fransiyaning qator shaharlarida XII–XIII asrlarda senyorlarga qarshi kurashlar bo'lib o'tgan.

O'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriq.

Qal'a-qo'rg'onlar qaysi maqsadda qurilgan?

Artilleriya paydo bo'lmasidan oldin barcha mamlakatlarda va barcha zamonlarda mudofaa maqsadida qal'alar qurilgan. Bu qal'alar nega aynan baland yoxud yalang joylarda bunyod etilgan? Ular nega suv to'lg'azilgan chuqur xandaqlar bilan o'ralgan?



Tarixiy mushohada

Shaharlar atrofi minorali mudofaa devori, suv to'ldirilgan xandaqlar bilan o'ralgan. Qo'riqchi-soqchilar minoralarda tun-u kun almashib turgan. Dushmandan himoyalaniş maqsadida shahar darvozalari va ko'priklari mustahkam temirdan yasalgan. Kechasi xandaqlar ustidagi ko'priklar ko'tarib qo'yilgan va shahar darvozasi yopilgan.

Aziz o'quvchi! Yevropada shaharlarning bunday qo'riqlanishiga sabab nima deb o'ylaysiz?





5-topshiriq. Quyidagi rasmlardan foydalanib “**Mening tasavvurimdagi shahar**” mavzusida esse yozing.





6-topshiriq. Berilgan mavzuga doir tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'ri (-) ekanligini aniqlang.

T/r	Tarixiy ma'lumotlar	+/-
1	Shaharlar xo'jaligining asosi hunarmandchilik bo'lgan. Hunarmand ish qurollari egasi bo'lib, xo'jaligini mustaqil yuritgan.	+
2	Ma'lum kasb ustalari o'z uyushmalari – sexlarga birlashganlar. Ustalarining umumiy yig'ilishida hamma bajarishi majburiy bo'lgan sex nizomi qabul qilingan. Nizom talabiga binoan, buyumlar faqat ma'lum namuna bo'yicha yasalgan.	+
3	Sexni boshqarish uchun saylangan oqsoqol hunarmandlarning nizomga rioya qilishini, tayyorlangan buyumlarning sifati va sonini nazorat qilgan. Nizomda ustaning dastgohlari, o'quvchi-shogirdlari, xalfalari soni belgilab qo'yilgan. Bu xildagi tadbirlar ustalar uchun bir xil sharoit yaratish, raqobatga yo'l qo'yimaslik maqsadida qo'llangan.	+
4	Tayyor buyumlar narxini ustaning o'zi belgilagan. Ustaxonadagi xalfalarning xalfalik muddati kasbning murakkabligiga qarab 3–4 yil bo'lib, nodir buyum yasash va uni usta sinovidan o'tkazish bilan tugagan.	-
5	Hunarmandlar va savdogarlar orasidan badavlat sex boshliqlari ajralib chiqa boshlaydi. Yevropada sexlarning ham tabaqalanishi ro'y berib, kulolchilik, temirchilik, movutchilik va boshqa boy sexlar vujudga keladi.	-





8-topshiriq. "Mening juftimni top" sharti asosida so'zlarni mantiqan bir-biriga bog'lagan holda tarixiy ma'lumotlar yozing. (Bir-biriga bog'liq so'zlar 2–3 tadan ortiq emas.) O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali kichik guruhlarda yetakchilik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

Xitoy	Bank	200 yil	Bozor
XVI asr	100 dan ziyod	Birja	X. Kolumb
Faktoriya	Yaqin Sharq	1460-yil	Marko Polo

Namuna:


Marko Poloning kitobidagi Sharq mamlakatlarining afsonaviy boyliklari 200 yildan so'ng genuyalik dengizchi Xristofor Kolumbda shunchalik katta taassurot qoldirdiki, u nima bo'lganda ham Hindistonning boy sohillariga yetishga qaror qiladi.

9-topshiriq. O'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriq. Ustalar shahri (konkurs tipidagi rolli o'yin). Ushbu topshiriq rus tadqiqotchisi, pedagog M. Korotkova tadqiqotlaridan foydalangan holda berildi.

Darsning kirish qismi. O'qituvchi: "Bugun bizning shahrimizda turli hunarmandchilik vakillari orasida uyushtiriladigan noodatiy musobaqada qatnashish uchun turli ustalar o'z shogirdlari bilan yig'ilishgan", deya so'z boshlaydi. Biz ulardan qaysi biri o'rta asrlar shaharlari, sexlari, hunarmandchiligi haqida ko'proq bilimga ega ekanini aniqlaymiz. Shahar patritsiylari vakillari va shahar Kengashi a'zolaridan iborat hakamlar chiqishlarni baholaydilar.

4–5 kishidan iborat hakamlar hay'ati tanlanadi. O'yin boshida bolalar o'z hunarmandchilik sohalari haqida ma'lumot beruvchi oldindan tayyorlab qo'ygan osma peshlavhalar o'rnatilgan "ustaxona"laridan o'rin egallagan bo'ladilar. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin: novvoyxona, tikuvxona, zargarlik ustaxonasi, pivoxona, qurolsozlik ustaxonasi, etikdo'z ustaxonasi va boshqalar.

O'qituvchi bolalar diqqatini shunga qaratishi kerakki, o'sha vaqtlarda ko'pchilik odamlar o'qishni bilmagan, shuning uchun "peshtaxta"larda imzo bo'lmasligi lozim. Qatnashchilar o'z sohalarini rasm va belgilar bilan tasvirlashlari kerak bo'ladi.





Har bir guruh o'zini tanishtiradi, manzili, shiorini aytadi, ustaxonasining ishlash tartibini tushuntiradi. Misol uchun, ustaxona manzili quyidagicha bo'lishi mumkin: Avliyo Yakob ko'chasi, o'ngdan ko'k eshikli uy; novvoylar shiori: "Non – ulug' ne'mat" va boshqalar.

O'yinning asosiy mazmuni va borishi. Dars qatnashchilarning o'sha davr hunarmandchiligining asosini tashkil etgan va uning hunarmandchilikka taalluqli ekanligini tasdiqlovchi kasbiy imtihon topshirishi bilan boshlanadi.

Imtihon uchun namunaviy savollar:

1. Mazkur guruh ustalari qaysi o'rta asrlar shahridan kelgan? (Shahar nomi tarkibida "port", "ko'prik", "qasr", "qal'a", "qutlug'" ma'nolarini beruvchi so'zlardan biri bo'lishi lozim). Biror-bir shaharni tanlagach, har bir guruh shunga mos qo'shimchalari yoki asosi bir xil bo'lgan shaharlar nomini sanashlari kerak bo'ladi. Misol uchun, 1-guruh o'z ona shahrini Frankfurt ("erkin kechuv") deyishi mumkin. Guruh a'zolari "furt" (daryo yoki boshqa suv havzasining o'tish qulay bo'lgan kechuv joyi) asosi qatnashgan shahar nomlarini iloji boricha ko'proq sanashlari lozim (masalan, Oksford, Erfurt). 2-guruh Strasburg ("yo'l ustidagi qal'a") deyishi mumkin. Guruh a'zolari qo'shimcha qilishadi: Magdeburg, Gamburg, Edinburg va hokazo.

2. Guruhlar o'sha paytlarda mavjud bo'lgan iboralarni izohlashlari kerak:

"abadiy xalfalar" – o'sha paytlarda xalfalarning ustalikka ko'tarila olmasligi;

"moviyrang dushanba" – ustalar ko'p kurashgan qo'shimcha dam olish kuni;

"qo'riqlanuvchi milya" – shaharda 1 milyadan uzoq doiradagi odamlarni hunarmandchilikka yollashning taqiqlanishi;

"yaxshi xulq qoidalari" – xalfalar uchun qo'yilgan talablar;

"shahar havosini olgan odam ozod kishi bo'ladi" – shaharda bir kun yashagan odam erkin bo'lgan;

"bitta odam ko'chasi" – shaharning o'ta tor ko'chalari (bunday ko'chalar uzoq vaqt mavjud bo'lgan, hozirgi kunda ham Bryusselda shunday ko'chalar bor);

"hunarmandchilik – bizning umumiy tirikchilik manbaimiz" – o'rta asrlar maqoli.

3. Siz namoyish qilayotgan ustaxonalarning qaysilari eng boy sanalgan, qaysilari esa nisbatan qashshoq?

Quyida hunarmandchilik sohasining jamiyatda tutgan o'rni va boyligi bo'yicha pasayish tartibidagi ro'yxati: zargarlar, novvoylar, qassoblar, qurolsozlar, tikuvchi va etikdo'zlar, quruvchi va duradgorlar.

Qo'shimcha savol. Nima uchun xalfalar aynan dushanba kuni dam olishga erishishga intilishgan? (Ularning ko'pchiligi shahar atrofida yashagan va dam olish kunlaridan keyin shaharga qaytgan. Turarjoyini ular faqat 1 hafta uchun ijaraga olishgan. Har dushanba kuni esa xo'jayinlarini almashtirib, qimmatroqqa yollanish uchun bozorga oshiqishgan.)

Imtihon topshirilgach, bellashuv boshlanadi.

1-shart. O'z shahar yoki hunarmandchilik sohangizga moslab ma'lumot tayyorlang.

2-shart. Guruhingiz a'zolarini – usta, xalfa va shogirdlarni tanishtiring. Har bir qatnashchi o'z personaji haqida gapirib beradi. Har bir guruhdan 3 tadan ishtirokchining chiqishi tinglanadi.

Hikoyaga quyidagicha ma'lumotlar kiritilishi zarur:

Shogird: 7 yoshdan usta oilasi bilan birga yashagan, otasi esa bolasining o'rganishi uchun pul to'lagan; ustaning yugurdagi bo'lgan, shafqatsiz munosabatda bo'lishgan; 3,5 yoki 7 yildan so'ng (shartnomada necha yil belgilanganligiga qarab) shogird xalfalikka o'tgan.

Xalfa: juda kam maosh olgan, boshqa ustaga o'tish huquqiga ega bo'lgan, ustaga





ketaman deb tazyiq o'tkaza olgan; u doim norozi yurgan; maoshi oshirilishini talab qilgan, "abadiy xalfa" bo'lib qolib ketishdan qo'rqgan.

Usta: o'z uyi, ustaxonasiga ega bo'lgan; byurger kasaba uyushmasiga kirgan.

Hakamlar eng yaxshi hikoyani tanlashadi, g'oliblarni aniqlashadi.

1-shart. Xo'jayin o'z ustaxonasiga shogird yollash to'g'risidagi shartnomani o'qiydi. Barcha guruh qatnashchilari o'sha davr sharoitidan kelib chiqqan holda shartnomaning mazmuni va shakli qanday bo'lishi mumkinligi borasidagi muhokamada ishtirok etishadi. Namuna: *"Men, logann Toyzburg, barchaga shuni e'lon qilamankim, o'g'lim Tenisni Kyolnda hunar o'rganish uchun zargarlik ustasi Aylf Bruverga beraman. Tenis ixlos ila 8 yil tanaffuslarsiz xizmat qiladi. Mabodo Tenis 8 yil o'tmay turib o'z ustozidan qochib ketar bo'lsa, men jarima to'lashga majburman"*.

2-shart. Har bir ustaxona o'z sexi nizomini namoyish qilishi kerak. Barcha nizomlarning asosiy mazmuni quyidagilarga qaratilgan bo'ladi:

- begonalar kirishi taqiqlanganligi;
- kasb sir-asrorlarining qat'iy sir saqlanishi;
- xomashyo sotib olishning aniq shartlari belgilab olinishi;
- mahsulotni ishlab chiqarish va sotish shartlarining o'rnatilishi;
- ishlab chiqarilgan tovar xususiyatlari, soni va narxining e'lon qilinishi;
- ishchilar sonining belgilab olinishi;
- ish vaqtining belgilab olinishi va kechasi sham nurida ishlashning taqiqlanishi.

Barcha sexlar nizomining o'zgarmas qoidalari:

1. Barcha ustaxonalar ishi qat'iy ravishda ertalab 8 da chalinadigan qo'ng'iroq bilan birga boshlanib, kechki qo'ng'iroq chalinishi bilan bir vaqtda tugatilishi zarur.
2. Bosh usta o'z bolalaridan tashqari 4 tadan ko'p shogird ushlamasligi kerak.
3. Ustaga o'z o'lchov asboblari, kundalik buyumlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.
4. Xalfalar 7 yildan ko'p bo'lmagan vaqtda xizmat qilishi, keyin esa alohida ajralib chiqishi mumkin.

Darsni o'qituvchi umumiy xulosa bilan yakunlaydi.

10-topshiriq. Atamalarga izoh bering.

T/r	Atamalar	Izoh
1	Ratusha	
2	Sex nizomi	
3	"Birodarlik" jamiyatlari	
4	Tovar xo'jaligi	
5	Bozor	
6	Faktoriya	
7	Bank	





20-MAVZU. OSIYONING O'RTA ASR SHAHARLARI

1-topshiriq. 1. Xatoni toping.

Ko'rsatma. Berilgan matndan 6 ta xatolikni toping. Shuningdek, mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va darsni qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

Dastlab ma'muriy markaz yoki harbiy qal'alar sifatida tashkil topgan o'rta asr shaharlari hunarmandchilik va savdoning yuksala borishi bilan juda tez rivojlangan.

Osiyoning eng yirik shaharlari Dasin, Dunxuan, Nagpur, Xo'tan, Shosh, Marv, Tehron, Termiz va Ktesifon edi. Ularda maktablar, kutubxonalar tashkil qilingan, olimlar, shoirlar, rassomlar, musiqachilar yashab, ijod qilganlar. Osiyo shaharlari davlat yerlarida vujudga kelgani sababli Yevropa shaharlari kabi yirik zamindorlarga qarshi kurash olib borgan.

Osiyoning yirik davlatlaridan biri Xitoyda o'rta asrlar shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishi X–XII asrlarga to'g'ri keladi. Shaharlar Xitoyda mahalliy hokimlarga bo'ysungan.

Yaponiyaning o'rta asrlar shaharlari daryolarning qarama-qarshi tarafida, baland tog'lar etaklarida, mamlakatning chegara hududlarida vujudga keladi. Xeyyan shahri 1177-yilda suv toshqini natijasida vayron bo'ladi. Bu shahar qayta tiklanganidan so'ng Kamakura nomini olib, mamlakat poytaxtiga aylanadi.


1. _____
2. _____
3. _____
4. _____

2. Xarita bilan ishleng.



Ko'rsatma. Yuqorida berilgan matndagi Osiyoning o'rta asrlardagi eng yirik shaharlarini to'g'ri topganingizdan so'ng ularni quyida keltirilgan xaritada belgilab ko'rsating.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.





2-topshiriq. Mavzuga oid tushunchalarni toping va og'zaki izohlang.

Hunarmandchilik	Xitoy	Oziq-ovqat taqchilligi va narx-navoning qimmatligi	Madaniyat, savdo va hunarmandchilik markazlari	O't o'chirish tizimi
Kambag'allar	Buxoro	Paxsa, guvaladan qurilgan uylar	VIII asr	Hukmdorlar, boylar
Aholini sopol quvurlar orqali toza suv bilan ta'minlash	Shaharsozlik	Sharqda islom dini markazi	Kasallik va epidemiyalar	Pishiq g'isht va marmarlardan qurilgan saroylar, hovli-joylar

3-topshiriq. "G'alvir o'yini". Berilgan so'zlarni pastdagi joy nomlari bo'yicha to'g'ri taqsimlang.

G'alvir o'yini

Qog'oz

Kulolchilik buyumlari

Ipak gazlamalar

Jun gilamlar

Gazlamalar

Kiyimlar

T/r	Joy nomi	Ishlab chiqarilgan buyumlar
1	Eron	
2	Samarqand	
3	Marv	
4	G'ijduvon	

O'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriq.



Sharqning qadimiy va yirik shaharlari bo'lmish Buxoro va Samarqand shaharlari nomlarining kelib chiqishi va lug'aviy ma'nolarini bilasizmi?

4-topshiriq. Quyidagi atamalarga ta'rif bering.

Atama	Ta'rifi
Ark	
Shahriston	
Rabod	
Jonka	
Ko'chma bozor	
Hunarmandchilik sexlari	



5-topshiriq. Quyida berilgan rasmlarni o'zaro solishtiring va fikrlaringizni bayon eting.

	
Xitoy jonka kemasi	
	
O'rta asrlar Yevropa kemasi	

6-topshiriq. Katalarni to'ldirib yashiringan so'zlarni toping va ularga ta'rif bering.

1. S R A D

2. N G Y

3. K R O

4. S D A R

Javoblar: 1) Samarqand; 2) Nagoya; 3) karvon; 4) savdogar.



7-topshiriq. O'rta asrlardagi Osiyo va Yevropa shaharlarini solishtirib, o'z fikr-mulohazalaringizni so'zlab bering. Qaysi birida taraqqiyot kuchliroq bo'lgan?

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali yetakchilik salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.



Yevropa



O'rta Osiyo



Arab xalifaligi



Xitoy





21-MAVZU. YEVROPANING O'RTA ASRLAR MADANIYATI

1-topshiriq. “Ortiqchasini top” o'yini asosida ushbu qatorlarga mansub bo'lmagan 2 ta so'zni aniqlang va o'chiring. Qolgan so'zlar asosida tarixiy davr manzarasini yarating.

“Akademiya”	Alkuin
Magnavr oliy maktabi	Saroy kopellasi
Buyuk Karl	Karolinglar uyg'onish davri
Eyngard	“Mehnatsevar chumoli”
Lev Diakon	“Xalq maktablari”

2-topshiriq. O'qituvchi hamkorlikda o'qitish metodlaridan biri bo'lgan “Uzviylik” metodini qo'llash maqsadida sinf o'quvchilarini 5 ta kichik guruhga bo'lib, ularning liderlarini doskaga taklif etadi va o'rganilayotgan mavzudagi kalit so'zlardan birini aytib, liderlardan birining qo'liga tayoqchani beradi. O'quvchi kalit so'zning ma'nosini izohlab, yana bir so'z aytadi va tayoqchani boshqa o'quvchiga uzatadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Agar o'quvchilardan birortasi kalit so'zni izohlay olmasa, jarima tariqasida 3 ta boshqa atamani aytib, izohlab berishi kerak.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali kichik guruhlariga bo'lingan holda ularning yetakchilik salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

Masalan:

O'qituvchi: “Mehnatsevar chumoli”.

1-o'quvchi: “Tarixchi Eyngard. Xori monastiri”.

2-o'quvchi: “Saroydagi qo'shiqchilar dastasi. Kopella”.

3-o'quvchi: “Katoliklarning kichik ibodatxonasi. Yunon olovi”.

1-o'quvchi: “VII asrda Vizantiyada ixtiro qilingan oltingugurt, selitra, turli qatronlar aralashmasi. Mozaika”.

2-o'quvchi: “Koshin tosh, yog'och, marmarlar, rangli shishalardan ishlangan naqsh, tasvir. Freska”.

3-o'quvchi: “Nam suvoq ustiga tushirilgan rangli tasvir. Ikona”.

1-o'quvchi: “Odatda yog'ochning qattiq turlaridan ishlangan Iso, Bibi Maryam suratlari, Injil sahnalari, avliyolar tasviri. Kesariyalik Prokopiy”.

2-o'quvchi: “VI asrda yashagan tarixchi. “Ayo Sofiya” ibodatxonasi”.

3-o'quvchi: “Ilk o'rta asrlarning eng mahobatli me'morchilik inshooti. Uning ulkan gumbazi (bo'yiga 31,5 metr) bo'lib, 40 ta derazalar gulchambari bilan qurshalgan”.

Shu tariqa davom ettiriladi.





3-topshiriq. O'quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish uchun tarix fani o'qituvchisi har bir darsda oldin o'rganilgan tushunchalar bilan hozir o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali kichik guruhlarga bo'lingan holda ularning yetakchilik salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

1. Ushbu mavzuni o'qitishda o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, ularga o'quv topshiriqlari bilan bir qatorda quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi.


T/r	Hukmdorlar haqida ma'lumotlar	Buyuk Karl	Yustinian	Buyuk Alfred	Xlodvig
1	Hokimiyat tepasida turgan vaqti				
2	Olib borgan islohotlari				
3	Madaniy soha rivojiga qo'shgan hissasi				
4	Hukmdor sifatida o'ziga xos xususiyatlari				



2. Xarita bilan ishleng. Jadvalda nomlari keltirilgan hukmdorlarning davlat chegaralarini quyidagi kontur xaritada belgilashga harakat qiling.



Topshiriq. 1. Quyidagi “**Tarixiy pasport**” o'yini vositasida rasmga qarab ma'lumotlarni to'ldiring.



Inshoot nomi: _____
Qurilgan vaqti: _____
Qurdirgan hukmdor: _____
Inshootning me'moriy tuzilishiga ta'rif: _____

Inshootning bezaklari: _____

2. O'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriq.

Piza minorasi nega “qulayotir”?

Garchi Piza shahridagi minora “qulab tushayotgan” bo'lsa hamki, u baribir o'zining me'moriy ko'rinishi bilan dunyodagi eng asosiy diqqatga sazovor joylardan biri bo'lib qolaveradi. U sidirg'asiga oq marmardan bunyod etilgan. Devorlari asosining qalinligi to'rt metr. Minora 8 qavatli bo'lib, uning balandligi 56,7 metrga yetadi – bu 15 qavatli zamonaviy imoratning balandligiga tengdir. Yuqorisiga devoriga 294 ta pillapoyadan iborat bo'lgan zinapoyadan chiqiladi. Mazkur pillapoyalarning eng yuqorisiga chiqqan kishi shahar va dengizning haqiqiy tarovatidan bahra olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Minoraning yuqori qismi vertikal o'qdan 5 metrga qiyshaygan – og'gan. Boshqacha aytganda, u “qulayotir”. Mabodo Siz minora tepasiga chiqsangiz va toshcha tashlasangiz, u minora poydevoridan 5 metr nariga tushadi...

Ma'lumotni davom ettiring.





5-topshiriq. Jadvalning chap ustunidagi mavzuga oid atamalarning o'ng ustundagi ta'riflarini to'g'ri topib moslashtiring.

1	Grammatika	A	O'qituvchi va talabalar jamoalari
2	Ritorika	B	Mantiq
3	Universitet	C	Qadimgi
4	Dialektika	D	Barcha fanlarning onasi
5	Antik	E	Kollej yotoqxonolari
6	Professor	F	Notiqlik
7	Dekan	G	Malakali o'qituvchi
8	Kollegiya	H	Fakultet boshqaruvchisi

1	2	3	4	5	6	7	8
D	F	A	B	C	G	H	E

6-topshiriq. Berilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'ri (-) ekanligini aniqlang.

T/r	Tarixiy ma'lumotlar	+/-
1	Maktablarda "yetti erkin san'at" deb nom olgan arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa va boshqalar o'qitilgan. G'arbiy Yevropadagi barcha maktablarda o'rta asrlarning oxirigacha o'qitish lotin tilida olib borilgan.	+
2	Ta'lim mavzu bo'yicha dunyoviy qarashlarga asoslangan edi. Maktabda o'quvchilar yosh bo'yicha sinflarga taqsimlangan.	-
3	O'z tadbirkorlik faoliyatini yanada muvaffaqiyatli olib borish istagida bo'lgan shaharliklar, savdogarlar va hunarmandlar esa matematika, astronomiya va tibbiyotdan ko'proq bilimga ega bo'lishni xohlaganlar.	+
4	Zamonaviy va sifatli bilim beruvchi, turli bilim sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari – akademiyalar (o'qituvchi va talabalar jamoalari) ochila boshlagan. Yevropada birinchi akademiyalar XIII–XV asrlarda paydo bo'lgan. Ular mahalliy cherkov hokimiyatiga ham bo'ysungan.	-
5	Yevropadagi dastlabki universitetlar Ispaniyadagi Madrid va Germaniyadagi Frankfurt universiteti hisoblanadi. Keyinchalik Angliyada London, Italiyada Tuluza universitetlari tashkil etilgan. Universitetlar odatda musiqa, falsafa va ilohiyot kabi uchta fakultetdan iborat bo'lib, ularning har birini kansler boshqargan. Hamjamiyat tepasida esa saylangan direktor turgan.	-
6	Talabalarning ko'pchiligi universitet, cherkov yoki boy odamlar tomonidan boshqariladigan kollej yotoqxonalarida (kollegiya) yashagan. Kollegiyaga kira olmagan talabalar shahar aholisidan uy-joyini ijaraga olishga majbur bo'lishgan. Vaqtlar o'tib, Angliya va Fransiyada kollegiyalar yangi o'quv muassasalari – kollejlarga asos bo'lgan.	+



7-topshiriq. 1. O'rta asrlarda Yevropadagi maktablarning universitetlar paydo bo'lishidagi o'rni va qit'a taraqqiyotida ta'limning hissasi qay darajada bo'lgan? Bugungi kunda ta'limni yanada rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak deb o'ylaysiz.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali kichik guruhlariga bo'lingan holda ularning yetakchilik salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.



O'rta asr maktablari



O'rta asr universitetlari




2. O'quvchilar uchun topshiriq. "Bakalavr" so'zi qanday ma'noni bildiradi? O'rta asrlarda Fransiyada bu unvon o'rta ma'lumotga ega bo'lganlarga berilganligini bilasizmi?

8-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atamalarga izoh bering.

T/r	Atamalar	Izohi
1	Xalq maktablari	
2	Akademiya	
3	Saroy kopellasi	
4	"Yunon olovi"	
5	Mozaika	
6	Freska	
7	Yetti erkin san'at	

**22-MAVZU. ARAB XALIFALIGI MAMLAKATLARI MADANIYATI****1-topshiriq. 1. Kichik guruhlarga bo'linib, jadvalni to'ldiring.**

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini oshirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholash, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.

Tarixiy shaxslar	Yashagan davri	Amalga oshirgan ishlari
	Muhammad al-Xorazmiy (783–850)	Matematika tarixidagi yangi soha – algebraga asos solgan. Hind raqamlari asosida hozirgi arab raqamlarini soddalashtirgan, kengaytirgan va birinchi marta arab tilida bayon etib, uning keng tarqalishiga hissa qo'shgan.
	Ahmad al-Farg'oni (797–865)	Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij yaratish ishlariga rahbarlik qiladi. U yunon astronomlari, jumladan, Ptolemeyning "Yulduzlar jadvali" asarida berilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish hamda o'sha davrdagi barcha asosiy joylarning geografik koordinatalarini yangidan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etadi.
	Abu Rayhon Beruniy (973–1048)	Yerning dumaloqligini aniqlaydi, koinot markazi Yer emas, Quyosh ekanligi, Yer esa uning atrofida aylanishi haqidagi farazni ilgari suradi. Yerning kattaligini o'lchashda yangi usul qo'llab, bir gradus meridian yoyning uzunligini hisoblab, shu asosda Yerning meridian aylanasi uzunligini hisoblab chiqargan.





Abu Ali ibn Sino
(980–1037)

Tibbiyot sohasida shuhrat qozongan. Uni Yevropada Avitsenna deb atashgan. U antik dunyo hind va o'rta osiyolik tabiblar tajribalarini umumlashtirib "Al-qonun fit-tib" shoh asarini yaratadi.

2. Qo'shimcha topshiriq.

Qaysi mashhur vatandoshimizning Yerning dumaloq shakldaligini isbotlab bergan asari XII asrda lotin tiliga, XIV asrda Yevropadagi boshqa xalqlar tillariga tarjima qilinib, XVII asrgacha Yevropada astronomiyadan yagona darslik hisoblangan?

2-topshiriq. "Grafik test" o'yin metodi. Bu metod orqali o'quvchilar o'rganilgan mavzudan umumiy xulosa chiqarishni sekinlik bilan o'rgana boshlaydilar. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatadi va oldindan tayyorlangan ma'lumotlarni ketma-ketlikda o'qiydi. O'quvchilar jadvaldagi kataklarni javoblarga mos ravishda bo'yab boradilar. Jarayon yakunida hosil bo'lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

Masalan:

Muhammad al-Xorazmiy	Ahmad al-Farg'oniy	Abu Rayhon Beruniy	Abu Ali ibn Sino	Ibn Battuta



1. Ziy yaratish ishlariga rahbarlik qilgan, arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyot, riyoziyot va geografiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirgan.

2. Antik dunyo hind va o'rta osiyolik tabiblar tajribalarini umumlashtirib, "Al-qonun fit-tib" shoh asarini yaratadi.

3. Algebraga asos solgan; hind raqamlari asosida hozirgi arab raqamlarini soddalashtirgan, kengaytirgan va birinchi marta arab tilida bayon etib, uning keng tarqalishiga hissa qo'shgan.

4. 921–922-yillarda Bag'doddan boshlangan sayohatida Eron, O'rta Osiyo orqali Bulg'or mamlakatiga sayohat qilib, "Sayohatnoma" asarini yozgan.

5. Yerning dumaloqligini aniqlaydi, koinot markazi Yer emas, Quyosh ekanligi, Yer esa uning atrofida aylanishi haqidagi farazni ilgari suradi. Yerning kattaligini o'lchashda yangi usul qo'llab, bir gradus meridian yoyning uzunligini hisoblab, shu asosda Yerning meridian aylanasi uzunligini hisoblab chiqargan.

3-topshiriq. Sonlar – sirli harflar kaliti.

Ko'rsatma. Quyidagi sonlarni mos ravishda alifboning ayni shu tartib raqamidagi harflar bilan almashtiring va hosil bo'lgan so'zlarni izohlang.

1	11		16	1	18	1	17
---	----	--	----	---	----	---	----

Namuna:

A	I		Q	a	s	a	r
---	---	--	---	---	---	---	---

"**Al-Qasar**". Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda muhtasham saroylar, masjid-u madrasalar, qal'alar bunyod etilgan. Ispaniyaning bir qator shaharlari, masalan, **Sevilyadagi "Al-Qasar" qasri** arablar davri me'morchiligi durdonalaridan biri hisoblanadi.

1	21	8	16	15	4	13	13	1
---	----	---	----	----	---	----	----	---

Avitsenna. _____

24	1	23	19	20	13	1
----	---	----	----	----	----	---

"Zaytuna". _____

2	1	23	19		20	11	7	8	10	12	1
---	---	----	----	--	----	----	---	---	----	----	---

"Bayt ul-hikma". _____

12	8	13	14	17	1
----	---	----	----	----	---

Minora. _____



12	1	3	17	1	18	1
----	---	---	----	---	----	---

Madrasa. _____

4-topshiriq. Matndan 3 ta noto'g'ri jumalani topib, to'g'rilab yozing.

1. Geografiya fanini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan sayyohlar: al-Ma'sudiy, ibn Dast, ibn Fadlan va ibn Battutalar dunyoni Atlantikadan Tinch okeangacha, Afrikadan Rusga qadar kezib, u joylarning aholisi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Sayohatchilarning qo'riqchilari ishonchli, harbiy qurollari zamonaviy va mustahkamligi, hamyonlarida oltin-u javohirlari ko'pligi, o'zlari esa ayyorligi bilan ajralib turgan.

2. G'arbiy Osiyoning qadimgi yuksak madaniyatli o'lkalariga kelgan arablar dastlab germanlar, slavyanlar, hindlar, mo'g'ullarga nisbatan qoloq edilar. Ammo ushbu xalqlar madaniyatini o'zlarida singdirib, yanada yuksakroq madaniyatning vujudga kelishiga sharoit yaratdilar.

3. "Bayt ul-hikma" olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa bo'lib, uning tarkibida juda katta va boy arxivxonasi mavjud bo'lgan. Arxivxonasida hind, yunon, arab, fors tillarida 100 ming jild davlat hujjatlari saqlangan. Muassasani qadimgi yunonlarning Suqrot (Sokrat) akademiyasi bilan qiyoslash mumkin.

1. _____

2. _____

3. _____

5-topshiriq. Quyida berilgan "Tarixiy pasport" o'yinining sharti bo'yicha rasmda ko'rsatilgan muassasa to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiring.





Muassasa nomi: _____

Kim asos solgan: _____

Tashkil topgan sanasi: _____

Muassasadan yetishib chiqqan mashhur kishilar: _____

Muassasada amalga oshirilgan ishlar: _____

6-topshiriq. Berilgan tarixiy ma'lumotlarning to'g'ri (+) yoki noto'g'ri (-) ekanligini aniqlang.

T/r	Tarixiy ma'lumotlar	+/-
1	Musulmon adabiyoti dastlab arab tilida yaratiladi. Keyinchalik – X asrga kelib, u fors tiliga tarjima qilingan hamda fors tilida yozila boshlangan. Musulmon she'riyati yuksak darajaga erishib, uning ko'plab turlari shakllanadi.	+
2	Arab savdogarlari va sayyohlari uzoq o'lkalardan faqat g'aroyib buyumlarnigina emas, ajoyib sarguzasht hikoyalar, o'zga xalqlar afsonalari, ertaklarini ham olib kelganlar. Ana shu xildagi ertaklar, rivoyatlar, afsonalar asosida keyinchalik butun dunyoga mashhur arab adabiyotining ajoyib durdonasi – “Ming bir kecha” yaratilib, u o'zida ko'plab xalqlarning og'zaki ijodini qamrab olgan.	+
3	Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda muhtasham saroylar, masjid-u madrasalar, qal'alar bunyod etilgan. Ispaniyaning Granada shahridagi “Al-Qasar” qasri, Sevilyadagi “Al-Hamro” saroyi, Kordovadagi masjid, Misrning Qohira shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Buxorodagi “Hasan” masjidi arab xalifaligi davri me'morchiligi durdonalari hisoblanadi.	-
4	Xalifalikning boyliklari, uning iqtisodiy yuksalishi kishilarning, ayniqsa, boylarning kundalik hayoti uchun yangi qulayliklar yaratadi. Vizantiya va forslar turmushining ko'pgina an'analarini o'zlashtirgan arablar o'zlarining turmushlari va vaqtichog'liklarini chiroyli tashkil qila oldilar. Hashamatli buyumlar: nafis matolar, shisha vazalar ishlab chiqarish yuksalgan. Saroylarni bezash, bog'lar yaratishda arablarga teng keladigani bo'lmagan.	+
5	Ular kitobni sevganlar. IX asrdan qog'oz ishlab chiqarishning o'zlashtirilishi kitoblarning arzon va hammabop bo'lib borishini ta'minlay boshlaydi. Yirik kutubxonalar faqat Samarqand va Kufadagina bo'lmagan, xususan, X asrda Qurdoba xalifasi kutubxonasida 500 ming qo'lyozma saqlangan.	-
6	Arablar ziyofati hashamatliliigi bilan ajralib turgan. Dasturxon atrofida o'zini tutishning nozik odob me'yorlari, taomlarni tortish, ovqatlanish davomida she'rxonlik qilish tartiblari joriy qilingan.	-





23 MAVZU. XITOIY, KOREYA, YAPONIYA VA HINDISTON XALQLARI MADANIYATI

1-topshiriq. Matndan 3 ta noto'g'ri fikrni topib, to'g'rilab yozing. Mavzuni yanada chuqurroq o'rganish va darsni qiziqarli tarzda o'tkazish uchun "Jahon tarixining muhim sanalari" nomli kitobdan foydalanish tavsiya etiladi.

Xitoyliklar shifti bo'lmagan uylarda yashaganlar. Uyda bo'yralar ustida o'tirganlar, ovqatlanganlar va uxlaganlar. Hovli kichik qal'ani eslatgan. Ruxsatsiz o'zgaralar hovlisiga kirish taqiqlangan. Xitoyliklar odatda kunning birinchi qismida kiygan kiyimini kunning ikkinchi qismida kiyishmagan. Oziq-ovqatlarni tanlamasdan, deyarli barcha narsalarni yeganlar. Xitoyliklarda ovqatdan so'ng turli xil shirinliklar yeyish odati bo'lgan. III–IV asrlarda xitoyliklar choy o'simligini bilganlaridan so'ng bu dorivor o'simlikka ishqiboz bo'lib qolganlar. Choyni shoirlar madh etishgan, u haqida kitoblar yozishgan. XI asrga qadar choyni suyuq taom singari pishirishgan.

1. _____
2. _____
3. _____

2-topshiriq. "Zukko" metodini qo'llashda sinfdagi o'quvchilar soniga qarab ikki yoki uch guruhga bo'lib olinadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi va sinf xonasining doskaga qarama-qarshi bo'lgan tomoniga joylashtiriladi. Xuddi estafetani eslatib yuboruvchi bu o'yinda polga bo'r yordamida chiziqlar chiziladi (yoki partalardan ham foydalanish mumkin). O'qituvchi ishtirokchilarga savollar berib boradi. Har bir berilgan to'g'ri javob o'quvchini bitta chiziq oldinga siljitadi, javob xato bo'ladigan taqdirda, u bir chiziq ortga qadam tashlaydi. Shu tariqa savollarga kim ko'proq tog'ri javob topsa, shu ishtirokchi marra chizig'ini birinchi bo'lib bosib o'tadi. Guruhning qolgan a'zolari ham o'yinni ana shu tarzda davom ettirishadi. Oxirida barcha natijalar sarhisob qilinadi. G'olib guruh mukofotlanadi.

MARRA CHIZIG'I		
1-guruh	2-guruh	3-guruh



**Namunaviy savollar:**

1. Qachondan boshlab xitoyliklar choy o'simligini bilib qolib, uni dorivor o'simlik sifatida iste'mol qilishgan? *III–IV asrlardan.*
2. Xitoyliklar XIV asrga qadar nimani suyuq taom singari pishirishgan? *Choyni.*
3. O'rta asrlarda xitoyliklar eng katta bayram sifatida qaysi bayramni nishonlashgan? *Yangi yilni.*
4. Qaysi xalq "fonuslar bayrami"ni o'tkazgan? *Xitoyliklar.*
5. Xitoydagi eng ommaviy o'yin o'n kishidan iborat bo'lgan jamoalarning koptok bilan o'ynaladigan o'yini bo'lgan. Bu o'yinni qaysi zamonaviy o'yinning uzoq ajdodi deyish mumkin? *Futbolning.*
6. Xitoydagi qaysi ta'limotning Koreyaga ta'siri kuchli bo'lgan? *Konfutsiylikning.*
7. Koreya davlatlaridan qaysi birida konfutsiylikka e'tiqod qilish IV asrda boshlangan? *Pekcheda.*
8. Konfutsiylikka e'tiqod qilish Silla davlatida qachondan boshlab kuzatilgan? *VI asrda.*
9. Xitoy va Koreyaga buddizm qaysi hudud orqali tarqalgan? *O'rta Osiyo.*
10. Qaysi davlatda podsho maslahatchisi lavozimiga bosh buddaviy rohib tayinlangan? *Silla podsholigida.*
11. Buddaviylik yo'riqnoma va ko'rsatmalarini saroy orqali tarqatishga imkon bergan davlat qaysi? *Silla podsholigi.*
12. Silla davlatidagi besh va yetti farmoyishlar qaysi din yo'riqnomalaridan iborat bo'lgan? *Buddaviylik.*
13. IX asrga oid arab dengizchilariga tegishli hujjatda: "Xitoy ortidagi dengizning narigi tarafidagi tog'li yerlarda oltinga boy mamlakat bor", deyilganda qaysi davlat nazarda tutilgan? *Silla.*
14. Arab savdo kemalarida Koreyaga asosan qanday mahsulotlar keltirilgan? *Dorivor o'simliklar, dori-darmonlar, mis, uzum va uzum sharbati.*
15. Arablarning Koreyaga tashriflari davrida o'zlari bilan olib kelgan musulmon madaniyati, fan unsurlari ichida koreyslar uchun eng qimmatli va noyobi nima edi? *Bu quyosh va oyning tutilish vaqtini aniqlaydigan musulmon taqvimini edi.*
16. Qachonga kelib Yaponiyada zodagonlar bolalari uchun maktablar tashkil etila boshladi? *VIII asrda.*
17. O'rta asrlarda yapon yoshlarining bir qismi qonunlarni va adabiyotni o'rganish uchun qayerga borishgan? *Xitoyga.*
18. IX asrning o'rtalarida yaponlar nimani kashf qilishgan? *Yapon alifbosini.*
19. Yapon alifbosi qaysi yozuvga asosan tuzilgan? *Xitoy yozuviga.*
20. Hozir "arab raqamlari" deb atalayotgan hisobning o'nlik tizimini kimlar yaratgan? *Hindlar.*
21. O'rta asrlardagi mashhur hind dramaturgining ismi nima? *Kalidasa.*

3-topshiriq. Bir mintaqada yashovchi xalqlarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslang.

O'quvchilarda XXI asr hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriq orqali media va axborot savodxonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki bu davr talabidir. O'quvchilarda ma'lumotlarni taqqoslash, tanqidiy fikrlash, axborotni olish va saralash, tahlil qilish, baholashni o'rganish, sharhlash, asoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish kerak.





Taqqoslanadigan jihatlar	Xitoyliklar	Hindlar	Koreyslar	Yaponlar
Kundalik hayot, urf-odat va an'analari	Ularning hovlilari kichik qal'ani eslatgan, oddiy, bir xil ko'rinishdagi kiyim kiyishgan; ovqatdan so'ng suv ichish odat bo'lgan.			
Diniy e'tiqodi			Bu yerda konfutsiylikka e'tiqod qilish uch podsholik davriga to'g'ri keladi. Keyinchalik IV asrning oxirlarida buddizm ham keng tarqaladi.	
Madaniy rivojlanishi		O'rta asrlarda tabiiy fanlar ancha yuksalgan. Hindlar hozir "arab raqamlari" deb ataluvchi hisobning o'nlik tizimini yaratganlar. Hind tabiblari bemorlarni shifobaxsh o'simliklar bilan davolashgan.		



Tarixiy mushohada

Hokimiyatga musulmonlar kelishi bilan shimoliy Hindistonda yangi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, minoralarning geometrik naqshlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan gumbazlari qad ko'taradi. Xususan, poytaxtda 70 metr balandlikdagi "Qutb Minor" minorasiga ega masjid qurilgan. Musulmonlar hokimiyati paytida hind qishloq jamoalari eski kasta qonunlari bo'yicha yashashda davom etgan. Hukmdorlar saroylarini hind quruvchilari bunyod etishgan, soliqlarni hind mirzolari hisoblab, tangalarni ham hindlar zarb qilgan.

Aziz o'quvchi! Hindistondagi madaniy taraqqiyotda musulmon madaniyatining ta'siri qay darajada bo'lgan deb o'ylaysiz?





4-topshiriq. "Pinbord" metodi. Bu metoddan foydalanish uchun o'qituvchi doskaga 4 ta xalqning nomini yozadi va oldindan tayyorlangan kartochkalarni (ularda doskada yozilgan xalqlarga doir tushunchalar yozilgan bo'ladi) teskari qilib qo'yadi. O'quvchilar kartochkalarda berilgan tushunchalarni qaysi davlatga tegishli ekanligini topib yopishtirishlari kerak. Masalan:

Xitoyliklar	Koreys va yaponlar	Hindlar

Xitoyliklar:

1. Ular shifti bo'lmagan uylarda yashaganlar. Uyda bo'yralar ustida o'tirganlar, ovqatlanganlar va uxlaganlar. Hovlilari kichik qal'ani eslatgan.
2. Ularda ovqatdan so'ng suv ichish odat bo'lgan.
3. Ular bayramlarni juda xush ko'rishgan. Ularning eng katta bayrami Yangi yil hisoblangan. Eski yilni kuzatish va yangi yilni kutib olish kunlarida quloqlarni qomatga keltiruvchi do'mbira va bonglarning ovozlari ostida turli afsonaviy mavjudotlar shaklida kiyingan kishilar to'planganlardan sovg'alar so'raganlar.
4. Milodiy I mingyillik o'rtalaridan bu xalqning yuqori tabaqa vakillari orasida buddaviylik dini tarqaladi. Lekin oddiy xalq abadiylikni va'da qiluvchi, hokimiyat, boylik va shon-shuhratga ruju qo'yishni qoralaydigan, tenglikka chaqiruvchi daosizmni yoqlagan.
5. Ularning ta'limotiga ko'ra, kishilar rahmdil, boshqalarga yomonlik qilmaydigan bo'lishlari, kattalarni, ayniqsa, ota-onalarini hurmat qilishi kerak. Ular ushbu axloq qoidalarini qat'iy qonunlarga aylantirganlar.

Koreys va yapon xalqlari:

1. Ular konfutsiylik ta'limotini qo'shni mamlakat – Xitoydan olishgan.
2. Ularda buddizmning tarqalishi IV asrning oxirlariga to'g'ri keladi; buddaviylik mahalliy davlat hukmdorlari nazariga tushganligi sababli rohiblarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy va jadal faoliyat ko'rsatishlariga sharoit yaratilgan.
3. Ularda podsho maslahatchisi lavozimiga bosh buddaviy rohib tayinlangan. Bu esa buddaviylik yo'riqnoma va ko'rsatmalarini saroy orqali tarqatishga imkon bergan.
4. Ular buddaviylik rohiblarini ilm ahllari hisoblashgan.
5. Ularda she'r yozish va musiqa asboblarni chalish o'qimishli kishilar uchun zaruriyat sanalgan. Shaharliklar orasida shoirlar talaygina bo'lgan, hatto ularning musobaqalari ham o'tkazilgan.

Hindlar:

1. Bu xalqning erkaklar va ayollarining kiyimlari juda oddiy edi. Erkaklar ko'chaga chiqqanda uzun ko'ylak va yopinchiq tashlab olishsa, ayollar tanalarini yopib turuvchi bir necha metr uzunlikdagi matodan o'rama kiyim kiyganlar. Musulmonlar ta'sirida keyinchalik ko'ylak kiyish urf bo'lgan.
2. Bu xalqning aksari sutli va o'simlikdan tayyorlangan taomlar bilan oziqlanganlar. Mol go'shti va spirtli ichimliklarni deyarli iste'mol qilmaganlar. Sababi ular din tomonidan taqiqlangan.
3. Ular shaxmatni kashf etganlar, oshiq o'yinidan maroq olishgan.
4. Bu xalq musiqa va raqslarni sevishgan. Ular raqsga faqat raqs sifatida qaramasdan, u orqali muhabbat, ilohlar va afsonaviy qahramonlar haqida hikoya qilganlar. Ularning





naqshida har bir tana harakati, har bir imo-ishora (ayniqsa, qo'l barmoqlari) orqali chuqur ma'no-mazmun ifoda etiladi.

5. Bu xalqning usta-quruvchilari qoyalarni o'yib yoki toshdan ulkan ibodatxonalar barpo etganlar. Bu ibodatxonalar relyeflar, haykallar va naqshlar bilan bezatilgan.

5-topshiriq. "Grafik test" o'yin metodi. Bu metod orqali o'quvchilar o'rganilgan mavzudan umumiy xulosa chiqarishni sekinlik bilan o'rgana boshlaydilar. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatadi va oldindan tayyorlangan ma'lumotlarni ketma-ketlikda o'qiydi. O'quvchilar jadvaldagi kataklarni javoblarga mos ravishda bo'yab boradilar. Jarayon yakunida hosil bo'lgan shakl namunaviy shakl bilan solishtiriladi. Masalan:

Xitoyliklar	Koreyslar	Yaponlar	Hindlar

1. Mamlakatda podsho maslahatchisi lavozimiga bosh buddaviy rohib tayinlangan. Bu esa buddaviylik yo'riqnoma va ko'rsatmalarini saroy orqali tarqatishga imkon bergan.

2. Ular barpo etgan inshootlar orasida buddaviylik ibodatxonasi to'qqiz asr (mil. avv. II – milodiy VII asrlar) davomida qurilgan.

3. Mamlakatdagi ayrim monastirlarda (ushu) jang san'ati ham o'rgatilgan.

4. Ularda she'r yozish va musiqa asboblari chalish o'qimishli kishilar uchun zaruriyat sanalgan. Shaharliklar orasida shoirlar talaygina bo'lgan, hatto ularning musobaqalari ham o'tkazilgan.

6-topshiriq. "Kvadrat test" o'yinida kvadratning bir tomonida berilgan tushunchaga mos jihatni topish talab etiladi.

A	Tenglikka chaqiruvchi ta'limot	Daosizm
	Silla podsholigida podsho maslahatchisi	Bosh buddaviy rohib
B	Yaponiyada ilm ahllari	Buddaviylik rohiblari
	Brahman-astrologlar	Xayrli kunlarni bashorat qiluvchilar

7-topshiriq. Tegishli ustundagi ma'lumotlarga tayanib bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

Voqea-hodisa	Hudud	Vaqli
Yuqori tabaqa vakillari orasida buddaviylik dini tarqala boshlaydi.		Milodiy I mingyillik o'rtalari





	Koreya	XIII asr
Ilk bo'rtma iyeroglifli kitob bosmadan chiqarilgan.		IX asr
Mamlakatda ilm olishga bo'lgan talab ortib borib, dastlab zodagonlarning bolalari uchun maktablar tashkil etila boshlaydi.	Yaponiya	
Ajanta buddaviylik ibodatxonasi qoyalarga o'yib ishlangan 29 ta xonadan iborat bo'lib, xonalarning devorlari relyeflar bilan qoplangan, haykallar va o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan.	Hindiston	
	Yaponiya	IX asrning o'rtalari
Bu o'lkaga islom dinining kirib kelishi arab savdogarlarining dengiz yo'llari orqali Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish davriga to'g'ri keladi.		VII–X asrlar

8-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan mavzuga oid atama va tushunchalarga izoh bering.

T/r	Atamalar	Izoh
1	“Fonuslar bayrami”	
2	Daosizm	
3	Kompas	
4	Konfutsiylik	
5	Buddaviylik	
6	Iyeroglif	
7	Arab raqamlari	



III BOB BO'YICHA TAKRORLASH MASHG'ULOTI

1-topshiriq. Quyida berilgan “**Tarixiy pasport**” o'yinining sharti bo'yicha, rasmda ko'rsatilgan inshoot yoki tarixiy shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirish, topish talab etiladi.

1. Quyida berilgan matnda rasmlardagi qaysi tarixiy shaxs ta'limoti haqida gap boradi?



A) Kalidasa



B) Konfutsiy



C) Siddhartha Gautama

Tarixiy shaxs ta'limoti: unga ko'ra, odamlar rahmdil, boshqalarga yomonlik qilmaydigan bo'lishlari, kattalarni, ayniqsa, ota-onalarini hurmat qilishlari kerakligi aytilgan. Ushbu axloq qoidalarini qat'iy qonunlarga aylantirgan kishilar o'z hayotlarini u yoki bu darajada tartibga solganlar.

To'g'ri javob: _____





2. Tarixiy inshoot haqidagi ma'lumotlarni to'ldiring.



Inshootning nomi: _____

Qurilgan vaqti: _____

Inshootning me'moriy yechimi, uning ikonagrafiyasi: _____

2-topshiriq. "To'rtinchisi ortiqcha" metodi. Mazkur metodning maqsadi o'quvchilarda o'tilgan mavzular yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar hamda tezkor fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdir.

Tavsiya etilayotgan metodda ko'zlangan maqsad bob yakunida o'quvchilarni tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqara olishga o'rgatishdir.

1. Xoch, yarim harbiy-yarim rohiblar, grechixa, ilohiy maskan.
2. Mozaika, skriptoriya, freska, ikona.
3. Ratusha, sex oqsoqoli, xalifa, birodarlik jamiyati.
4. Kesariyalik Prokopi, Lev Diakon, Irakliy.
5. Porox, kompas va seysmograf, "grek olovi".

Ushbu metodda o'quvchilar o'zlariga berilgan yuqoridagi atamalar orasidan ortiqchasini tanlaydi va nima uchun ortiqcha ekanligini izohlaydi.

Masalan, birinchi qatorda berilgan tushunchalar salib yurishlariga taalluqli bo'lib, ular orasiga Koreya mavzusidagi "ilohiy maskan" tushunchasi, to'rtinchi qatorda esa Vizantiya madaniyatining ko'zga ko'ringan vakillari orasiga imperator Irakliy chalg'ituvchi so'z sifatida kiritib qo'yilgan. O'quvchi o'z javoblarini izohlaydi va kamchiliklari bo'lsa, o'qituvchi tomonidan to'ldirilish boriladi.

3-topshiriq. "Muvofiqlashtiring" metodi. Mazkur metodning maqsadi takrorlash darslarida hamda darsning mustahkamlash qismlarida o'quvchilarning bilimlari va ko'nikmalarini mustahkamlab, ularning mustaqil ishlay olish ko'nikmasini yanada rivojlantirishdir.

1	Ruhoniylarga uylanishning taqiqlanishi	A	Daosizm
2	Papa tomonidan kishilarga qilgan va hali qilmagan gunohlarni kechish uchun pulga yoki katolik cherkovi oldidagi xizmatlari evaziga berilgan yorliq	B	Tovar xo'jaligi
3	Mahsulotlarni bozorda sotish yoki ayirboshlash uchun ishlab chiqaruvchi xo'jalik	C	Jonka





4	O'rta yer dengizi (O'rta dengiz) sohillari bo'ylab joylashgan italiyalik savdogarlarning savdo manzilgohlari	D	selebat
5	Xitoyliklarning 600–700 kishi va yana ko'plab yuk sig'adigan yirik kemalari	E	Mozaika
6	Koshin tosh, yog'och, marmarlar, rangli shishalardan ishlangan naqsh, tasvir	F	Indulgensiya
7	Abadiylikni va'da qiluvchi, hokimiyat, boylik va shon-shuhratga ruju qo'yishni qoralaydigan, tenglikka chaqiruvchi ta'limot	G	Faktoriyalar

Javoblar:

1	2	3	4	5	6	7
D	F	B	G	C	E	A

4-topshiriq. “Quvnoq alifbo” metodi. Bu metodni qo'llash uchun o'qituvchi doskaga yakunlanayotgan bobga doir biror-bir tarixiy shaxs, tushuncha yoki atamaning nomini yozadi va izohini og'zaki aytadi. Tarixiy shaxs, tushuncha yoki atamaning nomi qanday harf bilan tugasa, navbatdagi o'quvchi shu harf bilan boshlanuvchi so'z aytadi va o'yin shu zaylda davom etadi. Masalan:

1. **Fridrix** (bolalar salib yurishi vaqtida bolalarni sotib yuborgan qulfurushlarni qo'lga olib, jazolagan german imperatori) – **xalfa** (o'rta asrlarda hunarmand ustalarning yaqin shogirdlaridan bo'lgan, ularning muddati kasbning murakkabligiga qarab 2–7 yil bo'lib, nodir buyum yasash va uni sex oqsoqoli sinovidan o'tkazish bilan tugagan) – **Angel** (Vizantiyada ukasi tomonidan taxtdan tushirilib, ko'ziga mil tortilgan hukmdor Isaak II Angel) – **Lyudovik IX** – **krest** (salib – xristianlikning asosiy timsollaridan biri, pravoslav va katoliklarda diniy sig'inish buyumi) – **Tevton** (uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordeni, muqaddas Bibi Maryamga bag'ishlangan; undagi ko'pchilik ritsarlar Germaniyadan bo'lgani uchun uni nemis (lotincha “Tevton”) ordeni deyishgan) – **Nuriddin** (salibchilarga qarshi kurashgan qahramonlardan biri – Nuriddin Zankiy; u salibchilarni Sharqdan butunlay surib chiqarishni maqsad qilgan; u salibchilar tuzgan Antioxiya knyazligining katta qismini bosib olgan) – **nemis ordeni** – **sanskrit** – **tampliyer** – **rektor** – **rabod** – **darvoza** – **Ajanta** – **autodafe** va hokazo.

2. **Salib** (Rim papasining chaqiruvi bilan Sharqqa yurishga o'tlangan kishilar matodan “xoch”, ya'ni salib shaklini qirg'ib, o'z kiyimlariga tika boshlaydilar, ayni shu sababli yurish qatnashchilari “salibchilar”, yurishlarning o'zi esa “salib yurishlari” nomini oladi) – **bozor** (savdo-sotiq amalga oshiriladigan joy) – **ratusha** (shahar kengashi binosi) – **arbalet** (salib yurishlari natijasida salibchilar Sharqning yuksak madaniyati bilan tanishib, texnika sohasida o'zlashtirgan mexanizmlashgan o'qotar qurol) – **tovar** (tovar xo'jaligi – mahsulotlarni bozorda sotish yoki ayirboshlash uchun ishlab chiqaruvchi xo'jalik) – **ritorika** – **Avitsenna** – **algebra** – **Ahmad** (al-Farg'oniy) – **daosizm** – **Marko** (Polo) – **Oksford** – **Dast** (ibn Dast) – **tampliyer** – **rasadxona** – **ark** – **Kalidasa** – **al-Azhar** – **respublika** – **Alkuin** – **Novgorod** – **dahriy** va hokazo.

5-topshiriq. “Xronokross” metodi. Ma'lumki, tarixiy ma'lumotlar va dars mavzularining mazmunini ifodalashda sanalardan foydalaniladi, ya'ni sanalar har qanday voqeani, xronologik ketma-ketlikni aniqlashda, taqqoslash va solishtirish bilan o'rganishda asosiy





o'rin tutadi. Hozirgi kunda tarix darslarida o'quvchilarning ko'pchiligi sanalarni eslab qolish bilan bog'liq muammolarni o'rtaga tashlamoqda. Ana shu muammolarni tezroq hal etish uchun "Xronokross" metodi o'quvchilar uchun qo'l keladi.

"Xronokross" metodi orqali o'qituvchi o'quvchining tarixiy sanalarni qanchalik yodda saqlab qolganligini aniqlashtiradi va eslab qolish qobiliyatini yana ham kuchaytiradi.

Metodning maqsadi. Tarix darslari jarayonida ko'p uchraydigan sanalarni aniq va tez bayon eta olish.

Metodning qo'llanishi. Darsning har qanday bosqichi (kirish, o'tilgan mavzu, yangi mavzu, umumlashtirish va takrorlash)da qo'llash mumkin.

Namuna:

Savollar:

1. Abu Rayhon Beruniy tug'ilgan sanasini toping.
2. Yaponiyadagi Xeyyan shahri yong'in natijasida vayron bo'lgan yilni toping.
3. Yustinian I tomonidan "Ayo Sofiya" ibodatxonasi qachon bunyod etilgan?
4. Frank qirol ko'magida Italiyada Rim papalari davlati qachon tashkil topdi?

Yuqoridagi metod orqali o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jamlaydi va sanalarni yodda saqlashlariga erisha oladi. Mazkur uslublar ayniqsa o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda qo'llay olishlarida muhim ahamiyatga ega.

Xronokross

		7	
		7	
		3	
		7	

Javob:




		9	7	3
1	1	7	7	
	5	3	7	
		7	5	6

6-topshiriq. Atamalarga ta'rif bering.

Atama	Ta'rif
Tovar xo'jaligi	
Yarmarka	
Birja	
Bank	
Indulgensiya	
Interdikt	
Yeretiklar	
Inkvizitsiya	
Autodafe	



7-topshiriq. Ushbu jadvaldagi xaritalar qaysi mamlakatlarga tegishli ekanligini topganingizdan so'ng, bu mamlakatlarning madaniy sohada erishgan yutuqlarini yozing va taqqoslab fikr bildiring.

T/r	Kontur xarita	Qaysi davlatga tegishli?
1		
2		
3		

II yarim yillik uchun nazorat ishi materiali

O'quvchilarda tarixiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida yozma tarzda nazorat savollari beriladi.

Namuna:

1-variant

1. Hindiston – “ming ajoyibotlar mamlakati” mavzusining mazmun-mohiyati haqida o'z fikrlaringizni yozing.
2. Salib yurishlari boshlanishining sabablari va uning oqibatlarini tahlil qiling.
3. Arab xalifaligi madaniyatining rivojida o'rtaosiyolik allomalarning o'rni.

2-variant

1. Amerika xalqlari madaniyati haqida o'z taassurotlaringizni yozing.
2. O'rta asrlar Osiyo va Yevropa shaharlarining o'ziga xos jihatlari.
3. Yevropaning o'rta asrlar madaniyati haqida ma'lumot bering.






BAHOLASH


Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayon.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida ko'plab pedagogik usul va uslublar qo'llansa-da, asosiy maqsad – o'quvchilarning dastur materialini mazmunini o'zlashtirishlari, mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttirish hamda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga erishish. Darsda qo'llanadigan usul va uslublar natijasida o'quvchi yakka holda, juft bo'lib va guruhda ishlashga o'rganadi, mustaqil fikrlaydi, izlanadi, tajriba o'tkazadi hamda olgan bilimlarini hayotda qo'llay oladigan shaxsga aylanadi.

Milliy o'quv dasturi asosida o'quvchilarning ta'limiy natijalarini baholash va nazorat qilish muhim hisoblanadi.



O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash uchun har biri aniq shakllarda amalga oshiriladigan 3 xil usul qo'llanadi:



1. Diagnostik (boshlang'ich) baholash. Diagnostik baholash shakl jihatidan kirish bo'lib, o'quvchi kompetentligining qay darajada shakllanganligini aniqlash uchun xizmat qiladi. U o'quv yili boshida o'tkaziladi va yil yakunida kutilgan natijalar – o'quvchining erishgan yutug'ini aniqlashga imkon beradi. Diagnostik baholash natijalari tasvir shaklida qayd etilib, umumlashtiriladi va o'qituvchiga ta'lim vazifalari, o'quvchi uchun o'quv masalalarini belgilash mobaynida o'quv jarayonini takomillashtirish va tuzatishlar kiritish uchun asos bo'ladi. Demak, boshlang'ich baholash ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni va metodlari, shakllarini tanlash imkonini beradi.

2. Formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash. Formativ baholashning maqsadi o'quvchining materialni o'zlashtirishdagi individual o'ziga xosligi va yutuqlarini aniqlash, shuningdek, kutilgan natijalarga erishmogi uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shaklan u ham kirish (o'rganilayotgan mavzuning boshida), ham kundalik (o'quv jarayonida) bo'lishi mumkin. O'qituvchi formativ baholashdan o'qitishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish uchun, rejalashtirishga o'zgartishlar kiritish uchun, o'quvchilar esa bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilash uchun foydalanadilar. O'quvchining qobiliyat darajasi emas, konkret ishi baholanadi.



Formativ baholashning asosiy maqsadlari:

muntazam ravishda sinfdagi o'quvchilarni baholab borish orqali ular qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtirayotgani yoki o'zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashlari kerakligi haqida ma'lumot beriladi;

biror-bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilarining shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganligi, qanday xatolarga yo'l qo'yayotgani haqida ma'lumot olishi va zarur bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o'tkazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Formativ baholash summativ baholashdan farqli ravishda bevosita o'qituvchi tomonidan asosan norasmiy shakllarda (kuzatish, og'zaki savol-javob qilish, kichik hajmli testlar olish, yozma ishlar va h.k.) o'tkaziladi. Formativ baholash jarayonidan olingan xulosalar asosida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o'zgartirishlarni kiritadi. Formativ baholashdan keyin o'quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi. Formativ baholash asosan kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya'ni ushbu baholashda jurnalga baho qo'yish talab etilmaydi. O'qituvchi o'z xohishi va maqsadiga ko'ra, bahoni jurnalga qo'yish yoki qo'ymaslikni o'zi hal qiladi.

Formativ baholashda qo'llanadigan usullar va vositalar. Tarqatma shakldagi topshiriqlar formativ baholashda eng qulay vosita hisoblanadi. Chunki:



Tarqatma shakldagi topshiriqlar darslik asosida tuziladi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.



Tarqatma shakldagi topshiriqlar o'z navbatida darslikdan mustaqil bo'ladi, dasturda nazarda tutilgan malakalarni shakllantirish uchun qo'shimcha vosita ham bo'la oladi.



Tarqatma shakldagi topshiriqlar har bir o'quvchiga moslab ishlab chiqilishi ham mumkin.



Tarqatma shakldagi topshiriqlarda savol berishning turli usullaridan foydalanish mumkin:

- qisqa javob talab qiluvchi savol;
- bo'sh o'rinlarni to'ldirish;
- muqobil javobli test;
- to'g'ri / noto'g'ri;
- moslashtirish;
- ko'p tanlovli test.

Tarix fanidan tarqatma shakldagi topshiriqlarni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi:

o'quvchilar tarix fanidan egallashlari kerak bo'lgan ko'nikma(lar) aniqlanadi;

ko'nikmani egallash uchun o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan vazifa va topshiriqlar belgilanadi;

vazifa va topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar yakka, juf yoki guruh bo'lib harakat qilishlari mumkin, shulardan biri tanlanadi;

topshiriq va savollar ishlab chiqiladi;

topshiriq va savollarni ishlab chiqishda o'quvchilarning turli bilim darajasini hisobga olish imkoniyati ko'rib chiqiladi;

tezroq bajarib qo'yish mumkin deb qaralsa, asosiy savol va topshiriqlarga qo'shimcha topshiriqlar ham kiritiladi.

Baholash ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta'limga nisbatan motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Baholash o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu jarayonning faol ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda konstruktivistik yondashuvdan baholash jarayonida foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin, axloqiy fazilatlarining shakllanishini baholash usullari tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak.



3. Summativ (umumlashtiruvchi, jamlovchi) baholash.

Summativ baholashning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarga o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga;
- o'z muvaffaqiyatlarini baholashga;
- maqsadli standartlarga erishishga;
- maqsadli standartlarga erishish uchun chuqur bilim olish yoki kuchni to'g'ri sarflash va yo'naltirishga yordam beradi.

O'qituvchilar ta'lim berish jarayoniga o'zlarining ijodiy usullarini kiritishi mumkin. Bunda an'anaviy viktorina yoki yozma hisobot shaklidagi sinov variantlaridan chiqqan holda summativ baholashdan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- o'quvchilarni o'quv dasturida ko'rsatilgan va yosh xususiyatiga mos keladigan ma'lumotlar bo'yicha baholash uchun summativ baholash strategiyalari tanlanadi. Tanlangan baholash strategiyalari o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish uchun to'g'ri aniqlay oladigan parametrlarga ega bo'ladi;
- o'quvchilarni baholash jarayonida usullarni to'g'ri tanlash hamda ulardan maqsadli va samarali foydalanish har bir o'quvchiga intellektual imkoniyatlari, iqtidor va salohiyati, olgan bilimlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni baholashning bir necha usullarini, masalan, test, kichik sahnaviy ko'rinish shaklidagi o'yin yoki shaxs obrazini yaratish va boshqalarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

O'quvchilarning saviyasini summativ baholash yo'li bilan aniqlashga misollar:

- 1) yozma baholash: o'quvchilarga mustaqil ijodiy ish sifatida ma'lumotli yoki tahliliy esse yozish vazifasini topshirish mumkin;
 - 2) unumlilikni baholash: o'quvchilar o'z iqtidorlarini ko'rsata oladigan faoliyat yoki vazifalarni bajarishi kerak;
 - 3) standartlangan baho: o'quvchilar berilgan o'quv dasturi asosida tuzilgan imtihon, sinovlarni topshiradilar, yil davomida bilim sifati o'quvchilar bilan hamkorlikda baholab boriladi;
 - 4) og'zaki baho: bayon qilish yoki taqdimot tayyorlash sifati baholanadi.
- O'qituvchilar bu summativ baholashni o'z sinfidagi o'quvchilariga qo'llay oladi. O'quvchilarning o'quv jarayoniga kirishuvchanligi, ularning bilim olishda faol qatnashishi o'qituvchi uchun ham, o'quvchining o'zi uchun ham muhim.





O'quvchilarning individual ta'limiy yutuqlarini baholash

T/r	Baholash shakllari	Ish turlari	Yakuniy bahodagi salmoq
1	Kundalik baholash 10%		
1.1	O'qituvchi mustaqil aniqlaydi	Og'zaki javob, guruh / juftlik ishining taqdimoti, yozma sinf / uy ishi	10%
2	Oraliq baholash 70%		
2.1	Yozma ishlar / manbalar bilan ishlash	Turli xildagi esse, referatlar yozish, analitik ish, testlarning har xil turlari, insholar va boshqalar	20%
2.2	Og'zaki shakllar	Axborot, prezentatsiya, hisobot, savollarga javoblar	15%
2.3	Loyihaviy ishlar / tadqiqot ishlari	Tadqiqot hisoboti, tajriba natijalari bayoni, laboratoriya ishlari va boshqalar	20%
2.4	Portfolio	Prezentatsiya / portfolio orqali o'zining o'quv yutuqlarini nashr qilish	15%
3	Summativ baholash 20%		
3.1	Tematik, chorak, yarim yillik, yillik tekshirish / nazorat ishlar	Test, yozma ishlar va boshqalar	20%

Blum taksonomiyasi. Tarix fanida o'quvchilarning tarixiy bilimlarini baholashda "Blum taksonomiyasi" modelidan foydalanish yuqori samara beradi.




Topshiriqlarni bajarishda tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashga yordam berish maqsadida amerikalik psixolog Benjamin Samuel Blum ta'lim jarayonidagi vaziyatlarda talab etiladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatining turli darajalarini tasniflash uchun o'z usulini ishlab chiqdi.

1950-yillarda Benjamin Samuel Blum taksonomiyasi barcha o'qituvchilarga ta'lim maqsadlari haqidagi umumiy lug'at bo'ldi. "Blum taksonomiyasi"da oltita daraja bo'lib, ularning har biri o'quvchilardan yuqori darajadagi abstraksiyani talab qiladi. O'qituvchi sifatida siz o'quvchilarni taksonomiyaga ko'chirishga harakat qilishingiz kerak.

Bunda bilimlarni baholash uchun beriladigan topshiriqlar yuqori darajada, ya'ni tahlil qilinadigan, qiyoslanadigan bo'lishi kerak.



Blum taksonomiyasiga ko'ra:**Eslab qolish**

Blum taksonomiyasining eslab qolish darajasida savollar faqat o'quvchining dars davomida olgan ma'lumotlarini tekshirish uchun beriladi. Masalan: "O'quvchi ma'lum bir urush tarixini eslab qoldimi?" yoki "Jahon tarixidagi muayyan davrlarda hukmronlik qilgan hukmdorlarni biladimi?"

Shuningdek, bilim darajasi o'quvchilar o'qitiladigan fanlarning asosiy g'oyalarini bilishini ham o'z ichiga oladi.

Quyidagi kalit so'zlarni qo'llab bilim darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *kim?, nima?, qachon?, qanday topish?, qayerda?, nimani tanlash?, nima uchun belgini aniqlash?, nima uchun?, aytib berish, ko'rsatish.*

Tushunish

Blum taksonomiyasining tushunish darajasi o'quvchilarni faktlarni eslab qolish va ma'lumotlarni tushunishga undaydi. Bu darajada o'quvchilar faktlarni talqin qilishlari mumkin. Masalan, turli xil tarixiy voqealarni nomlash o'rniga o'quvchilar tarixiy voqealarning mohiyatini tushunishlari mumkin.

Quyidagi kalit so'zlarni qo'llab tushunish darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *solishtirish, taqqoslash, izohlash, kengaytirish, bog'lash, ko'rsatish, eslab qolish, namoyish qilish, tushuntirish, umumlashtirish, ko'rsatib belgilash, tasniflash.*

Qo'llash

O'quvchilar olgan bilimlarini qo'llashi yoki ulardan foydalanishi kerak. Ulardan sinfda olingan ma'lumotlar bilan bog'liq masalalarni hal qilish talab etilishi mumkin. Masalan, o'quvchidan jahon tarixida dinning davlat boshqaruvi va jamiyatdagi tarbiyaviy ahamiyati haqida so'ralishi mumkin. Yoki davlatlarning joylashuvini xarita orqali ko'rsatib berish so'raladi.





Quyidagi kalit so'zlardan foydalanish orqali qo'llash darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *qo'llash, tashkil qilish, foydalanish, ishlab chiqish, qurish, intervyu, tajriba qilish, tanlash, qaror qabul qilish.*

Tahlil

Tahlil darajasida o'quvchilar bilim va ko'nikmalardan tashqariga chiqishlari va muammoni tahlil qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni ko'rishlari kerak. Masalan, o'qituvchi salib yurishlarining Yevropa va Sharq davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'sirini so'rashi mumkin. Bunda o'quvchilardan jarayonni tahlil qilish va ushbu tahlil asosida xulosa chiqarish talab qilinadi.

Quyidagi kalit so'zlarni qo'llab tahlil darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *tahlil, tasniflash, tasniflarni taqqoslash, ajratishni o'rganish, soddalashtirish, mavzu munosabatlari, farqlarni ajratish, so'rov, sabab, xulosa, tekshirish.*

Baholash

Blum taksonomiyasining navbatdagi darajasi baholashdir. Bu yerda o'quvchilar ma'lumotni baholashlari va muallif taqdim etishi mumkin bo'lgan (taqdim etgan) ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida xulosaga kelishlari kerak.

Misol uchun, o'quvchidan hukmdorlarning faoliyatini baholash talab etiladi. Unga ko'ra, ikki hukmdorning davlat boshqaruvidagi yoki olib borgan janrlaridagi harakatlari baholanadi. Buni o'quvchilar o'rtasida o'zaro muhokamalar uyushtirish orqali ham tashkillashtirish mumkin.

Quyidagi kalit so'zlarni qo'llab baholash darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *oqlash, mukofotlash, fikrini izohlash, rad etish, qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, mezonlar, isbotlash.*

Ijodiy ish

Blum taksonomiyasining yuqori darajasi ijodkorlikdir. Bunda o'quvchilar mavzu bo'yicha olgan bilimlari yuzasidan bir qancha manbalar orqali o'z fikrlarini mustaqil tarzda yozma, og'zaki yoki sahna ko'rinishlari orqali bayon qiladi. Masalan, o'quvchi o'rtaosiyolik allomalarning arab sivilizatsiyasidagi o'rni haqida mustaqil tarzda esse yozishi yoki biron-bir tarixiy voqeani sahna ko'rinishlari orqali namoyish qilishi mumkin.

Quyidagi kalit so'zlarni qo'llab ijod darajasiga doir savollar tuzish mumkin: *tanlash, fikrini izohlash, tavsiya qilish, oqlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va boshqalar.*



JARIX FANIDAN MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI BO'YICHA O'QITUVCHILARGA TAVSIYALAR

Masofaviy ta'lim internet texnologiyasiga asoslangan bo'lib, bu o'qitish yakka tartibdagi, an'anaviy ta'lim sharoitida ishtirok etmagan, ya'ni sinf xonasida shaxsan bo'lmagan o'quvchilarga qaratilgan. Masofaviy o'qitish texnologiyasi bu – inson va texnik resurslarni, ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda ta'lim xizmatining butun jarayonini yaratish, qo'llash va ommaboplashtirishga qaratilgan tizimli yondashuv, uning vazifasi bilvosita individuallashtirilgan ta'lim tizimida o'qitish shakllarini maqbullashtirishdir. Ta'lim axboroti deganda muayyan faoliyat turini amalga oshirishda qo'llash uchun o'quvchiga berish kerak bo'lgan bilimlar tushuniladi.



Masofaviy o'qitish texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;
- ta'lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.

Masofaviy mashg'ulotlarni quyidagi maqsadlarda qo'llash afzal hisoblanadi:

- bevosita o'qitish, ayniqsa, oldindan yozib olingan yuqori sifatli tarkib bilan;
- anglash / mustaqil o'rganishga qaratilgan mashqlar;
- o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari;
- o'qituvchi tomonidan sinfda tushuntirilgan mavzular bo'yicha amaliyot va mashqlar;
- yozma ishlarni bajarish;
- masalalarning yechimini topish;
- darslik bilan ishlash yoki badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish;
- o'quvchilarning bilimlarini tekshirish – bu onlayn vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Aralash ta'limning “masofaviy” komponentini yengillashtirish uchun barcha o'quvchilar quyidagilarni aniq tushunganiga ishonch hosil qiling:

- o'qituvchi tomonidan yaratilgan material bilan tanishish imkoniga qanday erishish mumkinligini;
- har xil turdagi o'quv topshiriqlarini qanday bajarish lozimligi, agar kerak bo'lsa,



keys texnologiya, tarmoq texnologiya ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Jumladan, TV-texnologiyada o'quvchilarga o'quv-uslubiy materiallarni yetkazish va doimiy o'qituvchi-tutor maslahatini tashkillashtirish maqsadida televideniye tizimidan foydalaniladi. Ushbu ta'lim turi tegishli tartibda belgilangan o'quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari asosida olib boriladi.

Bugungi kunda zamonaviy o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini qo'llash, zamonaviy yondashuvlar asosida shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyat talablariga mos ravishda ta'lim sifatini oshirish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni internet turli sohalarga tatbiq qilindi.

Chunonchi, internet texnologiyalariga masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron do'konlar va boshqalarni ham misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, masofaviy o'qitish tizimida yangi elektron kitoblarga alohida talablar qo'yiladi. XXI asrda maktab ta'limi maqsadlari ham o'zgarib, o'quvchilarda savodxonlik, kompetensiyalar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Masofadan o'qitishni tashkil etishning hozirgi zamon modellari asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari o'ziga xos afzalliklarga ega. Birinchidan, masofadan o'qitish asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf-xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh bo'yicha cheklanishlarini istisno qilish mumkin.

Bugungi kunda masofaviy o'qitishning eng qulay ko'rinishlaridan biri bu – sinxron tarmoq texnologiyalaridir. Sinxron tarmoq texnologiyalari zamonaviy masofaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, bunda ta'lim ishtirokchilari o'quv jarayonida bir-biridan uzoq hududda joylashgan bo'ladi. Sinxron texnologiyalar videokonferensiya vositalari va birgalikda ishlash uchun qo'shimcha jihozlardan foydalangan holda virtual sinflar yaratishga asoslangan. Sinxron texnologiyalar bir vaqtning o'zida virtual sinfdagi barcha o'quvchilarning qatnashishlarini talab qiladi va bir mashg'ulot davomida o'qitishning turli modellarini birga qo'shib olib borish imkoniyatini yaratadi. Ushbu jarayonda virtual seminarlar, prezentatsiyalar va ma'ruzalar o'tkazishni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o'rinda aytilish mumkinki, umumta'lim

uy vazifasining kompyuterdan uzoqda bajarilayotganligini tasdiqlovchi hujjatlarni qanday taqdim etishni, masalan, jismoniy mashqlarning yoki biron-bir amaliy faoliyatning fotosurati yoki videoyozuvi taqdim etilishi kerakligini;

- har xil turdagi bajarilgan topshiriqlarning materiallarini o'qituvchiga qanday yetkazish kerakligini;

- o'qituvchidan qanday fikr-mulohaza (shu jumladan, qo'yilgan baholarni tushuntirishini) olish va ushbu mulohazalarga qanday javob berish kerakligini.

Bugungi kunda masofaviy ta'limning texnologik platformalari asosan TV-texnologiya (telekommunikatsion texnologiya),



maktablarning o'quvchilari uchun tarix fanini o'qitishni masofaviy ravishda tashkil etishning bir qancha afzalliklari mavjud. Chunonchi, o'quvchiga qulay sharoit va muhitda ta'lim olish, mustaqil dars qilish vaqti va yo'nalishini tanlash (videodarslarni takror ko'rish mumkin) imkonini beradi. Masalan, u kun bo'yi turli fanlarni yoki bittasini, masalan, tarix fanining bir davrini o'rganishi, darslikdagi ma'lumotlarni o'qishi, biror mavzu bo'yicha videotaqdimotlarni tomosha qilishi, topshiriqlarni bajarishi mumkin. O'quvchilar tarix darslarini qilishda otana – oila a'zolari ko'magidan foydalanishi, o'zini erkin (noto'g'ri javob berib yoki vazifani noto'g'ri bajarib qo'yish xavotiri bo'lmaydi) his qilishi mumkin.

Masalan, tarix fanidan o'quv materialini o'zlashtiradigan, buning uchun ko'p vaqt sarflaydigan bolalar maktabda umuman hech narsa qila olmasliklari mumkin, ammo tarix fanidan tashkil etilgan masofaviy ta'limda ular o'zlarini to'liq namoyon qilishlari uchun imkon tug'iladi. Ya'ni bu jarayonda darsning tugab qolishidan xavotirlanib, darslikdan yoki partadoshidan ko'chirishga hojat qolmaydi, aksincha, eng katta yordamchi resurs – internetdan foydalanib, mustaqil bilim olish va izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa o'quvchida mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi boshqarish va mediasavodxonlik ko'nikmalari rivojlanadi, bu nafaqat o'quvchining maktabdagi, balki keyingi kasbiy faoliyati va hayot tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masofaviy ta'lim jarayonida ishtirokchilarning AKTdan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi, axborot makoni va ijtimoiy tarmoqlarda ishlash madaniyati oshadi.

Masofadan o'qitish davrida ham o'quvchilar o'zlarining o'qituvchilari bilan quyidagi vositalarda aloqa o'rnatishlari mumkin:

1. Tarix fanini o'qitishning masofaviy shakllaridan biri bu – o'qituvchining **Zoom** dasturi orqali jonli mashg'ulotlarni yo'lga qo'yishidir. Zoom jonli video oqimi, ekranni almashish, guruhlararo muloqot va munozaralar uyushtirish imkonini beradi. Zoom vositasida ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida jonli muloqot, ma'lumot yetkazish, topshiriqlar berish, tezkor xabarlashish, videoqo'ng'iroq va ichki ekran almashish kabi jarayonlarni amalga oshirish mumkin. Shuni yodda tutingki, Zoom videokonferensiya tizimi ayniqsa kichik yoshdagi bolalar, o'qiy olmaydigan yoki ko'rmaydigan va muhokama yurita olmaydigan alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan munozara tashkil qilishda juda samaralidir.

2. Masofadan o'qitish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarib, **elektron pochta**dan xabar jo'natish orqali o'zaro axborot almashishni amalga oshirishlari mumkin.

3. O'quvchi o'qituvchisi bilan videosuhbat (videochat) boshlashi uchun o'qituvchi **Google Hangouts** dasturiy ta'minotida bo'lishi va o'zining onlayn ish soatlarini o'rnatishi lozim. O'qituvchi hatto butun soat davomida videokonferensiya kanaliga ega bo'lishi va o'quvchilar so'rovi qabul qilingandan keyin qo'ng'iroqqa qo'shilishi va undan chiqishi mumkin.

4. Tarix fanini o'qitishda sinxron qo'llab-quvvatlashning yana bir usuli ijtimoiy tarmoqlarda jonli savol-javobni yo'lga qo'yishdir. **Twitter** internetda o'qitish bo'yicha foydalanuvchilarga cheklovsiz kirish imkoniyatini beradi.



Videotopishmoq metodidan mavzuga oid videotasvirlar mavjud bo'lgan O'zbekiston va jahon tarixi darslarida foydalanish mumkin.

Nazariy jihatdan umumiy o'rta ta'limga mo'ljallangan texnologiyalar o'qituvchilardan onlayn kurslarni yanada qiziqarli tashkillashni talab etadi. Bunda yana bir muhim jihat ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni tekshirish va baholash jarayonidir. Tarix fanini o'qitishning masofaviy shaklida o'quvchilarni baholashning bir nechta variantini taklif etish mumkin:

1. Gibrid ta'limda o'quvchilar fanning bir qismini shaxsan, boshqa qismini esa onlayn rejimda o'qiydi. Yozma ma'ruzalar, amaliy topshiriqlar yoki bir nechta tanlov testlari kabi muayyan topshiriq turlaridan foydalangan ma'qul.

2. O'quvchilar munozara yoxud yozma topshiriqning o'rniga kichik guruhlariga bo'linib yoki butun sinf bo'lib vebinar o'tkazishlari mumkin. YouTube Live bilan videokonferensiya va veb seminar davomida o'quvchilar kompyuter ekranini baham ko'rish, o'zlari yoki boshqa ishtirokchilarning ovozi yoki videolarini sozlash va suhbat panelidagi javoblar yoki havolalarni joylashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, YouTube Live sessiyani sakkiz soatgacha yozib oladi, keyin ularni talabalarning YouTube kanallariga saqlaydi, ular tayyor bo'lganda tahrirlash yoki joylashtirish mumkin.

3. Oldindan nazorat ishida tushadigan savollarning taxminiy variantlari beriladi. Masalan, 400–500 ga yaqin tarixga oid tushunchalar oldindan beriladi, bu savollar nazorat ishida tushadigan topshiriqlarning 70% ini tashkil etishi kerak. Bu variant o'quvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'rish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Tushadigan savollarning variantlari oldindan tashlab berilishi ortidan muayyan tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun nazorat ishi belgilangan paytda onlayn nazorat ishining cheklangan vaqt doirasida o'tkaziladi, o'quvchilarning boshqa resurslardan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, masofaviy ta'lim muhiti zamonaviy axborot-kommunikatsiya va vebtexnologiyalar imkoniyatlariga ko'ra rang-barangligi, kontentning barcha yoshdagi iste'molchilarga moslashtirilganligi bilan ajralib turadi. O'quvchilarga sharoit va vaziyat taqozosi bilan yuzaga keladigan holatlarda (masalan, karantin sharoitida) mustaqil ta'lim olishga ko'maklashish, elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, yangiliklarni tezkor yetkazish imkonini berishi ushbu jarayon ishtirokchilarida qiziqishni kuchaytiradi. Foydalanishning oson va oddiyligi, yoshidan qat'i nazar, barcha o'quvchilar va ota-onalarga masofadan turib yordam berish imkonini taqdim etadi.





7-SINF JAHON TARIXI FANIDAN LOYIHA ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarix fani o'qituvchilari o'quv loyihani bajarish davomida o'quv faoliyatining turli ko'rinishlari, jarayoni va natijalariga nisbatan har bir o'quvchining munosabat-qiziqishini aniqlashga yordam beradi. Tarix darslari mashg'ulotlarini loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchi faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to baholash uchun biror masalani hal etish usulini taqdim etishgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi texnologiyalardan biridir.

Loyiha deganda o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida o'quvchi tomonidan bajariladigan intellektual-amaliy tUSDagi ijodiy topshiriq – vazifa tushuniladi.

Loyiha texnologiyasi o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan texnologiyadir. Bu o'quvchi faoliyatini kompleks umumlashtiruvchi, bilimni amaliy tajriba bilan birlashtiruvchi jarayondir.

Loyihalash deganda fikr-g'oya va uni qandaydir ko'rinishda (harf, son, matn, tasviriy chizma, maket, buyumda) ishlab chiqish jarayoni tushuniladi.

Loyiha texnologiyasi esa o'quv jarayoniga loyihalar metodi asosida maqsadli topshiriqlarni tatbiq qilishga asoslangan faoliyat turi hisoblanib, uning natijasi sifatida loyiha papkasi (loyiha portfoliosi), ya'ni loyihani bajarish davomida to'plangan hujjatlar, ma'lumotlar, ko'rgazmali vositalarning yig'ma jildi yuzaga keladi. Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi, muammoni o'zgartiruvchi faoliyat.

Loyihalash texnologiyasida ta'lim beruvchi:

- bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, yangilarini qidirish, namuna bo'yicha harakatlarni bajarish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi;
- faqat bilimning bir qismini ma'lum qiladi, ta'lim oluvchilarni bilimni izlab topishga yo'naltiradi, turli muammoli vaziyatlarda o'qish-o'rganish jarayonini tashkillashtiradi;
- ta'lim oluvchilarga muammolarni aniqlash va hal etish, faraz, vazifalarni ifodalashlarida yordam beradi.

Ta'lim oluvchilar:

- bevosita ta'lim beruvchi boshchiligida ma'lumotlarni tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, tayyor namuna bo'yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;
- ta'lim beruvchining kuzatuv ostida mustaqil taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, xulosa qiladilar, baholaydilar va tahlil qiladilar, muammoli holatlarni hal etadilar, nostandart topshiriqlarni va murakkablashtirilgan sharoitdagi amaliy harakatlarni bajaradilar;



o'zlari uchun yangi bo'lgan muammoli holatlarni hal etish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijalarga erishishning yo'l va vositalarini aniqlaydilar.

Loyiha texnologiyasini o'quv jarayoniga tatbiq etish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, ilmiy salohiyatni talab qiladi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotda qo'llash uchun o'qituvchilarda yetarli darajada ilmiy-amaliy ko'nikma bo'lishi kerak. Bunday malaka va ko'nikmaga ega bo'lish uchun o'qituvchi loyihalash metodi bo'yicha maxsus bilim olishi zarur. Tarix darslarini loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabning muammoni izlab topish, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) baholashgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi, aniq maqsadni ko'zlab maxsus tashkil etilgan o'quv faoliyatidir. Tarix o'qituvchisi eng avvalo o'qitishning loyihalash texnologiyalari to'g'risida tushuncha va ko'nikmaga ega bo'lishi zarur.

Loyihani bajarish orqali o'quvchi o'z kuchi va bilimlarini ishga soladi, o'zi erishgan natijani ko'pchilik oldida ko'rsatadi.

Loyihalar texnologiyasidan foydalanish tarix darslari doirasi bilan cheklanib qolmaydi, darsdan tashqari ishlarda ham bu metoddan foydalanish mumkin. Tadbirlar qat'iy rasmiylashmagani va qolipga solinmagani uchun ixtiyoriy, ko'ngilli bajariladi. Ularni bajarishda turli vositalardan foydalansa bo'ladi. Aynan loyihalash texnologiyasi orqali har bir ishni samarali amalga oshirish mumkin. O'qituvchi darsdan tashqari barcha ishlarning o'quv yiliga mo'ljallangan rejasini tuzadi. Tuzilgan ish rejasining amalga oshirilish muddatlari belgilanadi. Muddatlar qisqa (1 hafta), o'rta (1 oy), davomli (2–3 oy) hamda uzoq muddatli (o'quv yili davomida) bo'lishi mumkin.

Loyiha texnologiyasi bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitishni amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar darslarni rejalashtirish va tashkillashtirishda, nazorat va tahlil qilish hamda vazifalarni bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyihalash asosida o'qitish ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir vazifalarini hal etadi:

– loyiha asosida o'qitiladigan har bir ishtirokchida shaxsiy ishonchning ortishiga, o'zini o'zi namoyon qilishi va refleksiyasiga yordam beradi;

– darsda (yoki darsdan tashqari) amalda his qilish orqali o'quvchi o'zining kerakligi va o'ziga xosligini, omadli ekanligini va turli muammoli vaziyatlarni bartaraf qila olish qobiliyatiga egaligini bilishiga olib keladi.

Loyiha ilmiy-metodik, umumlashtirilgan, turkumlashtirilgan va uni samarali qo'llash doiralari belgilangan bo'lishi kerak. Innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi loyihalash metodini pedagogikada keng qo'llash imkoniyatini beradi.

Darsning ta'limiy maqsadi: loyiha texnologiyasidan foydalanib insoniyat tarixini davrlashtirish tamoyili bo'yicha G'arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan jahonda tarixchi olimlar tomonidan o'rta asrlar tarixi deb atalgan yangi davr boshlangani, bu davrda Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikada ko'plab muhim voqealarning ro'y berishi, madaniyat taraqqiyotidagi ajoyib yutuqlar, dunyoning turli hududlarida o'ziga xos sivilizatsiyalarning vujudga kelishi,





Yevropada asosan xristianlik, Osiyoda esa islom va buddaviylik dinlarining tarqalishi va rivojlanishi, dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro diplomatik munosabatlar haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilish orqali 7-sinf o'quvchisining bilim va dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini o'stirish.

Tarbiyaviy maqsad: tarixiy, madaniy-estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularni madaniy-ma'naviy merosni asrash ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- o'quvchilarda loyiha metodidan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarda ushbu mavzu yuzasidan foydalaniladigan manba, adabiyotlar haqida tasavvur hosil qilish;
- darsni tashkil etish bo'yicha zaruriy bilimlarni kengaytirish.

O'quvchilarga 7-sinf tarix darslarida loyiha asosida o'tilishi tavsiya etiladigan mavzular:

1. Vizantiya: Sharq va G'arb orasida.
2. Arab xalifaligi: islom dunyosining barpo etilishi.
3. Mo'g'ullar davlati.
4. Xitoy – "Osmonosti imperiyasi": yuksalish va tanazzullar.
5. Amerika o'rta asrlarda.
6. Yevropada o'rta asr shaharlarining o'ziga xosligi.
7. Osiyoning o'rta asr shaharlari.
8. Yevropaning o'rta asrlar madaniyati.
9. Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati.

O'quvchilarga tavsiya etiladigan loyiha taqdimoti shakllari:

- loyiha ishi bo'yicha yozma hisobot;
- loyiha yuzasidan ma'ruzaning ko'rgazmali prezentatsiyasi;
- rasmlar, bukletlar ko'rgazmasi;
- intervyu namoyishi;
- sahna ko'rinishi;
- hujjatli yoki badiiy film namoyishi;
- referat himoyasi;
- maket tayyorlash;
- slayd tayyorlash;
- publitsistik maqola yozish;
- ilmiy maqola yozish;
- hikoya yozish;
- jadval, sxema tayyorlash.



Tarix fani o'qituvchisining 7-sinf jahon tarixi darslarini loyiha texnologiyasi asosida tashkillashtirishi ta'lim tizimining mazmun-mohiyatini yoritib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr boy arxeologik topilmalar, yozma manbalar, hozirga qadar saqlanib kelayotgan me'moriy yodgorliklari bilan ahamiyatlidir. O'rta maktab ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda mavzularning ma'lum bir qismini loyiha texnologiyasi asosida tashkil qilish o'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Shu o'rinda namuna sifatida 7-sinf "Jahon tarixi" darsligidan "Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati" mavzusi loyiha metodi asosida o'rganish uchun tanlab olindi. Maktab o'quvchilari mavzular bo'yicha loyihani bajarishda maktabning boshqa fan o'qituvchilari, shuningdek, mahalliy olimlar, arxitektorlar, madaniyat xodimlaridan ham metodik yordam olishlari mumkin.





Pedagogik annotatsiya

Mavzu: "Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati".

Ishtirokchilar: 7-sinf o'quvchilari.

O'qitishning maqsadi: Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish.

Rejalashtirilayotgan o'quv natijasi: o'quvchilarning chuqur va zamonaviy bilimga, keng dunyoqarashga, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega kadrlar bo'lib yetishishi.

Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'linadi:

- muammo va vazifalarni aniqlash;
- vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish;
- o'z faoliyatini rejalashtirish, ma'lumot manbalarini aniqlash, tizimlashtirish va tahlil qilish;
- natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko'rinishda taqdim etish.

O'quvchilar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun quyidagi tayanch bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

a) tayanch bilimlar: arablar egallagan mamlakatlarda fan va madaniyatning uyg'unlashgan holda rivojlanishi; islom sivilizatsiyasining buyuk vakillari – buyuk allomalarimiz Muhammad al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning ilmiy-ijodiy faoliyati; Arab xalifaligi davri me'morchiligi, adabiyoti, she'riyati, aholining turmushi, shart-sharoiti;

b) ko'nikmalar: Arab xalifaligi davrida fan va madaniyat taraqqiyotining omillari, islom sivilizatsiyasining mashhur vakillari, ularning olamshumul kashfiyotlari, san'at, me'morchilikning o'ziga xos rivoji haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, tahlil qilish, manbalar bilan ishlash, ma'lumotlar yig'ish, qayta ishlash va taqdim etish; Arab xalifaligi davridagi fan va madaniyat taraqqiyoti tasvirlangan hujjatli film topish va namoyish qilish uchun tayyorlash, islom sivilizatsiyasining mashhur vakillari, ularning olamshumul kashfiyotlarini aks ettiruvchi rasmlar chizish; xarita bilan ishlash, buklet, maket tayyorlash.

Belgilari bo'yicha loyiha tavsifi:

- **turi:** ilmiy tadqiqotga asoslangan;
- **predmet va mazmun jihatdan ko'lami:** bir fan bo'yicha foydalaniluvchi monoloyiha;
- **o'quvchilarning o'quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri:** bevosita;
- **ishtirokchilar soni:** sinf o'quvchilari 2–3 ta ishchi guruhga bo'linadi, har bir ishchi guruhda 8 tagacha ishtirokchi bo'lishi mumkin (o'quvchilar ko'proq bo'lsa, loyiha yo'nalishlarini ko'paytirish mumkin);
- **bajarish muddati:** uzoq muddatli – 1 oy.

Loyihani bajarish tartibi: auditoriyadan tashqari mustaqil bajariladi. Loyihani bajarish jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, mavzu yuzasidan loyiha ishlanmalarini tanlaydilar, reja tuzadilar. Rejaga ko'ra har bir ishtirokchining aniq vazifasi belgilanadi va loyiha mahsuli oy oxirida – o'quvchilar va pedagog o'rtasida belgilangan kunda amalga oshiriladi.

Loyihaning baholanishi. Ishchi guruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a'zosi uchun): o'quvchilar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari uchun eng yuqori ball – 5; hisobot uchun eng yuqori ball – 5; loyiha taqdimoti va himoya qilish jarayoni uchun eng yuqori ball – 10.





Loyiha asosida o'qitish bosqichlari

Tayyorlov bosqichi: loyiha bilan tanishish; auditoriyadagi mashg'ulot vaqtida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Loyihani bajarish bosqichlari: auditoriyadan tashqari faoliyat davrida.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyiha va auditoriya mashg'ulotida o'quvchilarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

Loyiha asosida o'qitishni boshqarish:

O'qitish modeliga qisqacha tavsifnoma. Loyiha asosida o'qitish jarayonida quyidagilar qo'llanadi:

- matn va axborot manbalari bilan ishlash;
- loyiha yuzasidan ma'ruzaning ko'rgazmali prezentatsiyasini tayyorlash;
- mavzuga doir hujjatli film topish va namoyish qilish;
- islom sivilizatsiyasining mashhur vakillari, ularning olamshumul kashfiyotlarini aks ettiruvchi rasmlar chizish;
- xarita bilan ishlash;
- buklet tayyorlash;
- maket tayyorlash;
- mavzuga doir film taqdimoti;
- hisobot tayyorlash;
- taqdimot.

O'qitish shakllari: ommaviy, alohida, guruh.

Loyiha ishini amalga oshirish vositalari va jihozlari: loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatmalar; kompyuter, videoprojektor, videokamera, fotoapparat, doska, flomaster, skotch, rangli va oddiy qog'oz, rangli bo'yoq va qalamlar.

O'quv loyiha “Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati”

Kirish. Dunyo tarixida muhim o'rin tutuvchi islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishiga xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar qatori O'rta Osiyo xalqlari ham benihoya ulkan hissa qo'shganlar. Ana shunday buyuk ajdodlarimizning xizmatlari bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki butun jahonda e'tirof etilmoqda. Shuningdek, islom madaniyatining jahon xalqlari madaniyatiga ta'siri shunchalik beqiyoski, Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan tashqari, hatto ayrim Yevropa davlatlari ham ushbu ta'sirdan chetda qolmadi.

Madaniyat umuminsoniy hodisadir. Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millatning o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, o'rta asrlarning yetuk madaniyatlaridan biri bo'lgan Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlarining alohida o'rni va ulushi bor. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bu madaniyat Arab xalifaligi tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar xalqlari yaratgan umumiy madaniyat ekanligini, unda buyuk ajdodlarimizning ham hissasi ulkan ekanligini e'tirof etib o'tish bugungi kunda o'ta muhimdir.

Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi masala: 7-sinf o'quvchilari “Arab xalifaligi



“Mamlakatlari madaniyati” mavzusini turli manba va adabiyotlardan o‘rganib tushunchalar hosil qilgach, ma’lumotlar yig‘ish, ularni qayta ishlash va taqdim etish, Arab xalifaligi davri fan va madaniyat taraqqiyotiga oid hujjatli yoki badiiy film topish va uni namoyish qilish uchun tayyorlash, islom sivilizatsiyasining mashhur namoyandalari, ularning olamshumul kashfiyotlari aks etgan rasmlar chizish, xarita bilan ishlash, buklet, maket tayyorlash orqali ko‘nikma va malakaga, tarixiy davr haqida boy tasavvurga ega bo‘lish, shuningdek, buyuk ajdodlarimizning islom sivilizatsiyasining muhim ustunlaridan biri sifatidagi hissasini ilmiy-ijodiy jihatdan o‘rganish.

Loyiha maqsadi: mavzuni loyiha texnologiyasi asosida yoritib, yangi bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

Foydalanuvchilar: umumta’lim maktablarining tarix fani o‘qituvchilari va o‘quvchilari, shuningdek, tarixga qiziquvchi kishilar.

Bajarish muddati: 1 oy.

Ishtirokchilar soni: mustaqil belgilanadi.

Loyiha tuzilishi va mazmuni:

- kirish: ma’lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi;
- loyiha mavzusini yoritib beruvchi axborot;
- foydalanilgan manbalar ro‘yxati.

Tarix o‘qituvchisi ushbu mavzuni guruh bilan ishlashga kelishib oladi va kirish suhbatini boshlaydi. Kirish suhbatini “Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati” mavzusida bo‘lib o‘tadi. Suhbat mobaynida o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzu orqali loyiha faoliyatiga hozirlaydi. Kirish suhbatida o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha qanchalik bilim-ma’lumotga ega ekanligi, mavzuni qay tarzda qiziqarli o‘rganish mumkinligi aniqlashtirib olinadi. Tarix o‘qituvchisi “Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati” mavzusi orqali Arab xalifaligi davridagi fan va madaniyat taraqqiyoti, islom sivilizatsiyasining mashhur vakillari, xususan, o‘rtaosiyolik allomalarning olamshumul kashfiyotlari, ularning dunyo taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ilmiy-ijodiy jihatdan o‘rganish masalasini qo‘yadi. O‘quvchilar buni o‘rganish uchun loyiha rejalashtiradilar. Loyiha rejasining tub mazmuni mavzuni darslik matniga qaraganda yanada yorqin, batafsil, qiziqarli va chuqur o‘rganishdan iborat. Muhokama jarayonida tarix





o'qituvchisi o'quvchilarga "Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati" mavzusiga oid quyidagi adabiyotlarni misol tariqasida tavsiya etishi mumkin:

1. B. Abduhalimov Bayt ul-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – 208 b.
2. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 980 b.
3. Ma'naviyat yulduzlari. // To'plovchi va mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 400 b.
4. F. Sulaymonova Sharq va G'arb. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997. – 320 b.
5. O'zME, 5-tom. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 960 b.
6. P. Г. Ланда История арабских стран. – Москва: "Восточный университет", 2005. – 280 с.
7. К. П. Матвеев История Ислама. – Москва: "Восток-Запад", 2005. – 176 с.
8. <http://www.dic.academic.ru>
9. <http://www.evolutsia.com>
10. <http://www.ziyouz.com>
11. <http://www.xattot.uz>

Tarix o'qituvchisi o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini yanada orttirish maqsadida adabiyotlardan parchalar keltiradi.

Arab xalifaligi davrida taraqqiy etgan fanlar qatorida astronomiyani alohida ta'kidlash joiz. Xalifa al-Ma'mun davrida "Bayt ul-hikma" qoshida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona ham bunyod etilgan. Birinchisi 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Qasiyun tog'ida 831-yilda qad ko'targan. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini al-Ma'mun o'z saroyiga to'plagan Movarounnahr va Xurosondan kelgan astronomlar, jumladan, Muhammad (Muso) al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos al-Javhariy va boshqalar olib borganlar. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo'lgan. Rasadxona faoliyati haqida u "Bayt ul-hikma"ning mudiri – Muhammad al-Xorazmiyga hisobot berib turgan. Yahyo 831-yilda vafot etganidan so'ng al-Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatuv ishlarida faol qatnashadi. Xurosonlik olim Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy esa Damashq yaqinidagi Qasiyun tog'idagi rasadxonaning tashkilotchisi, rahbari va u yerda olib borilgan tadqiqotlarning ishtirokchisi bo'lgan.

Reja muhokamasi jarayonida mavzuga oid quyidagi jihatlar ajratib olinadi:

- islom sivilizatsiyasi erishgan yutuqlar va muhim kashfiyotlar;
- islom madaniyatining insoniyat rivojiga qo'shgan hissasi.

Shu orqali o'quvchilar o'rta asrlarda Osiyodagi umumiy vaziyat, o'sha davrda ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk allomalar, muhim kashfiyotlar, shaharlar taraqqiyoti, san'at, me'morchilikning o'ziga xos rivojlanishi, odamlarning kiyinishi, mehnat qurollari va buyumlari, o'zaro munosabatlari, o'y-fikrlari haqida tasavvurga ega bo'lishadi. Shu tariqa loyiha ustida asosiy ish – izlanish, tadqiqot faoliyati boshlanadi. Faoliyat boshidayoq o'quvchilar yangi ma'lumotlarni to'plashni, tahlil qilishni, tizimlashtirishni, rasmiylashtirishni o'rganadilar, asosiysi, izlanishlar davomida o'z imkoniyatlarini anglay boshlaydilar. Kichik guruh o'zlariga sardor saylaydi. Har bir ishtirokchining ishi taqsimlanib, o'qituvchi va konsultant bilan maslahat uchun uchrashuv vaqti kelishib olinadi.



Loyiha ishini bajarish jarayoni

O'rta maktab o'quvchilaridan tuzilgan guruh avvalo 7-sinf "Jahon tarixi" darsligidagi "Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati" mavzusini o'qiydi, keyin maktab, tuman, shahar ARMLaridan (ba'zi hollarda ota-onasi yordamida), ommaviy axborot vositalari, internet saytlaridan (informatika fani o'qituvchisi yordamida) qo'shimcha ma'lumotlar yig'ib chiqadi. Ishchi guruh tarixiy asar, roman, qissa, hujjatli va badiiy filmlar, shuningdek, internet saytlaridagi qadimgi islom sivilizatsiyasiga oid materiallarni o'rganib, ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan mashhur shaxslar, muhim kashfiyotlar, shaharlar taraqqiyoti, san'at, me'morchilikning o'ziga xos rivojlanishi haqidagi manbalarni to'plab, saralaydi.

Rasmlar yordamida bilim, malaka va ko'nikmalarni boyitish. O'quvchilarda mavzu bo'yicha tasavvur hosil bo'lgach, o'quvchi-rassom (ba'zi hollarda tasviriy san'at fani o'qituvchisi yordamida) "Bayt ul-hikmada ilmiy jarayon", "Ahmad al-Farg'oniy Bag'doddagi rasadxonada", "Olimlar suhbat", "Muhammad al-Xorazmiy tafakkuri", "Abu Rayhon Beruniy talabalar orasida", "Ming bir kecha" qahramonlari", "Granadadagi "Al-Hamro" saroyi", "Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi" va hokazo nomlarda mavzuning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan rasmlar chizadi. O'quvchilar chizgan rasmlarning izohlanishi va ularga sharh berilishi mavzuni mazmunan boyitib, yanada qiziqarliroq qiladi.

Masalan, "Ahmad al-Farg'oniy Bag'doddagi rasadxonada" tasviriga quyidagicha sharh berish mumkin: "Mahobatli Bag'dod rasadxonasi. Orqa fonda keng kitoblar javoni. Rasadxonada ayni qizg'in ish jarayoni ketmoqda: mashhur alloma Ahmad al-Farg'oniy – qo'lida astronomik asbob – qiziqarli mavzuda ma'ruza qilmoqda. Rasadxonaning boshqa tomonida usturlab yordamida mutaxassislar osmon jismlarini o'rganish ishlarini, yana bir tomonda esa bir guruh ilmi toliblar globus yordamida turli yozuv-chizuvlarni amalga oshirmoqdalar".

Tarixiy mavzuga oid rasmlar – tarixiy va badiiy asarlarni mutolaa qilish, tarixiy va hujjatli





filmlarni tomosha qilishdan hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarning qog'ozda aks ettirilishi. O'quvchi rasmlarni chizishda yolg'on aralashtirmasligi, haqiqiy tarixiy muhitni jonlantira olishi zarur. Rasm tasviri tagida mavzuni ochib beruvchi sharh keltirilishi va u faktlar asosida bo'lishi talab etiladi.

O'quvchilar Arab xalifaligi davridagi turli fanlar rivojiga oid ma'lumotlarni o'rganib boradi va ilmiy bilimlar taraqqiyotini tahlil qilib, geometriya, astronomiya, matematika, tibbiyot, san'at, me'morchilik sohalarida erishilgan yutuqlar haqida materiallar tayyorlaydi. Shu bilan birgalikda arab yozuvi turlari haqida ko'nikma hosil qilib, ba'zi yozuv namunalarini to'playdi. Musulmon xattotlari yozgan hujjatlarni portfolioga joylashtiradi.

Bukletlar yordamida bilim, malaka va ko'nikmalarni boyitish. Tavsiya etilgan adabiyotlar va media manbalardan foydalanib, guruh a'zolari birgalikda Arab xalifaligi davridagi turli fan sohalarini yutuqlarini aks ettiruvchi bukletlar tayyorlaydilar. Karton, oq qog'oz, yelim yordamida buklet tayyorlanib, unga o'quvchilar o'zlari chizgan yoki internetdan ko'chirib olingan rasmni yopishtirib qo'yadilar. Bukletdan mashhur allomalar – al-Xorazmiy, al-Beruniy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va boshqa mutafakkirlarning portretlari va ularning kashfiyotlariga doir rasmlar, "Bayt ul-hikma"dagi ilmiy jarayon aks etgan surat, islom me'morchiligining ajoyib namunalari tasviri va boshqalar o'rin oladi.

Maket tayyorlash orqali bilim, malaka va ko'nikmalarni boyitish. Guruhning qolgan a'zolari qadimgi islom me'moriy yodgorliklarini o'rganishga kirishadi. Turli hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan me'moriy inshootlarning qurilish tarixi va uslubini o'rganadilar. Media manbalardan foydalangan holda turli me'moriy yodgorliklardan rasm nusxalari ko'chirib oladilar. Rasmlarda hukmdor arklari, qal'a, maqbara, madrasa, masjid va minoralar tasvirlari aks etgan bo'ladi. Bu inshootlar qanday qurilganligi, qurilish ashyolari, ularning tarkibi, inshootlar devoridagi naqshlar, yozuvlar haqida ma'lumot tayyorlaydilar. Tayyorlangan materiallar asosida o'quvchilar karton, rangli qog'oz, yelim, rangli qalamlar, keskich pichoq, qaychi, chizg'ich, o'chirg'ich yordamida shu inshootlarning maketlarini yasaydilar.

O'quvchi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi yoki Qohiradagi "Hasan" masjidining maketini yasaydi. Unga kartondan tashqari yelim, qog'oz, plyonka, qum, taxta, har xil



Rasmlar




Bukletlar



Maket tayyorlash



Xarita yordamida



mayda toshlar kerak bo'ladi. O'rtacha kattalikdagi taxta maketning asosi sifatida olinib, karton inshoot shakliga moslab qirqilgach, shakllar yelimlanadi, inshoot ustiga gumbaz o'rnatilib, u ham yelimlanadi. Fasadini yasash uchun karton maketdan moslab eshik va derazalar qirqib ochiladi. Hovli qismida o'sha davrga moslab mayda toshchalarni yelimlab yopishtirib, supa hosil qilinadi. Atrofga daraxt shoxchalarini o'rnatish manzaraning yanada yorqinroq ko'rinishiga olib keladi. Shu tariqa inshoot tayyor bo'ladi. Shundan so'ng taxta plyonka bilan o'ralib, tagidan mixlanadi. Taxtaning chetlari kichik taxtachalar bilan ixotalanadi. Ixotalangan maydonning o'rtasiga inshoot maketi o'rnatiladi. Maket tayyor bo'lgach, uning tarixi va u bilan bog'liq qiziqarli voqealar aytib beriladi.

Film orqali bilim, malaka va ko'nikmalarni boyitish. Keyingi bosqichda o'quvchilar film namoyishi uchun tayyorgarlik ko'radilar. Eng avvalo shu davr va mavzuga oid badiiy yoki hujjatli filmlar topiladi va saralanadi. Kerakli filmlar topilgandan keyin ularning mavzuga doir qismlari qirqib olinadi. Qirqib olingan qismlarni birlashtirib, mavzuga oid bitta hujjatli film tayyorlash uchun kompyuter grafikasi (Ulead Video Studio yoki boshqa dastur)dan foydalaniladi. Qirqilgan videolar yuqoridagi dastur orqali birlashtirilib, yangi film yaratiladi. Mavzuga oid filmni tayyorlash uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi: Arab xalifaligi davridagi madaniy hayot rivoji, yurtimizdan chiqqan mashhur mutafakkirlar va ularning ilmiy merosi, bu davrda amalga oshirilgan kashfiyotlarning olamshumul ahamiyati.

Shuningdek, o'quvchilar ota-onalari yordamida o'zlari yashayotgan viloyat televideniyesiga tashrif buyurib, u yerdan mavzuga doir filmlarni olib ko'rishadi. Shu bilan birga, televideniye fondida saqlanayotgan mavzuga oid ko'rsatuvlarni ham ko'rib, o'zlari uchun xulosa chiqarib olishlari mumkin.

Xarita yordamida bilim, malaka va ko'nikmalarni boyitish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari ushbu davrga oid nazariy materiallarni o'rganish asnosida o'zlarining kartografik tasavvurlarini rivojlantirishi katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Chunki ulkan Arab xalifaligi hududidagi yirik shaharlar, madaniyat va san'at markazlari, mahobatli inshootlarning qayerda joylashganligi ularni qiziqitirishi tabiiy hol. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quvchilarning nazariy bilimlari kartografik tasavvurlar bilan boyitilsa, mavzuning mazmun-mohiyati yanada yaqqol namoyon bo'lib boradi. Kartografik tasavvurlarni shakllantirish tarixiy bilimlarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega.





INTERAKTIV O'YINLAR

O'n xil turli-tuman predmetni bir tomondan qarab o'rgatgandan ko'ra, birgina predmetga o'n tomondan qarab o'rgatishning foydasi ko'proq.

A. Disterverg

O'yinli texnologiyalar



Maktab tarix darsining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix fanini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning ilmiy asosda va maqsadga muvofiq tashkil etilishiga, o'qituvchining o'rganiladigan mavzuning maqsad va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish uslub va usullari hamda vositalaridan qay darajada foydalana bilishiga bog'liqdir. Bu o'rinda innovatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish juda muhim hisoblanadi.

Jumladan, innovatsion faoliyat turlaridan biri bo'lgan o'yinli texnologiyalar tarix darslarida o'tmish voqealarini modellashtirishda qo'llanadigan o'quv mashg'ulotining faol shaklidir. O'yinli faoliyat o'quvchilarning ijodiy-intellektual salohiyatlarini yuzaga chiqarish, tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarix ta'limi o'quvchilarga bashariyat tomonidan to'plangan ijtimoiy tajribani o'rgatishga yo'naltirilgan. Ko'plab metodistlar o'z tadqiqotlarida o'yinli texnologiyalarga alohida e'tibor qaratadilar. Tarix darsida o'yin bu o'quv jarayonining faol bir ko'rinishi bo'lib, dars mobaynida o'tmish yoki hozirgi zamondagi biror voqea o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan tarzda namoyish etiladi. Bunday o'quv jarayoni o'quvchilarda o'sha tarixiy davr haqida o'ziga xos tasavvur uyg'otish, jarayonni his qilishga yordam beradi. O'quvchilar turli o'yinlar orqali o'zlari ijro etadigan personajlari bilan go'yoki qog'ozdagi tarixga jon kiritishadi. O'yin o'quvchiga o'tmish yoki hozirgi zamonning bir qahramoniga aylanib qolishga imkon berib, bolaning o'z imkoniyatlaridan ham yuqoriroqqa ko'tarilishiga turtki bo'ladi, bola o'zining odatiy turmush tarzidan butkul yiroqda bo'lgan boshqa bir insonni gavdalanitiradi. O'z qahramonlarining o'y-xayoli, his-tuyg'ulari, qilgan ishlarini o'zlarida o'tkazib, tarixiy reallikni tasvirlashadi. Sahnalashtirilgan syujetli-rolli o'yinlar bilim berish bilan birga o'quvchilarning ijodiy iste'dodini yuzaga chiqaradi, ularning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashga va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Shu bilan birga, o'yin orqali orttirilgan bilim har bir o'quvchi uchun alohida ahamiyat kasb etadi, o'rganilayotgan tarixiy davrni chuqurroq his etishga sabab bo'ladi – rangdor tasavvur uyg'otadi. Bu kabi qiyin vazifalar o'quvchilarni barcha imkoniyatlarini umumlashtrishga, ulardan o'rinli va oqilona foydalanishga, yangi bilimlarni o'zlashtirish va chuqurlashtirishga, dunyoqarashini kengaytirishga va eng asosiysi kattalarga xos bo'lgan ayrim jihatlar, xususan, muomala tarzini o'rganishga undashi aniq.

Rus tadqiqotchilaridan biri V. Semyonov o'yinlarni quyidagicha turlarga ajratadi:

- 1) o'quvchiga vositali ta'sir o'tkazadigan interaktiv o'yinlar (rebuslar, krossvordlar);
- 2) bevosita ta'sir ko'rsatadigan interaktiv o'yinlar (syujetli-rolli o'yinlar);



3) nointeraktiv o'yinlar (individual topshiriqli o'yinlar).

Semyonovning o'zi bundan tashqari improvizatsiya darajasiga ko'ra ham o'yinlarni turlaydi: 1) rolli-syujetli o'yinlar; 2) muayyan qonunga asoslangan syujetli o'yinlar; 3) syujetsiz o'yinlar (krossvordlar).

Tadqiqotchi M. Korotkova esa o'yinlarni tadqiqot va retrospektiv turlarga bo'ladigan klassifikatsiyani keltirib o'tgan. Chunonchi, tadqiqot o'yinida o'rganilayotgan tarixiy davrga nisbatan kechroq bo'lgan davr olinib, bunda o'quvchiga o'sha tarixiy jarayonni o'rganayotgan zamonaviy shaxs (arxeolog, yozuvchi, jurnalist) roli topshiriladi. Bu kabi o'yinning ikki turini ko'rishimiz mumkin. Birinchisi muhokama o'yini bo'lib, bu o'yin jarayonida tasavvuriy holat yaratilib, o'sha o'rganilayotgan tarixiy davr yuzasidan bahsmunozara uyushtiriladi, muhokama o'tkaziladi (ya'ni disputlar, olimlar simpoziumlari, jurnalistlar muhokamasi va boshqalar). Bunday o'yin ilmiy dialog ustiga quriladi, ammo jarayon aniq dasturga asoslanishiga qaramasdan, unda bolalar improvizatsiyasining hissasi ko'proq bo'ladi. Tadqiqot o'yinining ikkinchi ko'rinishi o'yin-tadqiqot bo'lib, bu ham hozirgi zamondagi o'tmishni o'rganayotgan bir tasavvuriy vaziyat ustiga quriladi. Ammo birinchi turdagi o'yindan farqli ravishda, "qahramon"ning ocherk, xat, maktab darsligi, maqola, ilmiy ma'ruza yozish kabi individual faoliyatiga asoslanadi.

Retrospektiv (o'tmishga murojaat etadigan) o'yinlarda ("rekonstruktiv" atamasi shaklida ham uchraydi) o'quvchilar o'tmishdagi voqea guvohlari hamda ishtirokchilari o'rnida bo'lib ko'rishadi: har bir o'quvchiga o'sha davr jamiyatining ijtimoiy guruhi a'zosi va hattoki tarixiy shaxs roli beriladi. Bu turdagi o'yinning asosiy belgilari "ishtirok effekti" hamda tarixiy belletristika (o'qilishi va tushunilishi oson bo'lgan adabiyotga nisbatan ishlatiladi) prinsipi, ya'ni "shunday bo'lgan bo'lishi mumkin" qabilidagi tushuncha hosil bo'lishiga erishishidir. Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etishda o'qituvchi o'yin ishtirokchilariga mavzuni va mavzu bo'yicha tuzilgan topshiriqlarni bajarish uchun rollar taklif etadi. Ishtirokchilar o'z rollarini tanlab olishadi, umumiy muammoni hal qilishda guruh bilan maslahatlashgan holda qatnashadi.

Retrospektiv o'yinlarni shartli ravishda rolli va rolsiz turlarga bo'lish mumkin. Retrospektiv xarakterdagi rolli o'yinlar tarixiy voqea hamda o'tmishning tasavvuriy bir holatini rollar orqali ijro etishga asoslanadi. Bularning o'zi quyidagi turlarga bo'linadi: sahnalashtirilgan ko'rinish, sahnalashtirilgan o'yin hamda muammoli-munozarali o'yin. Sahnalashtirilgan ko'rinishda voqea xuddi teatr sahnasida o'ynaladigandek aniq belgilab, ko'rsatib berilgan yozma ssenariyga asoslangan bo'ladi. Bunda o'tmishdagi voqealar gavdalantiriladi, turli





shaxslar obrazlari yaratiladi. Sahna ko'inishidagi barcha atributlar – dekoratsiyadan tortib aktyorlarning liboslarigacha – barchasi o'z o'rniga ega bo'lishi zarur. Bu o'yindan maqsad nafaqat o'quvchilarga o'tmishning lavhalarini “jonlantirib berish”, balki sahna ko'inishidan keyin sinfda barcha ishtirokidagi muhokamaga erishish hamdir. Bolalar turli ijtimoiy qatlam vakillari hamda ularning harakatlariga qarab sahnalashtirilgan tarixiy lavhaning davrini, makonini hamda ishtirokchilarini tanib olishadi.

Endi o'yinning asosiy bosqichlarini ko'rib o'tamiz.

Birinchi – tayyorgarlik bosqichi. Bu darsgacha o'tkaziladi. Bunda umumiy g'oya hamda o'yin strategiyasi muhokama qilinadi, reja, ssenariy tuziladi, qatnashchilarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi, darsni o'tkazish uchun kerak bo'ladigan material, uskunalar sotib olinadi, tayyorlanadi.

O'qituvchi bolalarga o'yin vazifalarini tushuntiradi, bolalarning qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rollarni bo'lib beradi, kerakli qo'shimcha adabiyotlarni beradi. Topshiriqlarni oldindan tuzib, bolalarni ular bilan oldindan tanishtiradi. Zarur bo'lganda o'qituvchi darsga tayyorgarlik bo'yicha individual maslahatlarni beradi, qatnashchilar bilan ssenariy fragmentlarini muhokama qiladi, birgalikda o'zgartiradi.

Ikkinchi bosqich darsning o'zidayoq amalga oshadi. U “kirish” deb nomlanadi. Aynan shu bosqichda o'qituvchi butun sinfga yana bir marta o'yin shartlarini, imkoniyatlarini, o'quvchilarning rollarini tushuntirib o'tadi, darsga umumiy yo'nalish beradi. Aynan shu bosqichda o'qituvchi ishtirokchilarni tanishtiradi. Bolalar qizg'in o'yin jarayoniga kirishadi, o'z gacha shukuh yuzaga keladi.

Mazkur bosqich sinfdagi barcha o'quvchilarni o'yin jarayoniga emotsional jalb etishi bilan xarakterlanadi. Bolalar bu bosqichda o'yin ta'sirida go'yoki o'sha holatda “yashab ko'rishadi”, belgilangandan aniq qoidalar bo'yicha harakat qilishadi. O'yin syujeti ochib beriladi. O'qituvchi o'yin elementlarini muvofiqlashtirib turadi, o'quvchilar harakatini bilvosita boshqarib turadi, ya'ni o'quv jarayonini nazoratda ushlaydi. Zarur bo'lganda aktyorlar chiqishlarini to'g'rilab turadi, o'yinga imkon boricha ko'proq o'quvchilarni jalb qiladi, ularning faoliyatlariga qisqacha tavsif berib o'tadi, faol o'quvchilarni maqtovlar bilan rag'batlantirib turadi. Bu bosqichda o'qituvchi asosiy e'tiborni aktyor yoki mutaxassislarga emas, balki tomoshabinlarga, ya'ni butun sinfga qaratishi kerak.

Uchinchi – so'nggi, baholash bosqichida o'yin tugagandan keyin o'quv mashg'uloti tahlil qilinadi, ishtirokchilarga berilgan baholar eshitaladi, o'quvchilar harakatlarining natijaviyligi hamda umuman jarayonning o'zi muhokama qilinadi. O'yinda ko'rsatib berilgan voqeaning tarixiy haqiqatga to'g'ri kelish darajasi o'ziga xos tarzda muhokama qilinadi. O'qituvchi yakuniy so'zlarini aytib, dars tahlili uchun kartochkalar tarqatib, mutaxassislar guruhi fikrini tinglaydi. Bundan tashqari, dars natijasini aniqlash uchun blits-intervyu va kichik so'rovnomalar o'tkazishi ham mumkin. Fikrimizning amaliy isboti sifatida quyida konkurs tipidagi rolli o'yinni tavsifa qilamiz.



Birinchi – tayyorgarlik bosqichi



Ikkinchi – tushuntirish bosqichi



Uchinchi – baholash bosqichi





Mavzu: “Shampan yarmarkasiga oshiqing!” (konkurs tipidagi rolli o'yin)

Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarda XI–XII asrlarda Yevropada savdo-sotiq rivoji haqida yorqin obrazli tasavvur uyg'otish, yarmarkadagi hayotiy lavhani jonlantirish orqali bolalarni o'rta asrlar tijorat olamining muhim markazlari hamda xalqaro savdoning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish, ularning kartografik bilimlarini boyitish, obrazli, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quvchilarga oldindan beriladigan topshiriqlar: darslikdagi mavzuni hamda qo'shimcha adabiyotlardan mavzuga taalluqli ma'lumotni o'qib kelish, savdogarlar gildiyasi (uyushmasi) qaysi shahardan kelganini aniqlab olish.

Topshiriqlarni tayyorlash:

1) bolalar o'z shaharlari (ya'ni o'z savdogarlari uyushmasi mansub bo'lgan shaharlar)ning haqiqiy gerbi tasvirini topishi (yoki o'ylab topishi), chizib, uning ramziy tomonlarini izohlashi;

2) shaharlarining o'z senyorlari qaramligidan qanday ozod bo'lgani haqida qisqa hikoya tuzib kelish;

3) kontur xaritada Yevropa shaharlaridan Shampangacha bo'lgan yo'lni belgilab olish va qisqacha yo'l taassurotlarini tuzish.

O'qituvchi o'quvchilarga darsda o'rta asrlar savdogari portretini tasvirlab beradi. Namuna uchun misol: XII–XIII asrlar savdogarining yarim umri boshqa mamlakatlarga safar qilish bilan o'tadi. U mahsulot sotib olish, sotish uchun yirik hunarmandchilik markazlariga yoki yarmarkalarga boradi. O'z uyi, yurtida nisbatan kam istiqomat qiladi. Belida karmoni osilgan, kamar bilan mahkam bog'langan pishiq yo'l po'stin hamda uning ustidan yomg'ir va sovuqdan asraydigan chakmon kiyib olgan savdogar mollar yuklangan arava ulangan otda boradi. Egarning bir tomonidagi to'rvada otning yemishi osilib tursa, narigi tomonida vaziyat taqozo etgan paytda ustalik bilan foydalanadigan og'ir qilich turadi. Savdogarning oldidan chiqishi mumkin bo'lgan to'siq va xavf-xatar ehtimolining yuqoriligi ham, uning butunlay savodsizligi ham – na o'qishni, na yozishni, na hisoblashni bilmasligi – uni to'xtatolmasdi. Mo'may daromad ilinji ustunroq edi.

O'qituvchi “safar”da ishtirok etish uchun savdogarlik huquqini beruvchi “imtihon”dan o'tish lozimligini aytadi.

Imtihon qilish uchun namunaviy savollar:

1. “Lombard”, “veksel”, “bank”, “birja” so'zlarining kelib chiqishini izohlang.
2. O'rta asrlarda kimni “qalampirli qop” deyishgan va nima uchun?
3. Qaysi omillar Shampan yarmarkasi gullashiga sabab bo'ldi?

O'yinning asosiy qismi.

1-shart. Guruhlar, ya'ni “gildiya”lar o'z shaharlarining gerbini namoyish qiladi va uning ma'nosini izohlab beradi.

Qo'shimcha savollar:

1. Shahringiz nomi qanday ma'noni anglatadi?
2. Shahar qay tarzda vujudga kelgan?
3. Mazkur gerbingiz gerblarning qaysi turiga kiradi?

Geraldik (gerbshunoslikka oid) qonun-qoidalar bilan bolalarni oldindan – darsga tayyorgarlik ko'rilayotgan paytlarda tanishtirish zarur.

2-shart. Guruhlarning o'z shaharlari senyor hukmidan qay tarzda ozod bo'lganligi haqidagi hikoyalari eshitiladi. Hikoyada bunday muhim voqeaga nima sabab bo'lgani va uning oqibatlari aniq ko'rsatilishi kerak.





Namuna uchun hikoya. Lana shahri senyori – yepiskop Godri va uning odamlari ochiqchasiga xalqni talon-toroj qilardi. Fuqarolar o'zlarini bunday zug'umlardan himoya qilish uchun senyorlariga uncha katta bo'lmagan miqdorda pul taklif qilishadi va u kommuna qoidalariga rioya etishga qasamyod qiladi. Ammo fuqarolarga bo'lgan hasad yepiskopni yo'ldan ozdirib, u kommunani yo'q qilishni buyuradi. Shartnomaning buzilishi xalq qalbini g'azab va nafratga to'ldiradi. Aholi yepiskop hamda uning xizmatchilarini o'ldirishga qasam ichadi. Buni eshitgan yepiskop shunday deydi: “Uf, kelib-kelib shularni qo'lida o'lib ketamanmi?!” Pasxaning beshinchi kuni shahar bo'ylab vahima tarqaladi, ko'chalarda odamlar “Ozodlik! Ozodlik!” deb qichqirib yurishardi. Bolta, o'q-yoy, kaltak, nayzalar bilan qurollangan olomon yepiskop saroyiga oshiqadi. Godri cherkov yerto'lasidagi bo'sh vino bochkasiga yashirinadi. Odamlar uni topishadi va ko'chaga olib chiqib o'ldirishadi”.

3-shart. Qatnashchilar o'z shaharlaridan Shampangacha bo'lgan yo'lni xaritada qay tarzda belgilab borganlarini ko'rsatadilar. Shuningdek, yo'l sarguzashtlari haqida so'zlab beradilar. Parcha o'qib beriladi:

“Italiyalik savdogarlar karvoni tun qorong'isida tor o'rmon yo'lida harakatlanib borardi, 10 qadamdan narini ko'rib bo'lmadi. O'rmon birdaniga baland qichqiriqlar, metall buyumlarning bir-biriga urilgandagi ovozi va otlarning hurkib kishnashiga to'lib ketdi. Daraxtlar orasidan sakrab chiqqan juldur kiyimli odamlar o'zini yo'qotib qo'ygan savdogarlarni qurshab olib, otlardan tugunlarni yulqib ola boshladilar. Birozdan keyin ular savdogarlarni daraxtlar orasiga sudrab ketishdi.

“Bizni qayerga sudrayapsiz? Bizga shaxsan papaning o'zi qirol yorlig'ini topshirgan! Hammasi uchun javob berasizlar hali! Men qirolga arz qilaman!”

Aytilgan javob sarosimada o'zini yo'qotib qo'ygan savdogarlarga birdan yetib kelmaydi.

– Ha, mana qirolning o'zi!

Savdogarlar o'zining g'ira-shira yorug'ida to'nka ustida o'tirgan semiz odamni ko'rishadi. Unga juldur kiyimdagi bir odam qo'lga kiritilgan o'ljalari haqida ma'lumot berayotgandi. Bu Fransiya qirol Filipp I edi.

– Jerar, xazinaning yarmini savdogarlar oldiga to'k. Mehmonlarga xurjunlarining yarmini qaytar, bizning saroyga yarmi ham yetadi. Hammasini tortib olish yaramaydi, bu mamlakatimizda mehmondo'stlik yo'q degani bo'ladi. Ularni yaqin atrofdagi biror tegirmonga olib borib qo'y, o'sha yerda tunni o'tkazishsin, keyin Shampangaga jo'nashadi.

Qirol qorong'ilikka singib ketgach, taajjubga to'la ovozlari eshitila boshlaydi: “Shu ham qirol bo'ptimi! O'zi bizni talon-toroj qilgan bo'lsa, u qanaqasiga qonun himoyachisi bo'ladi? Bu qirol qaroqchi yoki umuman qirol ham emas”.

Topshiriq. Nima deb o'ylaysiz, voqea nechanchi asrda bo'lib o'tgan? Savolga javob berish asnosida savdogarlar yo'lidan chiqishi mumkin bo'lgan to'siqlar tahlil qilinib, ularni yengib o'tish choralarini muhokama qilinadi. Masalan: bo'ron, qaroqchilar, yomg'ir, otlarni taqalash va ularga yem berish muammosi, ulovning buzilib qolishi, ko'prikning buzilishi.

O'qituvchi Shampanda har yilgi yarmarka o'tkazish taqvimini, uning tartibi va shakllari haqida so'zlab beradi. Qatnashchilar o'zlariga yil mavsumi tanlab olishlari kerak. Mahsulot shunga bog'liq bo'ladi.

Shampan yarmarkasining har yillik taqvimi:

- iyun – iyul – “qaynoq” yarmarka (Trua shahrida);
- avgust – sentyabr (Proven shahrida);
- oktyabr – dekabr – “sovuq” yarmarka (Trua shahrida);
- yanvar – mart – (Lani shahrida);
- mart – aprel (Bar-syur-Ob kommunasida);
- may – iyun – “may yarmarkasi” (Proven shahrida).





Barcha yarmarka uchun umumiy bo'lgan mundarija:

- namoyish (8 kun): mollarni tushirish va rastalarga joylashtirish;
- savdo (60 kun): gazmol (10 kun), teri va mo'yna (10 kun), ziravorlar (10 kun), o'lchanadigan mollar (30 kun);
- sotib olingan tovarlar to'lovi (14 kun).

Savdo-sotiq jadvali:

Sotamiz	Natija	Olamiz	Natija

Qatnashchilarga o'z tovarlari uchun afisha (reklama) chizish, shuningdek, o'rta asrlarda reklama bo'lgan-bo'lmaganligi haqida fikr yuritib ko'rish taklif qilinadi.

Hujjat. XIII asr Narbonn bozori mollari: rangli va oq farang gazlamasi; koshenil bilan bo'yalgan qizil gazlama; fijak, kagor gazmoli; jigarrang, alvonrang gazmol; Narbonn gazmoli.

Savol. Bunday yarmarka qay vaqtda o'tkazilishi mumkin edi?

Savdo uyushmalari savdogarlari o'zlari olib kelgan mollar ro'yxatini o'qib eshittiradi. Qolgan guruhlar bu mol o'zlariga kerakmi yoki yo'qligini tekshiradi. Talab va taklif to'g'ri kelgan holatlarda jadvalning 2- va 4-ustunlariga natijalar qayd etiladi: sotayotgan guruh sotilgan tovar to'g'risiga qancha gildiyalar tomonidan sotib olingan bo'lsa, shuncha plyus (+) belgisi qo'yadi, sotib olayotgan guruh esa necha marta taklif qilinsa, shuncha plyus qo'yadi.

4-shart. Mahsulot to'lovini amalga oshirish muhim masala hisoblanadi. Gildiya vakillari o'z shaharlarida qaysi pul muomalada bo'lganligi haqida ma'lumot berishadi. Tangalar qog'ozdan tayyorlangan bo'ladi. O'quvchilar o'z tangalarini "sarof"lar (hay'at a'zolari)dan Shampan yarmarkasida muomalada bo'lgan tangalarga almashtirishadi.

O'sha davrda foydalanilgan tangalar haqida ma'lumotdan namuna:

- a) VIII–IX asrlarda – dinor;
- b) X–XIII asrlarda – dinor;
- d) XIII asr o'rtalari – XVI asr boshlarida – grosh va florin.

O'qituvchi o'rta asrlar Yevropasida tanga muomalasi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Uni bir necha davrlarga bo'ladi. 1266-yil pul islohoti natijasida Fransiyada *grosh* paydo bo'ladi. 1 *grosh* 12 *dinorga* teng edi. Italiyada *grosso* zarb qilina boshlaydi. 1360-yil hozirgacha muomalada bo'lgan *frank* tangasining dastlabki nusxasi zarb qilinadi (Fransiyaning asosiy pul birligi). Bundan tashqari, *ekyu*, *liondor*, *florin*, *sollar* ham bo'lgan. Angliyada *penni*, 12 *penniga* teng *shilling*, 10 *shillingni* tashkil etuvchi *nobllar* zarb qilingan. Ilk *talerlar* 1518-yil zarb qilingan.

Darsning yakuniy qismida musobaqa natijalari va gildiyalar ballari hisoblanadi.

Uyga vazifa: Shampan yarmarkasida bo'lib qaytgan Ganza savdogarining taassurotlari haqida insho yozib kelish.



TARIX FANI TO'GARAGINI TASHKIL ETISH BO'YICHA O'QITUVCHILARGA TAVSIYALAR

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimida ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda to'garaklar faoliyati va o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalq ta'limi vazirligining 2002-yil 10-oktyabrdagi 153-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan o'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning yangi konsepsiyasi ana shu maqsadga qaratilgan.

To'garaklar orqali kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli ravishda kasb tanlashni o'rgatishdir. Bugungi kunda yoshlarni to'garaklarga jalb qilish va kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda bir qancha muammolarni hal etish zarur. Bizning vazifamiz har tomonlama puxta bilimga ega bo'lgan, bozor iqtisodiyotini yaxshi tushunadigan kadrlarni tayyorlashdir. Kasb tanlash uchun o'quvchilar shu kasb haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari, ya'ni sohaning o'ziga jalb qiladigan tomonlarinigina emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishlari, o'zlarining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlagan kasblarini muvaffaqiyatli egallay olishlari va keyingi ish jarayonida o'z malakalarini takomillashtirib borishlari talab etiladi.

Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularning faqat 65% i ommaviy kasblarni bilishini ta'kidlagan. O'quvchilarning faqat 25% i to'garaklarga jalb qilingan. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda obyektiv holda turlicha bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat'iyligi, tashabbuskorligi, uyushqoqligi, intizomliligi, topshirilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan yondashishi kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, to'garak ishlari orqali kasbga yo'naltirishda o'quvchining aynan shu kasbni tanlash sabablarini, qiziqish va imkoniyatini, kasbning ijtimoiy ahamiyatini, tayyorgarlik darajasini, oila an'analarini, ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarning maslahatlarini hisobga olish kerak.





Respublikamizdagi umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib 2021-yilga qadar 1500 ta to'garak faoliyati yo'lga qo'yildi. Muayyan mavzular bo'yicha muzey, tarixiy obida, qadamjo va teatrlarda sayyor tarix darslari o'tkazilib kelinmoqda.

Mashg'ulotning vazifasi:

- o'quvchilarni mustaqil mushohada va fikr yuritishga o'rgatish;
- kichik guruhlarda ishlash, berilgan topshiriqlarga aniq va ravon javob berishga o'rgatish;
- o'zgaralar fikrini hurmat qilishga o'rgatish;
- o'quvchilarga tanqidiy fikrlash hozirgi davr uchun nechog'lik zarurligini anglatish, har qanday kamchilik salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishini tushuntirish.

To'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda zarur me'yoriy hujjatlar:

- 1) o'qituvchilarning ish hujjatlari;
- 2) fan to'garaklari jadvali;
- 3) fan to'garaklariga qabul qilingan o'quvchilarning (ota-ona tomonidan maktab direktori nomiga, o'quvchi tomonidan to'garak rahbari nomiga yozilgan) arizalari;
- 4) to'garak o'quv dasturi va yillik ish rejaları (fan o'quv dasturi asosida);
- 5) fan to'garaklari jurnallari;
- 6) fan to'garaklari ishlanmalari;
- 7) to'garak faoliyati monitoring daftari (maktab rahbariyati tomonidan to'garaklarda ishtirok etayotgan o'quvchilarning bilim salohiyatini monitoring qilib borish uchun);
- 8) to'garak mashg'ulotlari tahlil daftari (bir oyda bir marta o'qituvchilar tomonidan to'garak mashg'ulotlari tahlil qilinadi).

Ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda ta'lim berishning yangi vositalari, o'quv-uslubiy majmualari, yaratilgan shart-sharoitlar bilan bir qatorda o'qituvchining qobiliyati, ilmi, pedagogik mahorati evazigagina ko'zlangan maqsadga erishiladi, yuksak marralar egallanadi. Ta'limni isloh qilishga qaratilgan davlat me'yoriy hujjatlari talablari asosida ta'lim mazmuni, mohiyati va bu sohada samaradorlikka erishish usullari belgilab olingan.

Bizning maqsadimiz mamlakatimizdagi har bir yosh avlodni to'garaklar bilan qamrab olish, chuqurlashtirilgan va kasbga yo'naltiruvchi bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun o'quvchilarni boshlang'ich sinflardan boshlab kasblar, ularning turlari, vazifalari to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishtirib borish, o'zlariga yoqqan kasbga nisbatan qat'iy qiziqish hosil bo'lishi uchun zaruriy maslahat va tavsiyalar berish lozim.


Har bir fan to'garagi yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning amaliy ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga ko'maklashadi.

To'garak mashg'ulotlari uchun mavzular, albatta, o'quv dasturidan chetga chiqmagan holda tuzilishi kerak. Quyida taqdim etilayotgan 34 soatlik to'garak mashg'uloti mavzulari ham o'quv dasturidan chiqmagan holda tuzilgan bo'lib, o'quvchilar bu mavzularni o'zlashtira olsa, tarix fani olimpiadalarida asqatadi. Xulosa qilib aytganda, siz tashkil etgan to'garak mashg'ulotlarida o'rgangan, o'zlashtirganlarini o'quvchi amalda qo'llay bilsa va ulardan hayotda foydalana olsa, bu barcha harakatlarimiz uchun rag'batdir! To'garaklar o'qish va hayotning uzviy aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Bu omillar orqali o'quvchilarda kompetensiyalar shakllanadi.





To'garak mashg'uloti taqvim-mavzu rejasini tuzishda e'tibor qaratiladigan jihatlar



Maktabda faoliyat olib borayotgan har bir pedagog xodim o'zining belgilangan dars soatlaridan kelib chiqqan holda to'garak mashg'ulotining yillik ish rejalarini tuzadi:


- 1) dars soati 16–20 soat, haftasiga 2 soat (jami 68 soat: shundan 34 soati iqtidorli o'quvchilar uchun, 34 soati o'qishida bo'shliqlar kuzatilgan o'quvchilar uchun);
- 2) dars soati 11–15 soat, haftasiga 1,5 soat (jami 52 soat: 26 soati iqtidorli o'quvchilar uchun, 26 soati o'qishida bo'shliqlar kuzatilgan o'quvchilar uchun);
- 3) dars soati 10 soat, haftasiga 1 soat (34 soat: shundan 17 soati iqtidorli o'quvchilar uchun, 17 soati o'qishida bo'shliqlar kuzatilgan o'quvchilar uchun);
- 4) dars soati 10 soatdan kam, haftasiga 0,5 soat (17 soat).

Psixologlar va didaktikashunoslar tomonidan isbotlanishicha, o'quvchining shaxsiy tajribasi va ilmiy bilimlar o'rtasidagi bilish vazifalarini aniqlash zaruriyati bilan uni hal etish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda jonli bilish jarayoni yotadi. Bunda o'quvchi butun imkoniyatlarni (intellektual tajribani) ishga solib, bu ziddiyatdan chiqib ketishga harakat qiladi. Eng muhimi, bizning vazifamiz shu masalani hal etishda uchraydigan ziddiyatlarni izlab topish, aniqlash, so'ng shu qarama-qarshiliklarni hal etish imkoniyatlarini, yo'llarini, shartlarini ochib berishdan, o'quvchilarning faol bilish jarayonini tashkil etishga undovchi ichki intilish, ehtiyojni yuzaga keltiruvchi qo'zg'atuvchi vositalarni izlab topishdan iborat. Xuddi shu qo'zg'atuvchi o'qitish jarayoni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib maydonga chiqadi.



mashg'ulotda ishtirok etayotgan barcha o'quvchilarning salohiyatini to'g'ri baholab, ularni rag'batlantirishdir.

To'garak mashg'ulotini tashkil etish usullari



Nazariy mashg'ulot: bu usuldagi to'garak mashg'uloti barcha fanlarda qo'llanadi. Bu jarayonda o'quvchi mavzu, mashg'ulot haqida dastlabki ma'lumotga ega bo'ladi, og'zaki nutqi yaxshi rivojlanadi.

Amaliy mashg'ulot: bu usuldagi to'garak mashg'ulotlari tarix (tarixiy yodgorliklarga, muzeylarga sayohat orqali), texnologiya (mavzuga mos ravishda turli tikish-bichish, buyumlar yasash orqali), geografiya (tabiat, geografik joylar, qit'alar va dunyodagi geografik o'zgarishlarni o'rganish orqali) fanlarida yaxshi samara beradi. Bu usuldagi to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchining dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikr yuritish qobiliyati va kompetensiyalari shakllanadi.


Ijodiy: bu usuldagi to'garak mashg'ulotlarini tarix (tarixiy va arxeologik yodgorliklar maketini hamda qadimiy mehnat qurollarini yasash orqali), musiqa (turli musiqiy asboblarni chalish, qo'shiq kuylash orqali), tasviriy san'at (turli janrdagi rasmlar chizish orqali) fanlarida qo'llash yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchi o'zining ijodkorligini, iqtidorini, iste'dodini namoyon etadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, insonlar ma'lumotlarni eshitish orqali 15%, ko'rish orqali 25%, ham eshitish, ham ko'rish orqali esa 65% eslab qolar ekan.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, o'quvchilarga ma'lumotlar og'zaki ta'rif, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, suratlar, grafiklar, jadvallar, turli buyumlar va hokazo), sayohatlar, videoroliklar va multimedia mahsulotlaridan foydalangan holda yetkazilsa, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi va yuqori samaraga erishiladi.



To'garak mashg'ulotlarini olib borish metodlari



An'anaviy: bu usullar orqali tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlari seminar, konferensiya, bahs-munozara, savol-javob musobaqalari ko'rinishida o'tkaziladi. An'anaviy metodlar o'quvchining og'zaki nutqi rivojlanishida yaxshi samara beradi va xotirani mustahkamlaydi.

Noan'anaviy: bu usulda tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlari guruhlariga bo'lingan holda olib boriladi. Har bir guruh o'zining mavzuga oid taqdimotlarini, sahna ko'rinishlarini mustaqil ravishda namoyish etadi yoki berilgan topshiriqlarni jamoa bo'lib bajaradi. Bunda o'quvchilarda do'stona munosabat, jamoa bo'lib ishlash hissi shakllanadi.

Innovatsion: bugungi rivojlangan davrga mos bo'lib, bunda to'garak mashg'ulotlari zamonaviy texnologiyalar, videodaralar, sayohatlar orqali tashkil etiladi va o'quvchini tinimsiz izlanishga undaydi, unda fanga bo'lgan qiziqishlarni orttiradi.

Hozirgi fan-texnika jadal rivojlanayotgan davrda o'quvchi-yoshlarni axloqiy va huquqiy jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi zarur bo'lgan umumta'lim maktablarining mavqeyi har qachongidan ko'ra oshdi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarini, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirish, ularda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, yosh avlodni hayot va mehnatga, kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida ham doimiy ustuvor vazifalardandir.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi, obyekt va yo'nalish bilan oldindan tanishib, to'liq reja ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt va u bilan tanishish tartibi, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog'liq bo'ladi.

Fanga, ta'limga e'tibor har qachongidan ham kuchaygan bir davrda qo'shimcha mashg'ulotlarni qiziqarli va noan'anaviy, ayniqsa, innovatsion tarzda tashkil etish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarni orttiradi.



XULOSA

O'quvchilarning tarixiy bilimlari shakllanishida ularning o'quv faoliyatiga o'qituvchining mohirlik bilan rahbarlik qilishi muhim rol o'ynaydi. Tarixni o'rganish samaradorligini oshirish asosan o'quv jarayoniga to'g'ri rahbarlik qilish bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu quyidagi tavsiyalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini tarixiy bilim manbalari bilan ta'minlash. O'quvchilarda tarixiy bilim poydevorini ilmiy asosda shakllantirish uchun birinchi galda tarix o'qituvchisining o'zi ana shunday bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan egallagan, shuningdek, ularni o'quvchilarga yetkaza olishning optimal usullari bilan qurollangan bo'lmog'i kerak.

2. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini o'rganiladigan tarixiy materialga nisbatan yo'naltira bilish, ularda tarixiy bilimlarga qiziqish uyg'otib borish, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchining pedagogik faoliyatida asosiy o'rinni egallamog'i kerak. Tarixni o'rganish jarayonida bu vazifalar o'rganilayotgan mavzuga turli vositalar yordamida yondashishni taqozo etadi. Darslik matnidan tashqari, mavzuga oid materiallarni tanlash, fanlararo aloqa bog'lash, badiiy adabiyot va davriy matbuot materiallaridan, shuningdek, tasviriy san'at asarlaridan maqsadli foydalanish, o'quvchilarning mavzu yuzasidan mustaqil ishlarini faol tashkil etib borish shular jumlasidandir.

3. Dars jarayonida tarixiy bilimlarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi va idrok etilishiga o'qituvchining bevosita va tizimli rahbarlik qilishi masalani ijobiy hal etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Mazkur o'rinda o'qituvchidan dars jarayonida o'rganilayotgan mavzudagi asosiy (yo'naltiruvchi g'oya, tayanch bilim) masala, ya'ni o'quvchilar bilishlari shart bo'lgan tarixiy ma'lumot-voqelikni alohida qayd etish, mavzuni bayon qilish rejasini tuzish, xaritada u yoki bu yo'nalishlarni aniq ko'rsatib berish talab etiladi. Asosiysi, o'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarda darslik matni ustida ishlash, tarixiy hujjatlar, davriy matbuot va badiiy adabiyotlarni mustaqil tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirmog'i kerak.

4. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish, ma'lum tuzatish va o'zgartirishlar kiritib borish, olgan bilimlari yuzasidan ijodiy va mantiqiy fikr yuritish, tarixiy materiallar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'rganganlarini o'qish jarayonida, hayotda amaliy qo'llashda ham o'z aksini topishi kerak.

Ta'lim berish prinsipi – ta'lim berish nazariyasining asos qilib olinadigan, o'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etish hamda dars berishda amal qilishlari lozim bo'lgan qoidalar. Ta'lim berish nazariyasidagi qoidalar ta'lim berishning didaktik prinsiplari bo'lib, bularga tarbiyaviy o'qitish, o'quv materialining ilmiy jihatdan to'g'riligi, o'qitishning ko'rgazmali bo'lishi, amaliyot bilan bog'langanligi, bilimning ongli ravishda o'zlashtirilishi, o'quv materialini tushuntirish va o'rgatishning izchilligi kabilar kiradi. Har bir dars oldidan Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari, milliy istiqloq mafkurasining ilmiy asoslari, jamiyatimizning ma'naviy yangilanish tamoyillarini qisqacha tushuntirib o'tish maqsadga muvofiq. Dars jarayonida va darsdan tashqari holatlarda o'qituvchining ibratli xatti-harakatlari katta rol o'ynaydi.

Hozirgi zamon yoshlarining ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga qiziqishi, ta'lim mazmuniga talabchanligi o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, malakasini oshirib borishiga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda pedagogikaga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib, qo'llanib borilishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z o'quvchi-talabalarida fanga ijodkorlik nuqtayi nazari bilan





qarash tuyg'ularini uyg'otishi, izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va, albatta, darsni yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda tashkil etishi kerak. O'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan pedagogik vositalardan biri aniqlashtiruvchi va faollashtiruvchi savollardir. O'quvchining bergan savoliga qarab uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhit yaratadi. Savol berish bilan birga o'quvchilarda fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Interfaol metod va usullarning ayrimlarini sanab o'tamiz: "aqliy hujum", klasterlar, mustaqil xat, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lim, muallifga savollar, "bilaman, bilishni istayman, bilib oldim" (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, esse va boshqalar. Bu metod va usullar o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarning o'sishi, muammoli vaziyatlarni hal etish, guruh bilan ishlash, o'zgalar fikrini tinglay olish va o'z fikrini mustaqil bayon etish ko'nikmalarining shakllanishiga, shuningdek, o'ziga ishonch, bilimiga tayanish, qiziqishlarining kuchayishi hamda fikrlash doirasining kengayishiga olib keladi.

O'qituvchi o'quvchi shaxsining ichki olamini hisobga olishi, ya'ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashishi, undagi qobiliyatlarni payqashi, so'z boyligining oshib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi kerak.

Mashg'ulot samaradorligini oshirish uchun amal qilish zarur bo'lgan qoidalar (12 qoida):

- 1) dars qoldirmaslik va darsga kech qolmaslik;
- 2) aniq maqsad qo'yish va unga erishish uchun harakat qilish;
- 3) vaqtdan unumli foydalanish;
- 4) fikrni bo'lmaslik, eshita olish, savol berish madaniyatiga rioya qilish;
- 5) o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- 6) o'zaro hurmat;
- 7) mas'uliyatli bo'lish;
- 8) faollik, ijodkorlik va bunyodkorlik;
- 9) kayfiyatni mo'tadil saqlash;
- 10) tashkilotchi va tashabbuskor bo'lish;
- 11) fikrni qisqa, aniq va ravon ifoda etish;
- 12) xayrixohlik, hamdardlik, yordam ko'rsatish.

Bu qoidalar bolaning yuqori darajada ma'naviyatli va madaniyatli, keng fikrlovchi, ijodkor bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, o'zgalar fikrini hurmat qilishga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchilar dars jarayonida shu qoidalarga amal qilsa, o'z fikrlari, g'oyalarini aytishdan cho'chimasa, serg'ayrat, shijoatli bo'lsa, o'zgalar fikrini hurmat qilsa, darslar samara berishi aniq.

Bugungi davr talabi shuki, o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalaydigan, mustaqil izlanib, bilimlarini boyitadigan darajaga olib chiqish asosiy vazifa hisoblanadi.

O'quvchilarning bilimlarni qay darajada o'zlashtirganligi hamma vaqt ularning bilish faoliyati natijasi bo'ladi. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilar birgalikda – hamkorlikda ishlaydigan tizim bo'lishi kerak, bu tizimga o'qituvchi rahbarlik qiladi, ammo natija o'quvchilarning bilish faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro faol munosabatga kirisha olishi, o'quv topshiriqlarini bajarishda o'qituvchi-o'quvchi sxemasida ishlanishi pedagogik hamkorlikning asosi sanaladi.

O'qitishda pedagogik texnologiyalarning interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish dolzarb sanaladi. Bu esa o'z navbatida har bir fan o'qituvchilaridan shu turdagi ta'lim metodlaridan xabardor bo'lish, o'z faoliyatida maqsadli, samarali qo'llay olishni talab qiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
3. *Mirziyoyev Sh. M.* Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
4. *Mirziyoyev Sh. M.* Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
5. Bolalar ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
6. Mo'jiza kitobi. Bolalar uchun universal ensiklopediya (tuzuvchi: N. Nikolayeva). – Toshkent: "O'zbekiston", 1998.
7. *Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.* Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
8. *G. Ibragimova* "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2017.
9. *Xodjayev B.* Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2016.
10. *Rajabov Q. va boshqalar.* Jahon tarixining muhim sanalari (eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Toshkent: "O'zbekiston", 2011.
11. *Sattorov Sh.* Biz g'alaba qozonamiz. – Toshkent: "Bilim va intellektual salohiyat", 2018.
12. *Панченко С.* Метод проектирования на уроках истории // Общероссийское педагогическое экспертное Интернет сообщество. – Москва: История. 2013.
13. *Созонова С. Д.* Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. – Чита: 2018.
14. *Вяземский Е. Е., Стрелова О. Ю., Ионов И. Н., Короткова М. В.* Историческое образование в современной России. – Москва: 1997.
15. *Короткова М.* Методика проведения игры дискуссий на уроках истории. – Москва: "Владос Пресс", 2001.
16. *Golish L. V., Fayzullayeva D. M.* Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma // Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot". 2012.
17. *Pardayeva M.* Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2020.
18. *Ismailov A. F.* Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. – Toshkent: 2018.
19. *Safarova R. va boshqalar.* O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
20. *Rajabov R., Ibragimov X., Fayziyeva F.* Tarixni o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish // O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
21. *Xodjayev B.* Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi? – Toshkent: "Ma'rifat", 2018.





22. *Mustafoyev J.* Tarix o'qitishda texnologiyalar va loyihalashtirish fanidan laboratoriya mashg'ulotlari // Metodik qo'llanma. – Navoiy: 2013.
23. *Mustafoyev J., Toshturov Sh.* Ta'lim jarayonida loyihalash usulidan foydalanish // "Uzluksiz ta'lim", Toshkent, 2014. – №3.
24. *Saparova G., Zaripov E.* "Orol dardi – olam dardi" mavzusidagi sahnalashtirilgan o'yinlar dars ishlanmasi // "Xalq ta'limi" jurnali, Toshkent, 2012-yil. – №1.
25. *Mustafoyev J.* Insonparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarix fanining o'rni // "Uzluksiz ta'lim", Toshkent, 2017. – №5.
26. *Nurg'oziyev Sh.* Tarix darslarida qiziqarli o'yinli usullardan foydalanish // Metodik qo'llanma. – Do'stlik: 2006.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.bilim.uz
7. www.geacron.com





Respublika

ta'lim markazi

@edurtm_uz

Jahon tarixi 7 [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / A. F. Ismailov [va boshq.].
– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

ISBN 978-9943-8376-9-0

UO'K 94(100)(072)
KBK 63.3(0)

O'quv nashri

JAHON TARIXI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma*

Muharrir *Ilhom Qosimov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhah *Orifjon Madvaliyev*
Sahifalovchi-dizayner *Abror Omonov*

Bosishga ruxsat etildi 02.11.2022 Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasida. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 16,04 Nashriyot-hisob tabog'i 17,22
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ____.